

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

S.M.Zokirova

RAQS

o‘quv qo‘llanma

Toshkent -2017

***O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI***

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

S.M.Zokirova

RAQS

o‘quv qo‘llanma

5111000-Kasb ta’limi (yo‘nalishlar bo‘yicha)

5150300-Aktyorlik san’ati (turlari bo‘yicha)

5150400-Rejissyorlik (turlari bo‘yicha)

5151600-Xalq ijodiyoti (turlari bo‘yicha)

Toshkent -2017

Taqrizchilar: A.F.Ismoilov - O‘zDSMI, “Sahna harakati va jismoniy madaniyat”
kafedrasi professori

R.Sultanova - O‘zbekiston xalq artisti

“Raqs” fanidan tuzilgan mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Kengashi tomonidan 2017 - yil _____ da nashrga tavsiya etildi.

ANNOTATSIYA

Yosh avlodga – xoreografiya oliy o‘quv yurtlari, xoreografiya kolleji, san’at kollejlari, musiqa maktablari o‘quvchi va talabalariga buyuk ustozlardan qolgan merosni o‘rgatish maqsadida ushbu “Raqs” (“Meros raqslar”) o‘quv qo‘llanmasini nashrga tayyorlandi.

Darslikda o‘zbek milliy raqsining kelib chiqish tarixi va bu san’at turining rivojlanishiga, bizgacha yetib kelishiga o‘zining benazir xissasini qo‘shgan buyuk san’at darg‘alari xaqida qisqacha ma’lumot, Farg‘ona, Xorazm va Buxoro raqs maktablarida uchraydigan asosiy holatlar, hamda xalqimiz sevgan va ardoqlagan raqqosa, ustoz-xoreograf Mukarram Turg‘unboyeva sahnalashtirgan raqs durdonalaridan bo‘lgan “Bayot”, “Pilla”, “Paxta”, “Farg‘ona ruboiysi”, “Janon”, “Gulsara” raqslari kiritilgan.

Darslikni yaratishdan asosiy maqsad – nomoddiy madaniy merosimiz bo‘lmish raqs san’atining namunalarini asrash, targ‘ib qilish, talaba va o‘quvchilarga o‘rgatish va asl holida saqlashdir.

АННОТАЦИЯ

Данное учебное пособие «Ракс» («Мерос ракслар») подготовлено для обучения молодого поколения - учеников и студентов высших хореографических учебных заведений, колледжей искусств, музыкальных школ наследию, оставленным великими наставниками.

В данном учебнике представлены: история появления национального танца; краткая информация о представителях искусства танца, которые внесли свой вклад для его развития; основные положения, часто встречающиеся в школах танца Ферганы, Хорезма и Бухары. А также, известные танцы, постановленные любимой и всеми уважаемой хореографом-педагогом Мукаррам Тургунбаевой, такие как «Баёт», «Пилла», «Пахта», «Фаргона рубойиси», «Жанон», «Гулсара».

Основная цель создания данного учебника – сохранение, распространение и обучение учеников и студентов образцам танцевального искусства, являющихся не материальным наследием нашего народа.

ANNOTATION

This tutorial “Dance” (“Dance heritage”) was prepared to publish to teach great tutor`s heritage to the younger generation, students and pupils of music schools, art colleges, choreography institution of higher education.

This textbook includes information on history of Uzbek national dance and influence of great art schools that are cause of developing this kind of art and bringing it to us. There is written about main states in dance schools of Fergana, Kharezsm and Bukhara, and masterpieces as “Bayot”, “Pilla”, “Paxta”, “Rubáiyát of Fergana”, “Janon”, “Gulsara” that were screened by adored and appreciated by public tutor-choreograph Mukarrama Turgunbayeva.

The main goal of creating this textbook is to keep varieties of dance as cultural heritage and distribute, teach students and pupils to them.

KIRISH

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma‘naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat‘iyat va mas‘uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘tamuhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma‘naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma‘naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o‘rganilishi, an‘ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san‘at, fan va ta‘lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o‘zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog‘liqdir.*

Ana shunday boy tarixiy merosimiz silsilasida o‘zbek milliy raqs san‘ati alohida o‘rin tutadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbek raqs san‘ati uzoq tarixga ega bo‘lib, boshqa xalqlar raqs san‘atidan o‘zining nafisligi, jozibasi bilan ajralib turadi.

San‘atshunos-olim, professor M.R.Raxmonovning “O‘zbek teatri” kitobida shunday satrlar bor: “Ijrochilik san‘atining ko‘pgina tur va janrlari kabi, o‘zbek raqs san‘ati ham ikkiming yildan ko‘proq rivojlanish tarixiga ega. Ibtidoiy jamiyat davriga mansub tasviriy san‘at yodgorliklarida pontomim raqsga tushib turgan kishilar tasvirini juda ko‘p uchratamiz. Ular turli mazmun va xarakterga ega.

* I.A.Karimov. “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent – 2008.

Ba'zilar mehnat va ov jarayonini tasvirlasa, ba'zilar qandaydir tabiat xodisalariga talpinayotganga, sajda qilayotganga o'xshaydilar. Bular shuni ko'rsatadiki, dunyoning turli qit'alarida bo'lganidek, O'zbekiston territoriyasida ham pantomim o'yin san'ati ibtidoiy zamonlardan oq shakllana boshlagan".

Hozirgi kunga kelib esa, o'zbek milliy raqs san'ati dunyoning boshqa millatlari raqslari orasida o'z o'rnini va mavqeiga ega bo'lib bormoqda. Milliy raqslarimiz xalqaro festivallar, bayram tadbirlarida iqtidorli san'atkorlarimiz tomonidan mohirona namoyish etilib, dunyo xalqlarining olqishlariga sazovor bo'lmoqda.

San'atkorlarimiz milliy raqslarimiz bilan bir qatorda dunyo xalqlarining zamonaviy va klassik raqslarini ham maromiga yetkazib ijro etmoqdalar, chunki bilim yurtlarimizda nafaqat milliy raqslarimiz, balki dunyo xalqlarining raqslari ham xoreograf va pedagoglarimiz tomonidan bo'lajak san'atkorlarga o'rgatilmoqda.

Hozirgi kunda xuddi bizdagi kabi juda ko'plab mamlakatlarda o'z tarixi va madaniy merosni tiklash uchun bo'lgan harakatlar ortib bormoqda. Albatta, madaniy meros orasida milliy raqslar alohida o'rin kasb etadi. Shuning uchun xoreograf pedagoglar avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan raqslarni chuqur o'rganib, yangidan yangi darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratmoqdalar. Bizning pedagoglarimiz ham ana shunday darsliklardan foydalangan holda bo'lajak san'atkorlarimizga saboq bermoqdalar.

Lekin tarixga nazar tashlasak, nafaqat bizda, balki boshqa mamlakatlarda ham madaniy merosni yo'q qilish uchun juda ko'plab urinishlar bo'lgan. Misol uchun "yapon istilosi davrida"^(2,3) koreyaning raqs akademiyalari yopib qo'yilgan¹, natijada ko'plab koreya milliy raqslari unitila boshlagan yoki o'zgartirilib yuborilgan⁽⁴⁾. Lekin koreya milliy raqs maktablarining asoschilaridan biri bo'lgan Chxve Sin Xi milliy raqslarni qayta tiklab, hozirgi zamonaviy raqs bilan uyg'unlashtirgan holda yanada jozibali raqs yaratdi. Bugungi kunga kelib Koreyaning ko'pchilik universitetlarida milliy raqs fani akademik fan sifatida olib boriladi. Bu tajriba boshqa mamlakatlarga

-
1. ¹ Jin Seon-hui (*Jinseonhui penopmep*). *Mavzu sayohat-Lichun' o'yini* (Korean), Hallailbo/Daum yangiliklari (2 fevral 2008). «Chedju Lichun' degan yaxshi o'yin bor. Aytishlaricha bu o'yin milliy festivalni yo'q qilish uchun siyosatchilar tomonidan o'ylab topilgan. 1999 yilda Chedjuda yangi qazilma ishlar boshlanadi, ular hozir ham davom etmoqda.
 2. Clark, Donald N. (2000) Koreyaning madaniyati va urf-odatlarini, Greenwood Publishing Group, 49-bet
 3. Ferrante-Wallace, Joan (2005), *Ie Soc Global Perspect*(Umumiy perspektiva) Thomson Wadsworth, 96-bet
 4. Ular bilan raqs. Yaponiya sudi qarshi chiqqan vaqt (Koreya), *Gyeonghyang Ilbo* (31 may 2007y).

tezda tarqaldi. Eng yaxshi milliy raqs ijrochilari “Milliy jonli xazina” deb tan olindi va ularga raqs darslarini olib borish va yosh avlodga o‘z bilim va tajribalarini yetkazib berish topshirildi”.

I BOB. Nazariy qism.

1-mavzu. Raqs san'ati.

1.1. O'zbek raqs san'ati tarixidan

Turmushimizning barcha jabhalarida bo'lgani singari milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish borasida ham bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1997 yil 9 yanvardagi "O'zbekistonda milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni bu sohadagi ishlarning yanada rivojlanishiga zamin yaratdi.

Farmonda "milliy raqs va xoreografiyani yanada rivojlantirish, raqs san'atining tarixiy an'alarini va usullarini tiklash, avaylab asrash hamda boyitish, millatimizning o'ziga xos sharqona fazilatlari, boy ma'naviyatiga monand raqslarni targ'ib etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, milliy raqs yo'nalishlari bo'yicha uzoqmuddatli, maqsadli dasturlar tayyorlash, raqs san'atini xalqimizning yuksak ma'naviyati va nozik didiga zid bo'lgan, yuzaki, noo'rin taqlidga asoslangan xatti-harakat va liboslar xurujidan saqlash, maxsus ta'lim tizimini takomillashtirish, malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'laroq qondirish hamda bu sohada tashkilotlarning moddiy negizini mustahkamlash" maqsadida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar ko'rsatib o'tilgan.

O'zbek milliy ashula va raqs san'atini o'rganish va xalqqa yetkazish maqsadida ilk bor 1930 yilda Samarqand shahrida Muxiddin Qori Yoqubov boshchiligida studiya tashkil etiladi. Ushbu studiyada mashhur san'atkorlar va soha mutaxassislari Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Gavhar Rahimova, Komil Yashin, Mutavakkil Burxonov, Aleksandr Beklar san'at sirlaridan talabalarga saboq berishgan. Studiyaning dastlabki talabalari safida Yahyoxon Mamatxonov, Suydi Sotvoldiyev, Morduxay Davidov, Tamara Ibrohimova, Isaxor Oqilov, Qumri Qodirova, Vallomatzoda, Sarvarxon, Jo'ra Alimov va Roziya Karimovalar ulardan milliy ashulachilik va raqs san'atidan ilk saboqlarni olishgan. O'sha paytlar raqs harakatlari nomlarining faqat to'rttasigina ma'lum bo'lgan: "charx", "shox", "qiyg'ir bo'yin", "gulo'yin". Vaholanki, har uslubda

yuzlab harakatlar mavjuddir. Qo‘llanma yoki darsliklar bo‘lmagan. O‘qituvchilar esa “oyog‘ingni bunday qil, qo‘lingni munday tut” tarzida dars o‘tishgan. Buning oqibatida raqs elementlari bora-bora unitilib ketardi.

Hozirgi kunda barcha maktabgacha ta‘lim muassasalarida, maktablarda, musiqa maktablarida “Raqs to‘garaklari” faol ish yuritayotibdi. O‘zbek raqs san‘atining noyob durdonalari meros bo‘lib avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. O‘zbek raqs san‘ati tomoshabin qalbiga zavq-shavq, quvonch va shodlik ulashadi.

O‘zbek raqs san‘ati maktabi boy manbaa va raqs darg‘alariga ega. O‘zbek raqs san‘ati asoschilari Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarram Turg‘unboyeva, Halima Komilova, Gulnora Mavoyeva, Klara Yusupova, Qunduz Mirkarimova, Gavhar Rahimova, Roziya Karimovalar o‘zlarining benazir san‘at asarlari, ijodiy manbaalari bilan o‘zbek raqs san‘atini boyitibgina qolmay, bu soha rivoji, uning davomchilari uchun ulkan maktab vazifasini ham o‘tab beradi. Ulardan kelajak avlodga raqs san‘ati meros bo‘lib qoladi.

O‘zbek merosiy raqslarida uchta maktab aniq ajralib turadi. Bular Farg‘onacha, Xorazmcha va Buxoro raqs maktablaridir.

Qadimda Farg‘ona vodiysi va Toshkent raqslari ijrosi nafis, mayin va bosiqligi bilan ajralib turgan bo‘lsa, Buxoro va Xorazm raqslari quvnoq, xazilnamo, serharakatliligi bilan mashhur edi.

O‘zbekiston xalq artisti, san‘at ustasi Tamaraxonim o‘zbek ayollar raqsiga erkin harakatlarni kiritdi. Uning usullari raqslarga joziba baxsh etdi.

Mukarram Turg‘unboyeva ustozlarining san‘at yo‘lidagi izlanishlarini o‘rgandi va davom ettirdi. Ulardan ilhomlanib yangi-yangi raqs usullarini yaratdi. Natijada, betakror, nafis raqs asarlari vujudga keldi.

Mukarram Turg‘unboyevaning ilk ustozlari – Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Ota Xo‘ja va ularning shogirdi Tamaraxonim an‘anaviy raqs san‘atida, shuningdek, zamonaviy yakka va ommaviy raqslarda o‘z maktablarini yaratishgan.

Hozirgi kunda buyuk ustozlardan qolgan merosni o‘rganish va keng targ‘ib qilish maqsadida xoreografiya oliy o‘quv yurtlarida, xoreografiya kolleji, san‘at

kollejlarda, musiqa maktablarida “O‘zbek raqs san’ati” fan sifatida kiritilib, o‘quvchi va talabalarga maxsus o‘quv qo‘llanmalari asosida dars o‘tiladi.

Bu borada “Meros” fani alohida o‘rin tutadi. “Meros” fani o‘z oldiga o‘zbek xalqi hayotining haqiqiy manzarisini ifodalovchi raqlarni, xususan, O‘zbekiston xalq artisti, milliy raqs san’atining yirik namoyandasi Mukarram Turg‘unboyevaning raqs namunalarini o‘rganish bilan birga, ularni avaylab-asrashni ham maqsad qilib qo‘ygan.

Bu fan talabalarda raqs va xoreografiya san’atiga muhabbat uyg‘otish bilan bir qatorda O‘zbekistonda qo‘lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlardan g‘ururlanish hissini ham uyg‘otadi.

O‘zbek raqs namunalarini o‘rgatishda xoreograf-pedagoglar O‘zbekiston xalq artisti, baletmeyster, pedagog, san’atshunos professor, o‘zbek xalqraqslari nazariyasi bilimdoni va asoschisi Roziya Karimovaning “Farg‘ona raqsi” (1973y.), Xorazm raqsi” (1975y.), “Buxoro raqsi” (1977y.) o‘quv qo‘llanmalari, hamda “Bahor ansambli raqlari”, “Doyra zarblariga mashg‘ulot”, “O‘zbekiston raqlari”, “Robiya Otajonova raqlari” kitoblaridan keng foydalanadilar. Bu qo‘llanma va kitoblarda o‘zbek raqsining asosiy qo‘l va oyoq holatlari, “Doyra darsi” hamda barcha o‘zbek raqs harakatlari uslubiy jihatdan to‘g‘ri va aniq bajarilishi batafsil ko‘rsatilgan. Bundan tashqari qo‘yilgan raqsning har bir xarakati musiqaga hamoxang ravishda yozilgan hamda qaysi raqsga qanday liboslar tanlash, qanday bezaklardan foydalanish va boshqalar to‘liq ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu asarlarning yozilish tarixi haqida Roziya Karimova shunday degandi: “Dastlab raqs san’ati bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi yaratish lozimligi haqida marhum ustoz Mukarram Turg‘unboyevaning oldidan o‘tdim, balki siz yozarsiz desam: “Yo‘q-yo‘q, men yozolmayman. Roziya sen gazeta va jurnallarda maqolalaring bilan chiqish qilib turasan, qalaming ancha o‘tkirlashib qolgan. Shu sababli raqs haqida qo‘llanma yaratishdek sermashaqqat, ulug‘ ish sening qo‘lingdan kelishiga ishonaman”, deganlari hech esimdan chiqmaydi. Men o‘sha paytlari san’atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida katta ilmiy xodim lavozimida ishlar edim. Tamaraopa va


I.Oqilovlar kelib institut rahbaridan bizning ijodimiz haqida Roziya Karimova yozsin deb iltimos qilishdi va ushbu mas'ul vazifani mening zimmamga yuklashdi”.

Shu sababdan ustoz-pedagog Roziya Karimova o'zbek xoreografiyasining durdonalari bo'lmish raqslarning avloddan-avlodga to'liq va buyuk darg'alarimiz ilk bor sahnalashtirgan ko'rinishda yetib borishini ta'minlash niyatida juda katta ilmiy ishga qo'l uradi. U raqslardagi har bir holat va harakatlarga nom beradi va raqs o'rganish qoidalarini ishlab chiqadi. Milliy raqsdagi egilish turlarini tasnif qiladi, aylanish va harakat turlarini alohida guruhlariga bo'lib chiqadi. Shundan so'ng o'zbek milliy raqslari bo'yicha qo'llanma yozishga kirishadi. Lekin zamona taqozosi bilan birinchi yozilgan o'quv qo'llanmalari va xoreografiyaga bag'ishlangan kitoblar rus tilida yozilgandi. Respublikamiz mustaqillikka erishib, o'z tilimiz davlat maqomiga ega bo'lgandan so'ng barcha o'quv qo'llanmalari qatori xoreografiyani o'rganish va unga bag'ishlangan darslik va kitoblar ham tarjima qilina boshladi yoki yangi o'quv qo'llanmalari yozildi. O'zbek xoreografiyasi namoyondalarining hayoti va ijodiga bag'ishlangan qator-qator maqola va kitoblar chop qilindi. Milliy raqsimizning saylanmalaridan tashkil topgan o'quv qo'llanmalar nashrdan chiqarildi. Bulardan: “O'zbek raqslari” (R.Karimova, Toshkent, 2003y.), “Merosiy raqs durdonalari” (X.Hamidova, D.Sayfullayeva, S.Zokirova, maxsus muharrir – R.Karimova, Toshkent, 2003y.), “O'zbek ayollar yakka raqslari” (R.Karimova, D.Sayfullayeva, S.Zokirova, Toshkent, 2007y.) o'quv qo'llanmalari kelajak avlodimizga o'zbek milliy raqslarimizni buyuk san'atkorlarimiz Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarram Turg'unboyeva, Isaxor Oqilov, Gavhar Rahimova, Qunduz Mirkarimova, Roziya Karimovalar tomonidan ilk sahnalashtirilgan ko'rinishda yetib borishiga xizmat qiladi.

Agar o'sha paytlarda xalqimiz sevib ardog'lagan san'atkorlarimiz o'zlari yaratgan raqslarni, sahna ko'rinishlarini kelajak avlodga yetib borishi uchun kitoblar va o'quv qo'llanmalarini yaratmaganlarida, hozir o'zbek raqsdek katta maktabning davomiyligi yo'qolib ketardi. Mustaqilligimiz sharofati bilan milliy raqs san'atining rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratilmoqda. San'atsevar xalqimiz raqs nimaligini yaxshi tushinadi va qadrlaydi. Ayni damda yurtimizda ashula va raqs ansambllari va

ularning qatnashchilari yuksak mukofotlar bilan taqdirlanmoqdalar. Hozirgi kunda ommaviy bayramlar va tadbirlarimizni milliy urf-odatlarimiz, udumlarimiz, marosimlarimizni tasvirlovchi raqslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

1.2. Saxna sxemasi va shartli belgilar.



Орқаси  юзи

Асосий ҳолат

Орқаси  юзи


Бошқа ҳолатга ўтиш.



Ҳаракатнинг йўналиши.



Тўлқинсимон ҳаракат.



Айланган ҳолда юриш.



*Доира шакли бўйича соат мили
йўналишида ҳаракат.*



*Доира шакли бўйича соат мили
йўналишига қарши ҳаракат.*



Жойида ўнгга айланиш.



Жойида чапга айланиш.

2.Mavzu. O‘zbek raqsini o‘rgatish metodikasi

2.1. FARG‘ONA RAQS MAKTABI

ASOSIY HARAKATLAR

BOSH HOLATI

Farg‘ona raqslarida iyak ortiqcha ko‘tarilmaydi. Bosh va gavda qo‘l harakatlari bilan uyg‘unlashib ketadi.

GAVDA HOLATI

Farg‘ona uslubidagi raqsda umurtqa suyaklari tik bo‘lmasligi hamda bo‘shashmasligi kerak. Rasmiy turishda bo‘lib, bir nuqtaga yig‘ilgan holatda bo‘lsin. Gavdaning beldan boshlab yuqori qismi harakatchan bo‘lib, qo‘l harakatlarini kuzatadi.

QO‘L HOLATI

Qo‘l holatlarida holatlardan-holatlarga o‘tishda yelkalar rasmiy holatda bo‘lishi kerak.

Rasmiyholat Qo‘llar yonida bo‘lib, qo‘ldastalar rasmiy holatda (1-rasm).

1-holat Rasmiy holatda tirsaklar sal bukilgan, barmoqlar uchi pastga qaragan, yelka balandligiga mayin ko‘tariladi. So‘ng kaftlar yonga qarab, barmoq uchlari yuqoriga qaratilib, balandligi yelka barobar bo‘ladi. Bosh barmoq bilan o‘rta barmoq bir-birlariga egilganroq bo‘lib, qolgan barmoqlar erkin holatda (2-rasm).

2-holat Qo‘llar birinchi holatdan barmoqlar pastga qaratilib, bosh ustiga mayin ko‘tariladi. So‘ng kaftlar yuqoriga qaratiladi, barmoqlar va tirsaklar birinchi holatdagicha qoladi. Boshni ko‘tarmagan holatda ko‘z qo‘llarni ko‘rishi kerak (3-rasm).

3-holat Chap qo‘l ikkinchi holatda bo‘lib, o‘ng qo‘l birinchi holatga tushadi (4-rasm). Qo‘ldastalar o‘zgarmaydi.

4-holat Chap qo‘l ikkinchi holatda qoladi. O‘ng qo‘l chap ko‘krakdan

sal pastga keladi. Qoʻldastalar oʻzgarmaydi (5-rasm).

5-holat Oʻng qoʻl oʻsha holatda qolib, chap qoʻl birinchi holatga tushadi (6-rasm).

6-holat Ikkala qoʻl oldinga, barmoqlar pastga qaragan holda qoladi. Soʻng kaftlar oldinga qaratilib, barmoq uchlari yuqoriga qaragan boʻlishi kerak. Qoʻllar oraligʻi yelka kengligida boʻlib, barmoqlar uchi yelka balandligida boʻlsin (7-rasm).

7-holat Oltinchi holatdan kafti oʻziga qaratilib, barmoqlar uchlari bir-birlariga roʻpara boʻlib, yonbelga qoʻyiladi. Bosh barmoq orqada, qolgan barmoqlar oldinda boʻladi, tirsaklar yonga qaragan (8-rasm). Qoʻl holatlarida erkaklar ayollar holatidan farqli tarzda tirsaklar kamroq bukilib, barmoqlar toʻgʻri boʻladi.

OYOQ HOLATLARI

Oyoq holatlari yettita. (Rasmiy turishdan tashqari).

Oyoq tovonlari bir-biriga yaqin boʻlib, uchlari sal yonga ochiladi (10-rasm).

1-holat Rasmiy holatdan tovonlar sal koʻtarilib, ikki yonga ochiladi. Tovonlar orasi yarimtovoncha (polstupni). Gavda ogʻirligi ikkala oyoqda (11-rasm).

2-holat Chap oyoq birinchi holatda qoladi, oʻng oyoq tovonni koʻtarilib, chap oyoq tomoniga roʻparakelib, toʻliq bosiladi. Oʻng oyoq uchi oʻngga buriladi (12-rasm).

3-holat Chap oyoq birinchi holatda qolib, oʻng oyoq uchi bilan oʻng yonga jiladi, tovon orqaga burilgan boʻlib, oyoqlar orasi 10-12 sm. boʻlishi kerak (13-rasm).

4-holat Chap oyoq joyida qolib, oʻng oyoqning uchi oldinga sirpantirib olib boriladi (14-rasm). Gavda ogʻirligi chap oyoqda.

5-holat Chap oyoq joyida qoladi. Oʻng oyoqning tovonni tushib, gavda ogʻirligi ikkala oyoqda boʻladi (15-rasm).

6-holat Chap oyoq tovonni koʻtariladi (16-rasm).

7-holat Chap oyoq tovonni tushib, o'ng oyoq tovoniga bosib, uchi ko'tariladi (17-rasm). So'ng o'ng oyoq sirpanib, rasmiy holatga qo'yiladi.

SALOMLARNING TURLARI

O'zbek raqslaridagi salomlar raqs uslubiga va uning mazmuniga, mantiqiga bog'liqdir. Ikki qo'l bilan yoki bir qo'l bilan salom qilinadi.

O'ng qo'l rasmiy holatdan birinchi, oltinchi holat orqali mayin, ko'krakka kafti qo'yilib, barmoq uchlari chapga qaragan bo'ladi. Bosh hamda gavda biroz ldinga egiladi. Ko'z pastga qaraydi. Salomda bosh va gavda qo'l harakati bilan bir vaqtda egiladi. Salomlar muloyim bo'lib, iyak tanaga tegmasin. Qo'l ko'krakka qo'yilgandan keyin gavda va bosh egilishi ham mumkin. Salom ikkala qo'l bilan ham bo'lishi mumkin. Bu qoida bir qo'ldagiday o'ng qo'l ko'krakka qo'yilib, chap kafti o'ng qo'l yuziga qo'yiladi. Tizzalar va oyoqlar rasmiy holatda bo'ladi (9-rasm).

MUQOMLAR

(Qo'l harakatlarini yanaham bezatuvchi harakatlar)

1. Qiyg'ir bo'yin.

Qiyg'ir bo'yin mayda va muloyim bo'ladi. Yelkalar rasmiy holatda bo'lib, bosh to'g'riga qaragan, biroz bo'yinga o'tkaziladi. Boshning umurtqa suyagi yon-yonga jiladi.

2. Iyak harakati.

Yelkalar rasmiy holatda bo'lib, iyak keskin va kichik urg'uli harakat bilan to'g'riga, so'ng yana rasmiy holatga qaytadi, yonga ham ijroe tish mumkin.

3. Tebranish.

Gavdaning beldan yuqori qismi yon-yonga tebranadi. Bosh gavda o'tgan tomondan aksi tomonga buriladi. Bu harakatni tik turganda yoki o'tirganda ijro etish mumkin. Bosh gavda o'tgan tomonda ham bo'lishi mumkin.

4. Sildirma.

Bu harakat iyak harakatiga o'xshash. Gavdaning beldan yuqori tomoni sal orqaga tashlanib, so'ng keskin va kichik urg'u harakat bilan yana rasmiy holatga qaytadi (seskanganga o'xshash).

5. Yelka qoqish.

Qo'llar birinchi yoki yettinchi holatda. Chap yelka orqaga jiladi, o'ng yelka oldinga jiladi, so'ng keskin harakat bilan chap yelka oldinga, o'ng yelka orqaga jiladi, keskin harakat bilan yelkalar navbat bilan bir oldinga, bir orqaga o'tadilar. Yana bir xili mayda titratma. Bunda yelkalar yuqoriga ko'tarilmaydi. Yoki ikkala yelka navbati bilan ko'tarilib tushadi. Yelka harakatlari qizlar ijrosida muloyim, nozik bo'lishi kerak. Yigitlar ijrosida yirik, keskin bo'ladi.

6. Tinib qolish.

Biron-bir harakatda to'xtab qolish, biroz qimirlamay tinib turish kerak.

7. Qosh uchirish.

Qosh uchirish kam ijro etiladi. Ko'proq hajviy raqslarda yigitlar ijro etadilar.

8. Qo'ldasta harakatlari.

Qarsaklar yettinchi holatdan tashqari barcha holatlarda ijro etiladi.

Oltinchi holatda ikkala qo'l kaftlari bir-biriga urilib, barmoq uchlari yuqoriga qaragan, qarsaklardan so'ng qo'ldastalar o'zidan tashqariga aylanishi yoki biroz yonga ochilib, barmoqlar ozroq egilishi mumkin. O'ng yoki chap quloq tagida chalinib, bosh yoni bilan qo'lga egilib, qarsakni eshitayotganday holatda bo'lib, yuzi qo'ldan teskariga burilgan bo'ladi. Qo'llar o'ng tomondagi quloq tagida qarsak chalsa, chap qo'l tirsagi chap yelka balandligida bo'ladi. Ikkinchi, kaftlar ko'ndalang qarsak urib, barmoqlar kaftlar teskari tomonini ushlaydi. Uchinchi, qarsak oltinchi holatda bir kaft ikkinchi kaftdan sirpanib uriladi. O'ng qo'l sirpansa, pastroqqa tushadi yoki o'ngroqqa ochiladi; chap qo'l biroz yuqoriga ko'tariladi. To'rtinchi, qo'llar oltinchi holat yuqoriligida chap qo'l kafti pastga qaragan, barmoq uchi o'ngga qaragan, o'ng qo'l kafti chap kaft teskarisiga qo'yilgan, barmoq uchlari chap tomonga qaratilgan. Beshinchi, qo'llar ikkinchi holatda o'ng qo'l kafti chap kaftga yopilgan. Ikkala qo'l barmoqlari yon-yonga qaragan bo'lib, o'ng qo'l kafti chap qo'l


kaftiga uradi. Soʻng oʻng kaft sal koʻtarilib oldinga burilib, yana boshlangʻich holatda tushadi.

Qoʻldasta aylanishi


Qoʻldasta aylanishi oʻzbek raqslarida, ayniqsa, Fargʻona uslublaridagi raqsda katta ahamiyatga ega. Bu uslub harakatlardan harakatlarga oʻtishda va harakatlarni yakunlaganda ijro etiladi. Qizlar harakatlarida muloyim, yigitlarda barmoqlar baʼzi harakatlarda yarim musht ham boʻlishi mumkin.

Barmoq qarsillatish. Bosh barmoq uchinchi yoki toʻrtinchi barmoq bosh boʻgʻinidan sirpanadi.


ҚҰЛ ҲОЛАТЛАРИ



1-расм. Расмий ҳолат



2-расм. Иккинчи ҳолат




3-расм. Иккинчи ҳолат




4-расм. Учинчи ҳолат




5-расм. Тўртинчи ҳолат



6-расм. Бешинчи ҳолат



7-расм. Олтинчи ҳолат



8-расм. Еттинчи ҳолат



9-расм. Саломлар

ОЁҚ ҲОЛАТЛАРИ



10-расм.
Расмий ҳолат



11-расм.
Биринчи ҳолат



12-расм.
Иккинчи ҳолат



13-расм.
Учинчи ҳолат



14-расм.
Тўртинчи ҳолат



15-расм.
Бешинчи ҳолат



16-расм.
Олтинчи ҳолат



17-расм.
Еттинчи ҳолат

2.2. BUXORO RAQS MAKTABI

ASOSIY HARAKATLAR

BOSH HOLATI

- 1-holat** Bosh to‘g‘ri turish.
- 2-holat** Yonga burilish.
- 3-holat** Yon-yonga yoni bilan egilish.
- 4-holat** Oldinga, orqaga sal egilish.

GAVDA HOLATI

- 1-holat** Bir nuqtaga yig‘ishtirilgan, yelkalar rasmiy holatda.
- 2-holat** Gavdaning umurtqa suyaklari tortilgan, yelkalar rasmiy holatda.
- 3-holat** Gavdaning umurtqa suyaklari tortilib, sal belga o‘tkazilgan.
- Yuqoridagi gavda turishlarda tizzalar holati:
- a) rasmiy holatda;
 - b) sal tortilgan;
 - v) tortilgan;
 - g) sal egilgan;
 - d) sal egilgan hamda biroz yonga burilgan.

QO‘L HOLATI

Buxoro raqslarida qo‘l holatlari rasmiy holatdan tashqari yettita, yigitlar va qizlar holatlarining farqi yozishda tushuntiriladi.

Rasmiyholat Qo‘llar yonida bo‘lib, qo‘ldastalar rasmiy holatda (1-rasm).

1-holat Rasmiy holatdan tirsaklar sal bukilganroq bo‘lib, barmoqlar uchi pastga qaragan holda yelka balandligiga mayin ko‘tariladi. So‘ng kaftlar yonga qaratilib, barmoq uchlari yuqoriga qaratiladi. Barmoq uchlari yelka balandligida bo‘lib, bosh barmoq o‘rta barmoqqa sal egilgan yoki barmoqlar to‘g‘ri bo‘lishi ham mumkin (2-rasm).

2-holat Birinchi holatdan tirsaklar sal bukilganroq, barmoqlari pastga qaratilib bosh ustiga mayin ko‘tariladi, so‘ng kaftlar yuqoriga

qaratiladi, qo'llarni bosh ko'tarilmay ko'z ko'rishi kerak (3-rasm).

3-holat Ikkinchi holatdan o'ng qo'l kafti boshning orqa o'ng tomoniga qo'yiladi. Chap qo'l birinchi holatga tushadi (4-rasm).

4-holat Uchinchi holatdan chap qo'l kafti yuqoriga qaratilib, ko'krakning o'ng tomonidan sal pastroqqa keng harakat bilan keladi (5-rasm).

5-holat To'rtinchi holatdan o'ng qo'l kafti yuqoriga qarab birinchi holatga tushadi, chap qo'l o'zgarmaydi (6-rasm).

6-holat Beshinchi holatdan ikkala qo'l oldinga keladi, tirsaklar bukilganroq, qo'llar oralig'i yelka kengligida, barmoq uchlari yuqoriga qaragan ham yelka balandligida, kaftlar esa oldinga qaragan yoki to'g'ri bo'lishi ham mumkin (7-rasm).

7-holat Oltinchi holatdan kaftlar o'ziga qaratilib yon belga qo'yiladi, barmoqlar oldinda, bosh barmoq orqada, tirsaklar yonga qaragan (8-rasm).

Qo'ldasta holatlari (qo'ldasta holatlarining bayoni berilmaydi, rasmga qarab o'rganish tavsiya qilinadi).

1-holat 9-rasm.

2-holat 10-rasm.

3-holat 11-rasm.

4-holat 12-rasm.

5-holat 13-rasm.

6-holat 14-rasm.

7-holat 15-rasm.

8-holat Kaft terslari bir-birlariga yaqin bo'lib, jimjiloq barmoqlari chalmashgan (15-rasmga qo'shimcha).

OYOQ HOLATLARI

Oyoq holatlari rasmiy holatdan tashqari yettita.

Rasmiy holatda oyoq tovonlari bir-biriga yaqin, uchlari yonga ochilganroq bo'ladi (16-rasm).

1-holat Rasmiy holatdan tovonlar sal ko'tarilib, yonga ochiladi. Tovonlar orasi yarim tovoncha (polstupni), so'ng tushadi (17-rasm).

2-holat Chap oyoq tovonni ko'tarilib, o'ng oyoq o'rtalig'iga ro'baro'burilib, so'ng tovon tushadi. Gavda og'irligi ikkala oyoqda bo'ladi (18-rasm).

3-holat Chap oyoq tovonni ko'tarilib ham orqaga buriladi. Gavda og'irligi o'ng oyoqda (19-rasm).

4-holat Chap oyoq uchida oldinga sal sirpantirib keladi. Gavda og'irligi o'ng oyoqda (20-rasm).

5-holat Chap oyoq tovonni tushib, gavda og'irligi ikkala oyoqda bo'ladi (21-rasm).

6-holat O'ng oyoq tovonni ko'tariladi (22-rasm).

7-holat O'ng oyoq tovonni tushadi, chap oyoq tovonni bosilib, uchi ko'tariladi. Gavda og'irligi o'ng oyoqda bo'ladi, so'ng chap oyoq to'liq bosilib, sirpanib, rasmiy holatga keladi (23-rasm).

SALOMLARNING TURLARI

Buxorocha keng ko'ylakdagi salomlar.

1. Qo'llar birinchi holatdan kafti o'ziga qaratilib, ko'ksiga ro'baro' keladi, so'ng chap qo'l o'ng yeng uchiga, kafti o'ziga qaraganicha qo'yiladi. So'ng chap qo'l yengni biroz o'ziga tortadi. O'ng qo'l oldinroq cho'ziladi, bosh va gavda biroz oldinga egiladi (24, 25-rasmlar).

2. Qo'llar birinchi holatdan chap kafti ko'ksiga qo'yiladi, o'ng qo'l kafti chap qo'l tersiga qo'yiladi. Gavda va bosh biroz oldinga egiladi (26-rasm).

3. Qo'llar ikkinchi holatday turadi, lekin oldinga ko'proq egiladi (27-rasm).

4. Qo'llar birinchi holatdan kaftlar yuqoriga qarab keladi. So'ng o'ng qo'l ko'ksidan sal yuqoriga, chap qo'l sal pastroqqa qo'yiladi (28-rasm).

Rasmiy kiyimda yigitlar va qizlar salomi

1. Chap qo‘l rasmiy holatda. O‘ng qo‘l birinchi holat orqali kafti o‘ziga qaratilib, ko‘ksiga qo‘yiladi, bosh va gavda biroz oldinga egiladi (29-rasm).

2. Yigit salomida esa ikkala qo‘l birinchi holatdan o‘ng qo‘l kafti ko‘ksiga qo‘yiladi, chap qo‘l belning oldini quchadi, bosh va gavda biroz oldinga egiladi (30-rasm).

Bosh harakatlari

Buxoro raqslarida to‘rt xil bosh harakatlari ijro etiladi.

1. Qiyg‘ir bo‘yin. Bu harakatni ijro etishda yelkalar harakatsiz bo‘lishi kerak. Bosh to‘g‘ri turgan bo‘lib, biroz bo‘yinga o‘tkazilgan. Bo‘yin yon-yonga jilganda qizlar harakatida muloyim va mayda ijro etiladi. Qiyg‘ir bo‘yin harakatlari yigitlar ijrosida yirik bo‘lib, ko‘proq hajviy raqslarda qo‘llaniladi.

2. Bosh burilishi. Bosh salgina yon-yonga mayda buriladi.

3. Bosh to‘g‘ri turishda yon-yonga egiladi.

4. Yelka qimirlamaydi. Bosh yonga yoki oldinga kichik urg‘u bilan, salgina oldinga jiladi, so‘ng muloyim qaytadi (iyak harakati). Iyak harakati qiyg‘ir bo‘yin bilan omuxta bo‘lib, bir qiyg‘ir bo‘yin, bir iyak harakatini ijro etish mumkin.

Yelka qoqish harakatlari

Bu harakatni o‘rganishda qo‘llar birinchi yoki yettinchi holatda bo‘lishi mumkin.

1. O‘ng yelka kichik urg‘u bilan salgina oldinga jiladi. Bir vaqtda chap yelka sal orqaga jiladi, so‘ng aksincha, o‘ng yelka rasmiy holatga qaytadi. Chap yelka urg‘u bilan oldinga jiladi. Qizlarda mayda, yigitlarda yirik ijro etiladi.

2. Yelkalar navbati bilan va urg‘u bilan oldinga rasmiy holatga yoki urg‘u bilan boshlang‘ich holatga qaytadi.

3. Yelkalar mayda titraydi.

РАҚСЛАРДАГИ АСОСИЙ ҲОЛАТЛАР



1-расм. Дастлабки ҳолат



2-расм. 1-ҳолат



3-расм. 2-ҳолат



4-расм. 3-ҳолат



5-расм. 4-ҳолат



6-расм. 5-ҳолат



7-расм. 6-ҳолат



8-расм. 7-ҳолат



9-расм. 1-ҳолат



10-расм. 2-ҳолат



11-расм. 3-ҳолат



12-расм. 4-ҳолат



13-расм. 5-ҳолат



14-расм. 6-ҳолат



15-расм. 7-ҳолат



расм. Дастлабки ҳолат



17-расм. 1-ҳолат



18-расм. 2-ҳолат



19-расм. 3-ҳолат



20-расм. 4-ҳолат



21-расм. 5-ҳолат



22-расм. 6-ҳолат



23-расм. 7-ҳолат



24. 25-расмлар. 1-ҳаракат



Аёл саломи. 1-ҳолат



26-расм. 2-ҳолат



25-расмлар. 1-ҳаракат.
Аёл саломи. 4-ҳолат



29-расмлар. 2-ҳаракат.
Аёл ва эркак саломи.
1-ҳолат



30-расмлар. 2-ҳаракат.
Эркак ва аёл саломи.
2-ҳолат

2.3. XORAZM RAQS MAKTABI

ASOSIY HARAKATLAR

GAVDA HOLATI

Umurtqa suyaklari tortilganroq bo'lib, gavdaning yuqori qismi belga o'tkaziladi. Gavdaning beldan yuqori qismi orqaga tashlanganroq bo'ladi.

Umurtqa suyaklari tortilgan va tik holatda bo'lishi mumkin. Har ikkala holda kurak suyaklari bir-birlariga biroz yaqinlashadi, bu holatlarda oyoqlarning turishi:

- rasmiy holatda;
- tizzalar tortilgan;
- tizzalar egilganroq;
- tizzalar egilganroq va yon-yonga qaratilganroq.

BOSH HOLATI

- | | |
|----------------|----------------------------------|
| 1-holat | To'g'ri, rasmiy holatda. |
| 2-holat | Biroz oldinga egilganroq. |
| 3-holat | Orqaga tashlanganroq. |
| 4-holat | Yonga burilib orqaga egilganroq. |
| 5-holat | Qo'l harakatlarini kuzatuvchi. |

QO'L HOLATI

Rasmiyholat Yigit va qizlarga qo'llar yonda (1, 2-rasmdagi rasmiy holat).

Asosiy rasmiy holatdan tashqari yetti xil.

1-holat Qizlarga rasmiy holatda barmoq uchlari pastga qaratilgan, tirsaklar pastga qaratilib biroz bukilganroq, yigitlar qo'llari cho'zilgan, tirsaklari to'g'ri, barmoqlari yuqoriga, kaftlari yonga qaratilgan (3, 4-rasmlar).

2-holat Qizlarga birinchi holatda tirsaklari pastga qaratilgan va biroz bukilganroq, barmoq uchlari pastga qaratiladi. Bosh tepaga ko'tarilmay ko'z bilan ko'rish mumkin. Barmoq uchlari oldinga

qaratiladi, yigitlarga kaftlari yuqoriga qaratiladi, barmoqlari tekis holda bo‘ladi (5, 6-rasmdagi ikkinchi holat).

3-holat Qizlarda ikkinchi holatdan chap qo‘l yonga ochilib, biroz yuqoriroqqa ko‘tariladi, barmoq uchlari yon-yonga qaratilgan, bosh orqaroqqa tashlanganroq, yuz chap qo‘lga qaratiladi, yigitlarda dastalar o‘zgarmaydi (7, 8-rasmdagi uchinchi holat).

4-holat Qizlarga - o‘ng qo‘l oldinga burilib, kafti va barmoq uchlari pastga qaratiladi, chap qo‘l ko‘ksiga ro‘para qiya yo‘l bilan, kafti va barmoq uchlari pastga qaratiladi. Yigitning o‘ng qo‘li kafti yuqoridaligicha qolib chap qo‘l qiya yo‘l bilan kafti o‘ng tomonga qaratilib, barmoq uchlari yuqorida bo‘ladi (9, 10-rasmdagi to‘rtinchi holat).

5-holat Qizlarga - o‘ng qo‘li birinchi holatdan yuqoriroqqa tushadi, kafti va barmoq uchlari pastga qaratiladi, chap qo‘l to‘rtinchi holatdaligicha qoladi, yigitning ham chap qo‘li to‘rtinchi holatda qolib o‘ng qo‘li birinchi holatdan yuqoriroqqa tushadi, kafti o‘ngga, barmoqlar yuqoriga qaratiladi (11, 12-rasmdagi beshinchi holat).

6-holat Qizlarga – qo‘llari ko‘ksiga ro‘para yelka kengligida, kaftlari va barmoq uchlari pastga qaratiladi, yigitlarga kaftlar ko‘ksiga ro‘para oldinga qaratilib, barmoq uchlari yuqorida bo‘ladi (13, 14-rasmdagi oltinchi holat).

7-holat Qo‘llar oltinchi holatdan yon belga, biroz orqaroqqa kafti tersi bilan qo‘yiladi, barmoq uchlari pastga qaratiladi, qiz va yigitlarga bu holat bir xilda (15, 16-rasmdagi yettinchi holat).

QO‘LDASTA HOLATLARI

Xorazm raqsida qo‘ldasta xillari oltita.

1-holat Dastani tersi orqaga egilganroq, bosh barmoq yonroqqa ayrilgan. Qolgan barmoqlar juft va to‘g‘ri turadi. Qizlar va

yigitlarga bu holat bir xilda.

2-holat Barmoqlar pastga qaratilgan. Qizlar bosh barmog‘i katta tomondaroq, yigitlar barmoqlari pastga qaratilgan, to‘g‘ri va qattiq turadi.

3-holat Barmoqlar va katta to‘g‘ri, har tomonga burilishi mumkin. Qiz va yigitlarda bir xilda.

4-holat Bosh va ko‘rsatkich barmoqlar to‘g‘ri va qattiq, qolgan barmoqlar sal egilgan holicha. Bunday xil dasta mayda titratma harakatida ijro etiladi (17, 18, 19-rasmlar).

5-holat Bosh barmoq va ko‘rsatkich barmoqlar to‘g‘ri ham qattiq. O‘rta barmoq va qolgan barmoqlar egilganroq. Qiz va yigitlar uchun bu hol bir xilda.

6-holat Kaftlar burilganroq. Bosh barmoq yonroqda, ko‘rsatkich va o‘rta barmoq to‘g‘ri ham qattiq (20, 21-rasmlar). Qiz va yigitlar uchun bir xilda.

Oltinchi holatdan tashqari yigitlarga maxsus surat (22, 23-rasmlar).

Oyoq va qo‘l holatlarini o‘rganishda, raqslar ijod etishda eng zarur qoida, harakat nomlarini bilish zarur.

OYOQ HOLATLARI

Oyoq holatlari rasmiy turishdan tashqari yettita.

Rasmiy holatda poshnalari orasi ochiqroq. Oyoq uchlari biroz yon-yonga qaratiladi.

1-holat Oyoq uchlarida (o‘rtacha) jilib, bir vaqtning o‘zida poshnalar biroz ko‘tarilgan holda yon-yonga ochiladi. Poshna tushadi. Demak to‘liq bosilgan bo‘ladi. Gavda og‘irligi ikkala oyoqda.

2-holat O‘ng oyoq uchida jilib, poshnasi ko‘tarilganroq bo‘lib, chap oyoqning o‘ydim joyiga ro‘para bo‘lib so‘ng poshna tushadi. Gavda og‘irligi chap oyoqda.

3-holat O‘ng oyoq ikkinchi holat joyidan uchida chapga buriladi.

Poshna o'ng tomonga buriladi(24, 25, 26, 27-rasmlar).

4-holat O'ng oyoq uchida to'g'ri oldinga jiladi.

5-holat Oyoqlar to'liq bosilgan. Gavda og'irligi ikkala oyoqda.

6-holat Orqadagi chap oyoq poshnasi ko'tariladi. Tizza egilganroq holda bo'ladi. Gavda og'irligi o'ng oyoqda.

7-holat O'ng oyoq poshnada bosilgan. Oyoq uchi ko'tarilgan holda chap oyoq to'liq bosilgan bo'ladi. Gavda og'irligi chap oyoqda. So'ng to'liq bosilgan holda rasmiy holatga qaytadi. Barcha holatlar chap oyoqdan takrorlanadi. So'ng bir vaqtda qo'l holatlari bilan qo'shib mashg'ulotlar ijro etilishi kerak(28, 29, 30, 31-rasmlar).

Xorazm raqslarida qizlar holatining turlari boshqa uslublarga nisbatan ajralib turadi.

1. Rasmiy holatda.
2. Tizzalar tortilgan.
3. Yigitlarga – maxsus tizzalar yon-yonga burilganroq.
4. Yigitlarga – maxsus tizzalar bukilganroq holda. Qizlar ijrosida tizzalar rasmiy holatda raqs tugallashida tizzalar tortilgan holda ham bo'lishi mumkin.

SALOMLARNING TURLARI

1. O'ng qo'l kafti ko'ksiga qo'yiladi. Barmoq uchlari chapga qaratiladi.
2. Chap qo'l kafti ustiga o'ng qo'l kafti qo'yiladi. Barmoq uchlari yon-yonga qaratiladi. Bu ikkala xildagi salomda ham bosh va gavda biroz oldinga egilganroq bo'ladi (32, 33-rasmlar).
3. Bu salom faqat Xorazm uslubiga xos. Qo'l kaftlari yelka orqasidan barmoqlari bir-birlariga ro'para yoki yelkadan kaftlar sirpanib tizzalarga tushadi. Bosh va gavda qo'l harakatlarini kuzatadi.

РАҚСЛАРДАГИ АСОСИЙ ҲОЛАТЛАР



1, 2-расмлар. Расмий ҳолат.



3, 4-расмлар. Қўл ҳолати. Қизлар ва ингитлар ижросида



5, 6-расмлар. Қўл ҳолати.



7, 8-расмлар. Қўл ҳолати.



9, 10-расмлар. Қўл ҳолати.



11, 12-расмлар. Қўл ҳолати.



13, 14-расмлар. Қўл ҳолати.




15, 16-расмлар. Қўл ҳолати.

17, 18, 19-расмлар. Қўлдаста ҳолатлари



Биринчи хил.



Иккинчи хил.



Учинчи хил.




20, 21-расмлар. Бешинчи хил. Олтинчи хил




22, 23-расмлар.




24, 25, 26, 27-расмлар. Оёқ ҳолатлари



Расмий ҳолат



1- ҳолат




2- ҳолат



3- ҳолат



28, 29-расмлар. 4- ҳолат. 5- ҳолат



30, 31-расмлар. Фарғона, Хоразм ва Бухоро рақ услубларида оёқ ҳолатлари бир хилда.
6- ҳолат. 7- ҳолат



32, 33-расмлар. Саломлар. 1-хили. 2-хили.

II BOB. Amaliy qism. Merosiy raqslarning bayoni.

1- Mavzu. “BAYOT” raqsi

“Bayot” – Toshkent raqsidir, u juda yengil va oson harakatlardan iborat. Bir maromdagi yurishlar vositasida yoshlarga xos shodlik, quvnoqlik, tetiklik tarannum etiladi.

Libos:

To‘rtburchak do‘ppi, cheti qora duxoba bilan tikiladi. Ko‘ylak uzun, xonatlasdan, etagi keng, yengi uzun va keng. Nimcha kalta, qizil duxobadan, sariq zardan naqsh tikilgan, beldan pasti va tag qismi kengaygan, yoqasi tikka. Yoqagacha tugmalanadi. Lozim uzun, jiyakli.

HARAKATLAR

1-qism. Xalq cholg‘u ansambli ijrosida

№1 (6 takt), musiqa №2 (34 takt), musiqa o‘lchami 2/4 (6 takt)

Musiqaning boshlanish qismi

1-14- taktlar Chiqish. Ijrochilar bir-birlarini orqasidan chap tomondagi oxirgi parda orqasidan yon tomonlari bilan yurib, qiya yo‘l bo‘yicha, o‘ng pastki pardaga o‘ng yelka bilan bitta chiziqda chiqadilar. Oyoqlari “oyoq uchida tepma” harakati bilan: har bir harakatning “bir” sanog‘iga o‘ng oyoq uchi bilan o‘ng tomonga qadam tashlaydi. “Ikki” sanog‘iga chap oyoq o‘ng oyoq oldiga rasmiy holatga o‘tadi. Bu vaqtda chap quloq yonida panjalar birlashgan holda qarsak uriladi, so‘ng barmoqlar bukiladi. Bosh o‘ngga qaraydi.

15-18- taktlar Oyoq holati o‘zgarmaydi. Qiya chiziqdan toq sanoqdagi qizlar oldinga, juft sanoqdagi qizlar orqaga katta davraga keladilar. Davra o‘rtasiga qarab qoladilar: toq sanoqdagi qizlar yarim aylanib, o‘ng tomonga, orqa tomonga, davraning chap tomoniga kelishadi. (Qiya chiziqqa nisbatan). Shu paytning o‘zida juft sonli qizlar aylanmasdan orqa bilan egiladi. Gavda va bosh keskin oldinga egiladi. Sekin-asta

tiklanadi. Shu paytda qo'llar 6-holatda bo'ladi, asta-sekin yuz ro'parasida 2-holatga ko'tariladi, barmoqlar qirsillatiladi, chap qo'lning katta barmog'I bilan o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'I jipslashtiriladi. O'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'I chap qo'lning barmog'iga, qolgan barmoqlar suyangan holda birlashtiriladi. O'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'I qarsillatish bajariladi. U kuch bilan sirpantirilib chap ko'rsatkich barmoqqa tushiriladi.

19-22-taktlar "Uchtepma" oyoq harakati bilan joyda o'ngga to'liq aylaniladi. Qo'llar chap quloq oldida, kaftlar birlashgan, barmoqlar yuqoriga qaragan, tirsaklar ko'tarilgan bo'ladi.

23-26-taktlar Oyoq holati o'zgarmaydi. Ijrochilar chap pastki burchakdan o'ng yuqori burchak tomonga davrani buzib qiya yo'nalishga kelishadi. Toq sonli qizlar davradan burilib, qiya yo'nalishning chap bo'lagini hosil qiladilar. Juft sonli qizlar davradan burilib qiya yo'nalishning o'ng bo'lagini (sahnaning o'rtasidan chap pastki burchakkacha) hosil qiladilar, sahna o'rtasidan o'ng yuqori burchakkacha. Hamma ijrochilar chap pastki burchakka chap yelkalari bilan qoladilar. Gavda va bosh avval keskin pastga egilib, so'ng asta-sekin to'g'rilanadi. Qo'llar 6-holatdan 2-holatga sekin ko'tariladi. "B" ko'rinishida barmoqlar qarsillaydi.

27-30-taktlar Harakat joyida bajariladi. Har bir taktning "bir" sanog'iga o'ng oyoqlarning uchlari chapdan oldinga qarab yerga uriladi, "ikki" sanog'iga o'ngdan to'g'riga oyoq uriladi. Qo'llar har "bir" sanoqqa barmoqni qarsillatadi. (2-holat). Bosh va gavda biroz pasga egilib, o'ng oyoqni kuzatadi va oxirgi taktda to'g'rilanadi.

31-34-taktlar O'ngga chap oyoq to'lig'igacha jilgan holda to'liq aylaniladi. Shu payt o'ng oyoq har "bir" sanoqqa uchi bilan chap oyoq orqasiga 6-holatda urib turadi. Qo'l tirsaklari ko'tarilgan, kaftlari birlashgan. Chap yelka oldinda, barmoqlar yuqoriga qaragan bo'ladi. Bosh o'ngga qaraydi.

2-qism. Xalq cholg'u asboblari dastasi jo'r bo'ladi

Musiqa №3. Musiqa o'lchami 2/4. 56 takt

1-2-taktlar Oyoqlar joyida 3-holatda, tizzalar biroz bukilgan. O'ng oyoq har "bir" sanoqqa urib turadi. Qo'llar kaftlarini yonga qaratib, o'zining ro'parasidan pastga tushiradilar, barmoqlar bo'sh holatda. Gavda va bosh oldinga egiladi. Har bir taktning "bir" sanog'iga qo'llar biroz chapga olib boriladi. Shu payt o'ng qo'l tirsakdan bukilib, barmoqlar qarsillatiladi. Chap qo'l to'g'ri turadi: "ikki" sanoqqa biroz o'ngga olib boriladi, chap qo'l tirsakdan bukilib, barmoqlar qarsillatiladi. Qo'llar oxirgi sanoqda chap tomonda 5-holatda qoladi.

3-takt Oyoq 3-holatda, chap oyoqning uchi qo'yiladi. O'ng qo'l 2-holatdan 1-holatga kelib birga qo'yiladi.

4-takt O'ng oyoq chap oyoqning orqasiga chalishtirilib, oyoqlar uchlarida qo'yiladi. Qo'llar holati o'zgarmaydi.

5-10-taktlar Qiya yo'nalishni buzmasdan qizlar tomoshabinga yuzi bilan qarab burilib to'g'ri chiziqqa kelishadi. Juft sonlilar yon bilan chapga, toq sonlilar yon bilan o'ngga suriladilar. Hammalari oyoqlari bilan "to'liq tepma" harakatini (chap oyoq to'liq qo'yilgan holda jiladi, o'ng oyoq rasmiy holatda tepadi) bajaradilar. Qo'llar har ikki taktda yuz ro'parasida "gulbargi"dan 1-holatga ochiladi. Gavda va bosh oldinga egiladi, so'ng "qiyg'ir bo'yin" bilan to'g'rilanadi.

11-14-taktlar To'g'richiziqdan 2 ta chiziqqa ajraladilar. Toq sonlilar chapga, juft sonlilar o'ng tomonga chorak aylanadilar. Oyoqlar 4-holatda bo'ladi. Chap oyoq uchida turadi. Chapga aylanganlarning oyoqlari aksincha bo'ladi. Gavda oyoqqa sal egiladi. Bosh tomoshabinga qaraydi. Shu payt qo'llar kichik aylana shaklida o'zlarining ro'parasida ichkariga aylanadi. Kaftlar pastda, barmoqlar oldinga qaraydi.

15-takt bir Hamma ijrochilar joylarida to'liq aylanadilar. O'ng tomondagilar o'ngga o'ng oyoq uchi bilan, chap tomondagilar chapga chap oyoq uchi

bilan bajaradilar. Qo'llar 3-holatga keladi (o'ng tomondagilar o'ng qo'lni va chapdagilar aksincha).

ikki O'ngdagilar o'ng tizzaga, chapdagilar chap tizzaga o'tiradilar. Qo'llar 3-holatda qoladi.

16-takt "Labi g'uncha" harakati bajariladi. O'ng qo'l jimjilog'I lab tagiga keladi.

17-takt Tizzada o'tirib "qiyg'ir bo'yin" harakatini, qo'llar "labig'uncha" harakatini bajaradilar.

18-takt "Qiyg'ir bo'yin" bilan o'rinlaridan turadilar, tomoshabinga qarab qoladilar. Oyoqlar rasmiy holatda. Qo'llar o'zgarmaydi.

19-20-taktlar Hamma ijrochilar to'liq aylanadilar: 2 tadan 4 qator chiziqqa ochiladilar. Oxirida chap tizzaga o'tiradilar. Toq sonlilar tomoshabinga yuzlari bilan o'ngga jiladilar. O'ng oyoq bilan o'ngga aylanadilar va chap tizzaga o'tiradilar. Ular o'rniga o'ngga aylanish bajariladi, juft sonlilar keladilar va chap tizzaga o'tiradilar. Chap tomondagi ijrochilar xuddi shunday holatda keladilar faqat aksincha ijro etadilar. 19-taktda qo'llar o'zgarmaydi, 3-holatda turadi. 20-taktda "labi g'uncha" harakati bajariladi, tirsaklar bukilgan, kaft ro'parasida ichkariga qaraydi. Barmoqlar yonda, bir qo'l ikkinchi qo'l atrofida aylanadi, barmoq bitta tashqariga aylantirilib o'ng qo'l tirsagiga olib kelinadi.

21-takt "Qiyg'ir bo'yin" harakati bajariladi. Qo'l "labi g'uncha" harakatida bo'ladi.

22-takt Qizlar turishadi. Oyoqlar rasmiy hoaltda, qo'l "labi g'uncha"da bo'ladi.

23-26-taktlar Qizlar shaxmat holatda turishadi: 1-3-chiziqlardagilar o'ngga, 2-4-chiziqlardagilar chapga surilishadi. O'ngga surilganlar taktning har "bir" sanog'iga o'ng oyoq tovonini biroz o'ngga – to'g'riga jildirishadi. Chap oyoqning orqasiga suriladi. "Ikki" sanog'iga o'ng oyoq uchi bilan orqaga olib boriladi. Chap oyoq "bir" sanog'idagi harakatni qaytaradi. Chapga harakat qilganlar ham xuddi shu harakatni bajarishadi, faqat

aksincha bo‘ladi. 23-taktda qizlarning hammasi qo‘llarini 4-holatga olib boradilar (chap qo‘l tepada). O‘ng barmoq har bir sanoqqa qarsillatiladi, chap qo‘l barmoqlari bilan “tashqariga-ichkariga” harakat qiladi. Oxirgi sanoqqa qo‘llar chap tomonda 5-holatga keladi.

27-takt Hamma o‘ng oyoqning uchida aylanadi, chap oyoq yerdan uziladi.
bir O‘ng qo‘l keskin 2-holatga olib chiqiladi. (3-holat).

ikki Hamma chap tizzaga o‘tiradi. Qo‘llar holati o‘zgarmaydi.

28-30- “Labi g‘uncha” harakati bajariladi. Ijrochilar o‘rinlaridan turadilar.
taktlar Oyoq rasmiy holatda. Qo‘llar o‘zgarmaydi.

31-34- 1-3-chiziqdagi qizlar biroz chapga ketadilar. Taktning har “bir”
taktlar sanog‘iga chap oyoq tovonini biroz chap va oldinga chiqaradilar. “Ikki”ga chap oyoq yarmi bilan orqaga olib boriladi. O‘ng oyoq “bir” sanog‘idagi harakatni qaytaradi. 2-4-chiziqdagilar o‘ngga biroz ketadilar. Xuddi chapdagilardek, faqat aksincha. 31-taktda qo‘llar 4-holatga keladi (chap qo‘l tepada), so‘ng barmoqlar qarsillatiladi. Chap qo‘l barmoqlari “ichkariga-tashqariga” aylantiriladi. Barmoqlar tepaga qaraydi. Oxirgi sanoqda 5-holatda chap tomonda qoladilar.

35-takt Hamma ijrochilar o‘ngga o‘ng oyoq uchi bilan aylanadilar, chap
bir oyoq tizzadan bukiladi, yerdan ko‘tariladi. O‘ng qo‘l keskin 2-holatga, 3-holatga keladi.

ikki Ijrochilar chap tizzaga o‘tiradillar. Qo‘llar o‘zgarmaydi.

36-takt “Labi g‘uncha” bajariladi.

37-takt “Qiyg‘ir bo‘yin”, qo‘l “labi g‘uncha”da.

38-takt Ijrochilar o‘rinlaridan turadilar, oyoq rasmiy holatda, qo‘l “labi
g‘uncha”da.

39-44- 1-qatorning har bir ijrochisi 2-qatordagi joyida turgan qizning
taktlar atrofida o‘ngga, soat miliga qarshi tomonga aylanib joyiga keladi. 3-qatorning har bir qizi soat mili bo‘yicha chapga aylanib, 4-qatordagi qizning atrofida aylanib joyiga keladi. Oyoq harakati “to‘liq tepma”, o‘ng oyoq oldinda (har bir sanoqqa o‘ngo yoq bilan to‘liq qadam, chap

oyoq oldiga jiladi). Qo'llar 1-holatda. Oxirgi taktda orqaga keladi. Shu 6-taktda 2-qatordagilar joyida to'liq aylanadilar, qo'l "mayin sabo" – 2-holatda, 4-qatordagilar ham xuddi shuni bajaradilar, faqat teskari tomonga.

45-48-taktlar 2-qatordagilarning har biri 1-qatordagi qizlarni soat mili bo'yicha aylanib joyiga keladi, 4-qatordagi qizlar soat miliga qarshi holatda 3-qatordagi qizlarni aylanib joylariga qaytadilar. Chapga aylanish bilan tugaydi. Qo'l 1-holatda, oyoq hammaga "to'liq tepma", o'ng oyoq oldinda, oxirgi sanoqda qo'l orqaga keladi.

49-takt Hamma qizlar o'ngga o'ng oyoq uchida aylanishadi. Chap oyoq yerdan uzilib, tizzalar bukiladi. Qo'llar keskin 3-holatga olib boriladi (o'ng qo'l tepada), tomoshabinga yuzi bilan qoladilar. Oyoq rasmiy holatda.

50-takt Hamma ijrochilar chapga chorakta aylanib, qo'llar 1-holatga kelib "yelka qoqish" harakatini o'ng yelka bilan bajaradilar. Takt oxirida o'ngga chorakta aylanib, hamma tomoshabin tomonga yuzi bilan qarab qoladi.

51-54-taktlar 4-qatordagilarning hammasi orqalari bilan orqaga ketadilar, "nuqtali yurish" bilan (51-taktning "bir" sanog'iga oyoq uchi orqaga qo'yiladi. "Ikki" sanog'iga o'ng oyoq biroz orqaga tovon bilan qo'yiladi. Gavda biroz o'ngga buriladi), keyingi taktda chap oyoqdan qaytariladi. Qo'l 1-holatda.

55-56-taktlar Hamma qizlar oldinga oddiy qadam bilan keladilar. Qo'llar 2-holat – "gulbargi" orqali 1-holatga ochiladi. Chap qo'l boshga keladi. Oyoqlar 3-holatga keladi, chap oyoq uchida turadi.

3-qism. Doira jo'rligida

Musiqqa № 4, musiqa o'lchami 2/4. 56 takt

1-takt Harakat joyida bajariladi. O'ng oyoq uchida 6-holatga keladi, tizza
bir bukiladi.

ikki O'ng oyoq 3-holatga qaytariladi, tizzalar tortiladi. ("moki" harakati). Shu paytda o'ng qo'l qarsillatib chap ko'ksiga keladi va 6-holatdan o'ng tomonga yuqoriga ochiladi. Gavda biroz o'ngga buriladi, bosh qo'lni kuzatadi.

2-4- 1-takt 2 marta qaytariladi.

taktlar

5-takt Hamma ijrochilar o'ngga "chalishma aylanish" oyoq harakatini **bir** bajaradi. O'ng oyoq panjalari oyoqlarning orqasiga chalishtirilib qo'yiladi. Qo'llar 1-holatga ochiladi, ikkala oyoq uchida yarim aylanish, (tomoshabinga orqa bilan) chap oyoq tovonni yerdan ko'tarilib, tushiriladi.

ikki "Bir"dagi harakatni qaytaradi (tomoshabinga yuz bilan). Qo'llar 1-holatda qoladi. Kaft yuqorida.

6-takt 5-takt takrorlanadi.

7-10- Joyida 1-4-taktlar ("moki" harakati) ni qaytariladi.

taktlar

11-12- 5-6-taktlar qaytariladi, qo'l 1-holatda.

taktlar

13-16- Hamma ijrochilar 4 ta burchakda qiya yo'lda borishadi. 1-2-
taktlar qatordagilar chapga chorakta aylanib, so'ng pastki burchakka orqa bilan boradilar. Sahna o'rtasiga yuz bilan bo'ladilar. 3-4-qatordagilar xuddi shuni aksini bajaradilar. 1-2-sonli raqqosalar 3-4-qatordan chapga chorak aylanib orqaga o'ng yuqori burchakka orqa bilan yuradilar, ular ham xuddi shuni aksini bajaradilar: chap yuqori burchakka sahna o'rtasiga yuz bilan qiya yo'lda turishadi. Chapga chorakta aylaniladi. Hamma uchun oyoq uchi bilan orqaga, o'ngga qadam tashlanadi, chap oyoq o'ngo yoq oldiga jiladi. Qo'l harakati: "bir" sanog'iga 13-takt 6-holatda qarsak, so'ng o'ng qo'l tepaga, chap qo'l pastga keladi; "ikki" sanog'iga o'ng qo'l tashqariga aylanib 2-holatga keladi, chap qo'l rasmiy holatda bo'ladi.

17-18-taktlar Oyoq holati o'zgarmaydi. O'ng pastki burchakdagi va chap yuqori burchakdagi qizlar bir-biriga qarab yurishadi. Qo'llar 2-holatda qirsillatiladi. 18-takt oxirida (yaqinlashganda) ikkala qatordagilar kichik sakrash va shu vaqtda yarim aylanish bilan joylarini o'zgartirishadi. O'ng tomonga aylaniladi, o'ng yuqoridagilar esa 17-taktda joyida yarim aylanish bilan sahna o'rtasiga orqa bilan qoladilar. Oyoqlar 3-holatda, o'ng oyoq uchida bo'ladi. Qo'llar rasmiy holatda tushiriladi. Kaft tashqariga qaraydi. 18-taktga qo'llar mayin harakatlar bilan yuz oldidan biroz chapga olib o'tiladi. Shu paytda o'ng qo'l tirsagi bukilib, barmoqlar qirsillatiladi. Xuddi shunday holatda o'ngga olib boriladi. O'ng qo'l 1-holatga ochiladi.

19-20-taktlar Qizlar o'rin almashganlaridan so'ng qiya yo'l bilan burchak tomonga orqa bilan borishda davom etadilar. Qo'l va oyoq holati o'zgarmaydi. Shu paytda chap pastki burchak va o'ng yuqori burchakdagilar joylarida "moki" harakatini bajarishadi: har bir taktning "bir" sanog'iga o'ng oyoq uchi 6-holatga qo'yiladi, tizza bukiladi, "ikki" sanog'ida o'ng oyoq 3-holatga oyoq uchida qaytadi, tizzalar tortiladi. O'ng qo'l "bir" sanog'iga chap ko'ksiga yaqinlashadi, barmoqlar qirsillaydi. "Ikki" sanog'iga 6-holatdan balandga ochiladi. Oxirgi sanoqqa yarim aylanish tezlikda bajariladi. O'ngga o'ng oyoq bilan tortiladi. Sahna o'rtasiga yuz bilan qarab qolinadi.

21-24-taktlar 17-20-taktlarni boshqa tarafdagilar bajaradilar: chap pastki burchak va o'ng yuqori burchakdagilar joylarini almashtiradilar.

25-32-taktlar 17-24-taktlar qaytariladi. Oxirgi taktda raqqosalar sahna markaziga qarab qoladilar. Oyoqlar 6-holatda, chap oyoq uchida, qo'l 1-holatda.

33-takt Hamma raqqosalar charx aylanish bilan katta davra hosil qiladilar. Soat miliga qarshi yuradilar. Yuzlari davraga qaraydi. Qo'l, oyoq "soxta ufori" harakatini bajaradi.

bir O'ng oyoq tovonni bilan qadam tashlab oyoq to'lig'icha qo'yiladi. Tizzalar bukiladi, chap qo'l belni oldidan quchadi, o'ng qo'l 2-holatdan

oldinga tushib, chap tirsak ustiga tashlanadi. Shu vaqtda gavda biroz o'ngga egiladi. Bosh qo'lni kuzatib boradi.

i O'ng oyoq kichik qadam bilan oldinga to'liq qo'yiladi. O'ng tizza tortilib, chap oyoq uchida qoladi. Tizzalar bukiladi. O'ng qo'l 1-holatga ochiladi, gavda to'g'rilanib, bosh qo'l harakatini kuzatadi.

34-takt "Soxta ufori" yurish chap oyoq va chap qo'ldan qaytariladi.

35-takt O'ng oyoq uchi bilan o'ngga to'liq aylaniladi. Chap qo'l belni oldidan quchadi. O'ng qo'l keskin 2-holatga ko'tariladi.

36-37-taktlar Davrani davom ettirib, 2 ta "charx" o'ng oyoqdan ijro etiladi. Qo'l 1-holatda bo'ladi.

38-52-taktlar 33-37-taktlar 3 marta qaytariladi. ("soxta ufori" – 2 takt; 1 ta aylanish – 1 takt; 2 ta "charx" – 2 takt).

53-55-taktlar 33-35-taktlar qaytariladi. ("soxta ufori" – 2 takt; aylanish – 1 takt).

56-takt Hamma qizlar chapga yarim aylanib, sahna o'rtasiga yengil yugurib kelishadi. Qo'llar 6-holatga keladi. "B" ko'rinishida qirsillatiladi, barmoqlar yig'ilgan holda turadi. Gavda va bosh oldinga egiladi.

4-qism. Xalq cholg'u asboblari dastasi jo'r bo'ladi

Musiqi №5, musiqa o'lchami 2/4. 52 takt

1-4-taktlar Davrani kengaytirib, orqaga yuriladi. "Oyoq uchida tepma" harakati bilan (takti har bir sanog'iga o'ng oyoq uchida orqaga qadam tashlanadi, chap oyoq o'ng oyoq oldiga jiladi). Qo'llar qirsillatib boriladi. Pastdan 2-holatga ko'tariladi. Gavda va bosh to'g'rilanadi.

5-8-taktlar Joyida. 8 ta qiz o'ng tomonga chorakta aylanadi. 8 ta qiz chap tomonga aylanadi. Oyoq "yarim qaychi", har bir sanoqqa qo'l qirsillatiladi.

9-16-taktlar "To'liq tepma" oyoq harakati bilan qiya yo'lga o'tiladi. O'ng tomondagi qizlar soat mili bo'yicha orqa sahna o'rtasidan o'ngga qayriladi. Qiya yo'lga, o'ng pastki burchakka kelinadi. Chap

tomondagilar soat miliga qarshi yurishadi, orqa sahna o'rtasidan chapga, qiya yo'lga chap pastki burchak tomonga yurishadi. 2-holatda qo'llar "B" ko'rinishida qirsillatib boriladi.

17-takt 2 ta qiya yo'nalishdan 4 ta qiya yo'nalish hosil qilinadi. Toq sonlilar– o'ng qiya yo'nalishdagilar to'liq o'ngga aylanib, o'ngo yoq bilan 1 qadam nariga jiladilar va o'tiradilar. Shu vaqtda toq sonlilar o'ng oyoq bilan o'ngga aylanishadi. Chap qiya yo'nalishdagilar xuddi shu harakatni bajarishadi, faqat chap tomonga 1-holatda, 18-takt – o'ng tomondagi ichkari qiya yo'nalishdagilar chap tizzaga o'tiradilar. Chekkadagi qiya yo'nalishdagilar joyida turadilar, oyoq 3-holatda, chap oyoq uchida. Hamma qarama-qarshi tomonga qarsak chaladi. 6-holatda qarsakdan so'ng qo'llar 3-holatga ochiladi. O'ng qo'l tepada. Chap tomondagi ichki qiya yo'nalishi ijrochilari o'ng tizzaga o'tiradilar. Oyoq 3-holatda, o'ng oyoq uchida. Qarsak shunday turishda chalinadi, chap qo'l kafti o'ng qo'l kaftiga, so'ng o'ng qo'l chap qo'l kaftiga uriladi va 3-holatga ochiladi. Chap qo'l tepada.

19-22-taktlar Tashqaridagi qizlar oyoq uchlari bilan joyida har bir sanoqqa urib turadilar, bu "yelka qoqish" harakati bilan birga bajariladi (bitta yelka bilan). O'ng tomondagilar chap yelka bilan, chap tomondagilar o'ng yelka bilan bajaradilar. Ichkaridagi qizlar 1-qatorda turganlar bilan birga "yelka qoqish" harakatini bajaradilar. So'ng o'rinlaridan turib, o'zlarining avvalgi holatlariga qaytadilar.

23-takt O'ng tomondagi ikki qiya yo'nalishdagi qizlar joylarida 1 ta to'liq aylanadilar. O'ng oyoq bilan o'ng tomonga, chap oyoq bilan chap tomonga.

24-takt O'ng tomondagi ichkari qiya yo'nalishdagi qizlar chap tizzalariga o'tiradilar, tashqaridagilar joylarida turadilar, oyoqlari 3-holatda, chap oyoq uchi bilan qo'yilgan. Hamma bir vaqtda 2 ta qarama-qarshi chapak chaladi, 6-holatda. Chapakdan qo'llar 3-holatga ochiladi. O'ng qo'l tepada. Chap ichki qiya yo'nalishdagilar o'ng tizzaga o'tiradilar.

Tashqaridagilar joylarida turadilar. Oyoqlar 3-holatda, o'ng oyoq uchida.

25-28-taktlar Tashqari qiya yo'nalishdagi qizlar joylarida har bir sanoqqa oyoq urib turadilar. Oyoq uchi harakati "yelka qoqish" harakati bilan birga bajariladi, bir yelka bilan (o'ng tomondagilar chap, chap tomondagilar o'ng yelka bilan). Ichkaridagilar 1 takt "yelka qoqish" harakatini bajaradilar, so'ng turadilar. Oyoqlar rasmiy holatga keladi. Oxirgi sanoqqa hamma ijrochilar chorak aylanish qiladilar: o'ngdagilar chapga, chapdagilar o'ngga.

29-takt Tashqi qiya yo'ldagilar 1 qadam oldin suriladilar. "Oyoq uchida tepma" harakati bilan 4 ta qiya yo'ldan 2 ta qiya yo'l hosil qiladilar. Shu vaqtda qarama-qarshi qarsak 6-holatda bajarilib 3-holatga ochiladi. O'ng oyoq "tepma".

30-34-taktlar Oyoq holati o'zgarmaydi. Qo'l 3-holatda qoladi. Ijrochilar 2 ta qiya yo'ldan bitta qiya yo'l hosil qiladilar, o'ng pastki burchakdan chap yuqori burchakka: o'ng tomondagilar qiya yo'l ichkarisini hosil qiladi, chapdagilar – tashqarisini. Oxirgi sanoqqa oyoq 3-holatni egallaydi. O'ng oyoq uchi bilan qo'yiladi, chap qo'l kafti bosh orqasiga boradi. O'ng qo'l 1-holatdan yuqoriga olib o'tiladi.

35-36-taktlar Joyida. "Moki" oyoq harakati o'ng oyoq bilan bajariladi. Shu payt har bir ijrochi har taktning "bir" sanog'iga qo'llarini qirsillatib chap ko'ksiga yaqinlashtiradi. "Ikki" sanog'iga qirsillatib barmoqlar joyiga keladi.


37-39-taktlar Hamma ijrochilar oyoq bilan "moki" harakatini bajaradilar. Shu vaqtda taktning har "bir" sanog'iga barmoqlar qirsillatib chap ko'ksiga yaqinlashib, "ikki" sanog'iga joyiga qaytadi.

40-takt O'ng oyoq bilan o'ngga to'liq aylanadilar. Qo'llar 3-holatda, o'ng qo'l tepada.

41-52-taktlar Chap yelka bilan sahnaning chap tomondagi oxirgi pardasi orqasiga yon bilan ketadilar. Qiya yo'nalishida bajariladi. "Oyoq uchida tepma"

harakati (xuddi chiqishdagidek) chap oyoqni urish bilan bajariladi. Qo'llar quloq oldida chapak holatida bo'ladi. Chapakdan so'ng barmoqlar bukiladi. Bosh o'ngga qaraydi.






“БАЁТ”





“БАЁТ”

2- ҚИСМ. 18 ТАКТ	2- ҚИСМ. 19-20 ТАКТЛАР
2- ҚИСМ. 21-26 ТАКТЛАР	2- ҚИСМ. 27-34 ТАКТЛАР
2- ҚИСМ. 35-38 ТАКТЛАР	2- ҚИСМ. 39-44 ТАКТЛАР

2- ҚИСМ. 45-48 ТАКТЛАР	2- ҚИСМ. 49-56 ТАКТЛАР
3- ҚИСМ. 1-12 ТАКТЛАР	3- ҚИСМ. 13-16 ТАКТЛАР
3- ҚИСМ. 17-20 ТАКТЛАР	3- ҚИСМ. 21-24 ТАКТЛАР

	
3- ҚИСМ. 25-32 ТАКТЛАР	3- ҚИСМ. 33-55 ТАКТЛАР
	
3- ҚИСМ. 56 ТАКТ	4- ҚИСМ. 1-8 ТАКТЛАР
	
4- ҚИСМ. 9-16 ТАКТЛАР	4- ҚИСМ. 17-22 ТАКТЛАР

“БАЁТ”

	
4- ҚИСМ. 23-28 ТАКТЛАР	4- ҚИСМ. 29 ТАКТ
	
4- ҚИСМ. 30-52 ТАКТЛАР	

БАЁТ

Ўзбек халқ куйи



The musical score is written in G major (one sharp) and 2/4 time. It consists of three staves. The first staff contains a continuous eighth-note melody. The second staff features a melody with rests, and the third staff continues the melody with a final flourish.



The musical score is written in D major, indicated by two sharps (F# and C#) in the key signature. It consists of ten staves, with the first five in treble clef and the last five in bass clef. The notation includes various musical symbols such as notes, rests, and beams, representing a complex melodic and harmonic composition. The first staff begins with a treble clef, a key signature of two sharps, and a single note on the first line. The subsequent staves show a variety of rhythmic patterns and melodic lines, including eighth notes, quarter notes, and half notes. The last five staves, written in bass clef, continue the melodic development with similar rhythmic values and note patterns. The overall structure suggests a single melodic line with different register changes or a multi-staff instrumental arrangement.



Дойра







2-Mavzu. “PILLA” raqsi

“Pilla” raqsi Mukarrama Turg’unboyeva tomonidan 1952 yilda yangi ko‘rinishda yaratilgan bo‘lib, doira jo‘rligida ijro etiladi. Raqsda ipak qurtini boqishdan to pilla yig‘ilib, dastgohda ip yigirish, mato to‘qish va undan naqshlar bilan bezatilgan sharf tikishgacha bo‘lgan mehnat jarayoni tasvirlangan. Bu raqsni Mukarrama Turg’unboyeva keyinchalik “Bahor” dastasi uchun ommaviy raqs sifatida qayta sahnalashtirgan.

Raqs doira jo‘rligida ijro etiladi

Libos:

To‘rtburchak do‘ppi, ko‘ylak oq harir matodan yoki krepjojetdan, etagi keng, yengi keng, uzun. Nimcha yengsiz belgacha, qizil duxobadan, sariq yaltiroq zardan naqsh tikilgan: Lozim qizil atlasdan, jiyakli. Durra oq harir matodan 2 metr. Tufli oq, o‘rtacha poshnali.

Taqinchoqlar:

Zirak, munchoq, bilakuzuk.

1-shakl

Usul №1, musiqa o‘lchami 2/4

Taktlarning uzunligi sahnaning o‘lchamiga bog‘liq. Chiqish. Raqqosa sahnaning chap tomonidagi oxirgi parda orqasidan chap yelka bilan chiqadi va sahna orqasining o‘rtasiga kelib to‘xtamasdan soat miliga qarshi yurib, to‘liq davra chizadi. So‘ng sahnaning o‘rtasiga qaytadi. Keyin chap yelkadan tomoshabinga qaraydi va yurishni davom ettiradi. Sahna oldining o‘rtasiga keladi. O‘ng oyoqdan boshlab “rasmiy ufori” harakatini bajaradi. Qo‘llari chaptomonda 4-holatda. O‘ng qo‘l kafti gavdaga qaragan holatda (tut shoxini ushlab turganday). Bu yurish yon-yonga yengilgina tebranish bilan bajariladi.

2-shakl

A. Usul №2, musiqa o‘lchami 2/4. 2 takt

Harakat joyida bajariladi.

1-2- O'ng oyoq rasmiy holatda to'liq qo'yilib 4 ta uriladi. Shu
taktlar vaqtda o'ng qo'l barmoqlari yuzning o'ng tomoniga tegib turadi. Chap qo'l barmoqlari o'ng tirsakka tegib turadi. Bu harakat boshni yon-yonga tebratish bilan bajariladi. Xuddi, attang, ipak qurtlari yaxshi boqilmapti degan holat aks ettiriladi.

B. Usul №3, musiqa o'lchami 2/4. 8 takt

Sahnaning orqa markaziga orqa bilan, oyoq "oqsatma" harakati bilan yuriladi. Qo'llar 6-holatda. Kaft ichkariga qaraydi. O'ng barmoqlar chap barmoqlar ustida (xuddi savatni ko'targanday).

1-takt O'ng oyoqning uchi bilan orqaga urg'uli qadam tashlanadi.

bir Tizzalar bukiladi. O'ng qo'l bukilib (savatdagi tut shoxini olganday) barmoqlar ichkariga qayriladi.

ikki Chap oyoq o'ng oyoq oldiga jiladi. O'ng oyoq uchida qoladi. Tizzalar bo'sh qo'yiladi. O'ng qo'l barmoqlari bukilib chapga olib boriladi (shoxchalarni ipak qurtiga soladi). Bosh va gavda qo'l holatini kuzatadi.

2-takt Birinchi takt qaytariladi, O'ng qo'l oldinga ochiladi.

3-takt Birinchi takt qaytariladi, O'ng qo'l o'ngga ochiladi.

4-takt Birinchi takt qaytariladi, O'ng qo'l oldinga ochiladi

5-8- 1-4-taktlar qaytariladi, oyoqlar rasmiy holatda.

taktlar

V. Usul №4, musiqa o'lchami 2/4. 4 takt

Joyida. Oyoq "qopqon" harakati bilan to'liq aylaniladi.

1-4- Har bir taktning "bir" sanog'iga —o'ng oyoq tovonini bilan qadam
taktlar tashlanadi. Bu vaqtda choraktadan o'ngga aylaniladi. "Ikki" sanog'iga o'ng oyoq uchi bilan urg'uli qo'yiladi. Chap oyoq o'ng oyoqning o'rtasiga jiladi. Tizzalar bukiladi. Oxirgi sanoqqa to'liq

aylanib bo‘linadi. Tomoshabinga qarab qolinadi. Oyoqlar rasmiy holatda. Bu paytda qo‘llar 2-shakldagi harakatni bajaradi, tezroq (har taktga 2 ta harakat).

3-shakl

Usul №5, musiqa o‘lchami 2/4

Taktlar sahnaning o‘lchamiga bog‘liq.

Mayda qadamlar bilan sahnaning oldi markaziga yugurib kelinadi. Qo‘llar 1-holatda. Yugurish “tez shox” bilan tugallanadi: “bir” sanog‘iga oyoqlar 3-holatga qo‘yiladi, chap oyoq – uchida. Qo‘llar bir vaqtda o‘ng tomonda 4-holatda. ”Ikki” sanog‘iga tez to‘liq aylaniladi – chap oyoq bilan chap tomonga, o‘ng tizzaga bukiladi – oyoq uchi yerdan ko‘tariladi. Shu vaqtda qo‘llar keskin 3-holatga ochiladi, chap qo‘l yuqorida bo‘ladi. Oxirgi sanoqqa oyoqlar rasmiy holatga, qo‘llar “gulbargi” holatidan 1-holatga ochiladi.

Sahna oldining o‘rtasida tomoshabinga qarab qolinadi.

4-shakl

Usul №6, musiqa o‘lchami 4/8. 10 takt

Oyoqning “oqsatma” harakati bilan sahna orqasining markaziga orqa bilan yuriladi; qo‘llar 6-holatda turadi, kaftlar ichkariga qaraydi, barmoqlar yonga qaragan, o‘ng barmoq chap barmoq ustida (savatni oldida ko‘tarib turganday). “Ipak qurtlarini oziqlantirish davom etadi”. Faqat shoxlar bilan emas, barglar bilan.

1-takt Orqaga chap oyoq uchi bilan urg‘uli qadam tashlanadi. O‘ng
bir, ikki qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmoqlari “uzib olish” harakatini bajaradi. Tut shoxidan barg uzib olish ko‘rsatiladi. Gavda va bosh qo‘l holatini kuzatadi.

uch, O‘ng oyoq to‘lig‘icha chap oyoq yoniga jiladi. Chap oyoq
to‘rt uchida qoladi. Tizzalar bo‘sh qo‘yiladi. Bu vaqtda qo‘l “barglarni ipak qurtlariga tashlaydi” oldinga, chapga. Bosh va gavda o‘ng qo‘l harakatini kuzatadi.

2-takt 1-takt qaytariladi, bargni oldinga tashlaydi.

3-takt 1-takt qaytariladi, bargni o'ngga tashlaydi.

4-6- 1-3-taktlar qaytariladi.

taktlar

7-10- Joyda har "bir" sanog'iga chap oyoq to'lig'icha rasmiy holatda
taktlar urib turiladi. Qo'llar 1-3-taktlarni qaytaradi. Oxirgi sanoqqa oyoqlar rasmiy holatda, qo'llar 1-holatda.

5-shakl

A. Usul №7, musiqa o'lchami 2/4

Taktlar sahnaning o'lchamiga bog'liq.

Sahnaning oldida 1-holatda tez yugurib boriladi. Oyoq uchida mayda qadamlar bilan tomoshabinga qarab yugurish "tez shox" bilan tugaydi; oxirgi taktning "bir" sanog'iga oyoqlar 3-holatga, chap oyoq – uchida. qo'llar o'ng tomonga 4-holatga olib kelinadi. "Ikki" sanog'iga chapga tez, to'liq aylaniladi, chap oyoq uchida, o'ng oyq tizzasi bukilib, panjalar yerdan ko'tariladi. Qo'llar 3-holatga tezda olib kelinadi va "gul bargidan" 1-holatga olib kelinadi. O'ng tizza tushiriladi, tomoshabinga qaragan holatda.

B. Usul №8, musiqa o'lchami 4/8

5 takt harakat o'ng oyoqqa o'tirgan holda bajariladi. O'ng qo'l rasmiy holatda tirsak bukilgan, kaft osmonga qaragan, barmoqlar bo'sh qo'yiladi. Chap qo'l barmoqlari chap tizzaga qo'yiladi, kaftlar pastga qaraydi, barmoqlar bo'sh qo'yilgan. Shoxlarni belkurak bilan tashlash tasvirlanadi.

1-takt O'ng qo'l kafti bilan (xuddi belkurakka o'xshab) shoxlar olinib,
bir, ikki keskin harakat bilan chap yelka ro'parasida irg'itiladi. Bosh va gavda o'ng qo'lni kuzatadi.

uch, O'ng qo'l rasmiy holatda.

to'rt

2-5- 1-taktdagi harakat 4 marta qaytariladi.

taktlar

V. Usul №9, musiqa o'lchami 2/4. 12 takt

Harakatlarni o'tirib bajarish davom ettiriladi.

1-takt Iplarni yumshatish va tortish holati tasvirlanadi. Qo'llar olib borilib, tirsaklar bukiladi. O'ng barmoq chap barmoq ustida. Barmoqlar bo'sh qo'yiladi. Gavda chap tomonga egiladi. Chap yelka bilan tomoshabinga qaraladi.

bir Raqqosa o'ng qo'li bilan chap qo'l atrofida aylanma harakat qiladi.

ikki O'ng qo'l 1-holatdan yuqoriga ochiladi va yana qaytib keladi. Bosh o'ng qo'l harakatini kuzatadi (pilladan ipni tortib oladi).

2-4- 1-takt 3 marta qaytariladi.

taktlar

5-8- 1-4-taktlar chap qo'lda qaytariladi.

taktlar

9-takt Iplarni quritish harakati barmoqlarning mayda harakati bilan (1-
bir 6-, 2-holatlarga olib chiqiladi) ifodalanadi, bosh qo'lni kuzatadi.

ikki Barmoqlar 6-holatga tushiriladi, shu vaqtning o'zida yuz ro'parasidan 1-holatga ochiladi. Bosh qo'lni kuzatadi.

10-12- 9-takt 3 marta qaytariladi. Oxirgi sanoqda qo'llar 6-holatga
taktlar keladi, kaftlar bir-biriga, barmoqlar to'g'riga qaraydi. Shu payt raqqosa o'rnidan turadi. Oyoqlari rasmiy holatda.

6-shakl

A. Usul №10, musiqa o'lchami 4/8. 4 takt

1-3- Orqa bilan chapdagi oxirgi parda tomonga yurish, qo'l holati
taktlar o'zgarmaydi. (Go'yo raqqosa ip o'ramini ushlaydi). Har bir sanoqqa o'ng oyoq bilan "oqsatma" harakati bajariladi. Qo'llar kichik harakatlar bilan tepaga, pastga, sekin-asta 6-, 1-holatlar

oralig'iga ochiladi. (Atrofini to'g'rilash ifodalanadi). Har bir sanoq oxirida yana qaytadi. Gavda biroz oldinga egiladi, bosh galma-gal chap, o'ngga qaraydi.

4-takt Oyoq 3-holatga qo'yiladi. O'ng oyoq – uchida. Qo'l 1-holatdan 2-holatga ko'tariladi. Harakat qarsak bilan tugaydi. Gavda biroz chapga buriladi.

B. Usul №11 (rez)

Taktlar soni sahna maydoniga bog'liq.

Pastki o'ng burchakka qiya yo'nalishda, o'ngga aylanish bilan kelinadi. Qo'llar 1-holatda oxirgi sanoqqa “tez shox” ni bajaradi, (chapga bitta tez aylanish) o'ng oyoq bilan rasmiy holatda urish, pastki o'ng burchakka qarab qolinadi.

7-shakl

A. Usul №12, musiqa o'lchami 4/4. 4 takt

Chap pastki burchakka sahnaning oldiga yurish. Iplarni osish tasvirlanadi.

1-takt Bitta “shox” – ufori yurish” bilan chap oyoqda, o'ngga jilish
bir bilan tomoshabinga qarab qolinadi.

ikki “Shox”dan so'ng oyoqlar rasmiy holatga qo'yiladi, tizzalar bukiladi. Qo'llar oltinchi holatda, kaftlar ichkariga qaraydi, barmoqlar yonga qaraydi. Chap barmoq o'ng barmoqdan oldin turadi.

uch Tizzalar tortilib, o'ng qo'l 2-holatga ko'tariladi.

to'rt O'ng qo'l kafti oldinga qaratilib ko'rsatkich barmoq bilan ipni ilgakka ilish tasvirlanadi. Bosh o'ng qo'lni kuzatadi.

2-3- Birinchi takt 2 marta qaytariladi.

taktlar

4-takt Joyida, oyoq 3-holatda, o'ng oyoq – uchida, chap qo'l 2-holatga
bir, ikki kaft orqaga qaragan holda chiqadi, barmoqlar tepaga qaraydi. Shu payt o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'i labga olib kelinadi

(ho‘llanadi).

uch, O‘ng qo‘l chap qo‘lning ters tomonidan, barmoqdan tirsakkacha
to‘rt olib kelinadi, bosh qo‘lni kuzatadi.

B. Usul №13, musiqa o‘lchami 4/4. 2 takt

Harakat joyida ijro etiladi.

1-takt O‘ng oyoq to‘lig‘icha yerga uriladi. 1-holatda. Qo‘llar o‘ngga
bir 4-holatga olib kelinadi.

ikki O‘ng oyoqda ikkita urish, qo‘llar holatini o‘zgartirmaydi.

uch, Oyoqlar 3-holatga olib kelinadi. Chap oyoqning uchi qo‘yilgan,
to‘rt qo‘llar holati o‘zgarmaydi, shu paytda “qiyg‘ir bo‘yin” harakati ijro etiladi.

2-takt Birinchi takt chap oyoqdan qaytariladi. Qo‘llar chap tomonga 4-holatga olib kelinadi. 4 sanog‘iga rasmiy holatda, qo‘l barmoqlari musht holatga olib kelinadi, tirsaklar orqaga ketadi.

8-shakl

A. Usul №14, musiqa o‘lchami 4/4. 4 takt

“Yon yo‘rg‘a” harakati bilan o‘ngga sahna oldidan jilinadi. Dastgohda ishlash jarayoni tasvirlanadi.

1-takt O‘ng tomonga oyoq to‘liq bosilgan holda o‘ng oyoq bilan
bir kichik, keskin qadam tashlanadi. Tizza bukiladi, chap oyoq o‘ng oyoq oldiga uchi bilan qo‘yiladi. Shu paytda qo‘llar mushtlari yozilib oldinga olib kelinadi. Gavda va bosh biroz oldinga egiladi.

ikki “Bir” sanog‘idagi oyoq holati qaytariladi. Qo‘l orqaga ketganda mushtlar yig‘iladi.

uch “Ikki” sanog‘iga “bir” sanog‘idagi harakatlar qaytariladi.

2-4- Birinchi takt qaytariladi, oyoq 5-holatda harakatni tugatadi.

taktlar O‘ng oyoq oldinda bo‘ladi. O‘ng qo‘l tirsagi bukilib, musht holida bosh ro‘parasiga olib kelinadi, chap qo‘l ters tomoni bilan o‘ng

qo'lning tirsagiga tegib turadi.

B. Usul №15, musiqa o'lchami 4/4. 2 takt

Harakat joyida bajariladi.

Dastgohda ishlash davom etadi.

1-takt O'ng oyoq yerdan uzilmasdan 2 ta uriladi. O'ng qo'l tirsagi
bir, ikki ko'tarilib turiladi, bu harakat bilan bolg'ada urish holati
ko'rsatiladi. Chap qo'l holatini o'zgartirmaydi, 2-urish bilan qo'llar
darrov 6-5-holatlar oralig'iga ochiladi, kaftlar bir-biriga qaraydi.

uch, Qo'llar oldinga, o'ngga, chapga harakat qiladi. Bosh qo'l
to'rt holatini kuzatadi.

2-takt 1-takt qaytariladi. Oxirida qo'llar rasmiy holatda tushiriladi.

9-shakl

Usul №16, musiqa o'lchami 6/8. 8 takt

Orqaga orqa bilan, qiya yo'l bo'yicha o'ng pastki burchakdan sahna orqasining o'rtasiga qarab yuriladi. Oyoq "mayd afori" harakatini bajaradi.

1-2- 2 ta "ufoi yurish" o'ng oyoqdan boshlab, qo'llar 6-holatga
taktlar ko'tariladi, barmoqlar ochiq, bosh qo'llar harakatini kuzatadi.

3-4- 1-, 2-taktlar qaytariladi. Qo'llar asta-sekin o'ng tomonga, 4-
taktlar holatga olib boriladi.

5-8- Joyida. O'ng tomonga o'ng oyoq "mayda ufoi" harakati bilan
taktlar sekin, to'liq aylanadi. Tomoshabinga qarab qolinadi. Shu payt
nimcha chetidan durra tortib olinadi.

10-shakl

Usul №17, musiqa o'lchami 6/8

Taktlar soni sahna maydoniga bog'liq.

Katta davra bo'yicha yuzi bilan soat miliga qarshi "rasmiy ufoi" harakati bajarilib yuriladi. O'ng oyoqdan boshlab. Qo'llar durra chetini ushlab, 1-taktda bir-biriga

chalmashib, yuz ro‘parasidan bosh tepasiga olib ko‘tariladi – bu holat davra oxirigacha davom etadi. Shu holatda sahna orqasining markaziga kelgandan so‘ng durra oldinga olinib yuz berkitiladi. Oxirgi sanoqda “qiyg‘ir bo‘yin” ijro etiladi.

11-shakl

A. Usul №18, musiqa o‘lchami 6/8. 8 takt

Sahna oldining o‘rtasiga yurib kelish.

1-takt O‘ng oyoqdan bitta “rasmiy ufori”, shu payt durra yelkagacha tushiriladi. Gavda va bosh 1-holatda.

2-takt Chap oyoq o‘ng oyoq tovonini oldiga uchi bilan qo‘yiladi.

bir, ikki Qo‘llar o‘ng tomonga 5-holatga olib o‘tiladi. (O‘ng qo‘l biroz balandroq) bosh chap tomonga egiladi, durraga qaraladi.

uch, to‘rt “Sildirma” harakati ijro etiladi.

besht, olti Shu holatda tinish bo‘ladi.

3-4-taktlar 1-2-taktlar chap oyoqdan qaytariladi, qo‘llar 5-holatga chap tomonga o‘tadi (chap qo‘l balandroq).

5-8-taktlar 1-4-taktlar qaytariladi, oxirgi sanoqqa qo‘llar 6-holatda chalishtirilib boshdan baland ko‘tarilib, boshga tushiriladi, durraning cheti ushlab turiladi.

B. Usul №19, musiqa o‘lchami 6/8. 8 takt

8 takt joyida bajariladi.

1-takt Raqqosa durrani boshiga tashlab, chetidan sekin ushlab turadi.

2-4-taktlar Mayin salom beradi (kelin salom). Qo‘llar holatini o‘zgartirmaydi.

5-8-taktlar Salomdan so‘ng gavda to‘g‘rilanib to‘liq, sekin aylaniladi. Oyoq “yarim qaychi” harakatini bajaradi. 3-holatda tugatiladi. O‘ng oyoq – uchida. Gavda asta-sekin to‘g‘rilanadi. Oxirgi taktda durra oldinga tushirilib darrov 5-holatga olinadi. Durra chap tomonga olib o‘tiladi, bosh o‘ngga egiladi.

V. Usul №20, musiqa o'lchami 6/8. 4 takt

Harakat joyida ijro etiladi.

- 1-2-taktlar** O'ngga bir necha marta tez aylanish, oyoq "yon yo'rg'a" harakati bilan, qo'llar 5-holatda. (Chap qo'l sal ko'tarilgan). Oxirgi sanoqda 2-holatga qo'llar ko'tariladi, durraning chetini yuz ro'parasida ushlagan holda.
- 3-4-taktlar** Tomoshabinga yuzi bilan qarab turiladi, durra qoqilib, chap tizzaga o'tiriladi, durra o'ng tizza ustiga qo'yiladi.

12-shakl

Bu harakatlarning hammasi tizzaga o'tirilib bajariladi.

A. Usul №21, musiqa o'lchami 6/8. 10 takt

- 1-takt** 6-holatda qarsak chalinadi, barmoq uchlari tepaga qaraydi. "Qoshi kamon" harakati bajariladi: chapakdan o'ng qo'l o'ngga ochiladi, kaft pastga qaraydi, katta va o'rta barmoqlar bir-biriga yaqinlashtiriladi. Chap qo'l belni quchadi. So'ng o'ng qo'l barmog'i chapdan o'ngga tomon qosh ustidan yurgiziladi. 1-holatga ochiladi.
- 2-4-taktlar** 1-2-taktlar chap qo'ldan bajariladi, o'ng qo'l belni quchadi.
- 5-8-taktlar** 1-4-taktlar qaytariladi.
- 9-takt** 6-holatda qarsak, barmoqlar yuqoriga ko'tarilgan.
- 10-takt** 1-holatdan 2-holatga ko'tariladi, bosh qo'lni kuzatadi.

B. Usul №22, musiqa o'lchami 6/8. 20 takt

- 11-takt** Qo'llar tezda 1-holatga ochiladi, barmoqlarni yuqoriga tashlash bilan gavda, bosh chapga buriladi.
- 12-takt** Barmoqlar tezda bukilib ochiladi, kaftlar to'g'riga qarab

o‘zining oldiga keladi, ikkala qo‘l barmoqlari bir-biriga tegadi. Gavda o‘ngga buriladi.

13-14- 11-12-taktlar qaytariladi.

taktlar

15-18- 11-14-taktlar qaytariladi.

taktlar

19-takt Qo‘llar tezda birinchi holatga ochiladi. Barmoqlar yuqoriga ochiladi, bosh va gavda chapga qayriladi.

20-takt Qo‘llar 3 marta aylana shaklida harakat qiladi, (bir qo‘l ikkinchi qo‘l atrofida) o‘zining ro‘parasida. Kaftlar ichkariga qaraydi. So‘ng o‘ng qo‘l barmoqlari tashqariga aylantirilib, jimjilog‘I pastki labga qo‘yilib, chap qo‘l kafti tashqariga qaratilib, o‘ng qo‘l tirsakka olinib kelinadi (“labi g‘uncha” harakati).

21-22- 3 ta mayda “qiyg‘ir bo‘yin” ijro etiladi, “iyak otish” bilan **taktlar** tugatiladi.

23-24- 21-22-taktlar qaytariladi. “Iyak otish” harakati o‘ngga ijro **taktlar** etiladi.

25-26- “Yeng tortish” harakati ijro etiladi. Chap qo‘l 6-holatga keladi. **taktlar** O‘ng qo‘l barmog‘I chap qo‘l tirsagiga tegadi. So‘ng chap yeng tortiladi. Gavda chapga egiladi.

27-28- 25-26-taktlar chap qo‘ldan qaytariladi.

taktlar

29-takt Kaft boshga olib borilib, do‘ppi to‘g‘rilanadi.

30-takt Ikkala qo‘l bilan nimcha tortib qo‘yiladi.

V. Usul №23, (tez) 2 takt

31-32- “Chevar” harakati ijro etiladi; chap qo‘l chap tomondan yerdan **taktlar** g‘altak ip oladi (tasavvuridagi). Uni o‘ziga qaratib o‘ng qo‘lida ip yechadi va o‘ng qo‘li sekin-asta ochiladi. So‘ng chap barmoq

labga yaqinlashtiriladi. Ipni tishlari bilan uzadi.

G. Usul №24, musiqa o'lchami 6/8. 16 takt

- 33-takt** "Chevar" harakatining davomi: chap qo'l bilan chap ko'ksidagi ninani oladi (tasavvurda).
- 34-takt** O'ng qo'l ninaga ip o'tkazadi.
- 35-takt** Ninani o'ng qo'lga oladi, qo'llar yonga ochiladi.
- 36-takt** "Qiyg'ir bo'yin" harakati ijro etiladi.
- 37-38-taktlar** O'ng qo'l soch ustidan boshning o'ng tomoniga 2 marotaba yurgiziladi va "qiyg'ir bo'yin" ijro etiladi.
- 39-40-taktlar** O'ng qo'l 1-holatga ochilib barmoqlari qirsillatiladi.
- 41-takt** Qo'llar chap tizza ustiga tushirilib "chevar" harakatini bajaradi. O'ng qo'l o'ngdan chapga harakat qiladi. Ninani kirgazish paytida chap qo'lning bosh barmog'i yonga olib boriladi (xuddi ipni tortayotganday).
- 42-takt** O'ng qo'l 1-holatga ochiladi.
- 43-48-taktlar** 41-42-taktlar qaytariladi.

D. Usul №25, musiqa o'lchami 6/8. 10 takt

- 49-56-taktlar** 41-42-taktlar tez qaytariladi (2 marta tez).
- 57-58-taktlar** Raqqosa o'ng qo'lning barmoqlari bilan bir necha aylana shaklida harakat qilib (ipni tugish uchun) chap qo'l atrofida aylantiradi. Lekin tez og'ziga olib boradi. Oxirgi sanoqda qo'llar 6-holat, kaftlar o'ziga qaragan holatda, barmoqlar yoniga qaragan, o'ng qo'l barmog'i chap qo'l kaftining ters tomonini ushlaydi.

E. Usul №26, musiqa o'lchami 6/8. 16 takt

59-takt Qo‘l sekin, biroz to‘g‘riga keladi. Kaft tashqariga qaraydi. O‘ng qo‘l barmog‘i chap qo‘l barmog‘ini asta qisadi.

60-takt Qo‘llar kaftlari tashqariga qaragan holatda gavdaga yaqinlashadi. O‘ng qo‘l barmoqlari yana chap qo‘l barmoqlarini quchadi (nina kirgan joyini og‘rig‘ini olish uchun).

61-66-taktlar 59-60-taktlar uch marta qaytariladi. Qo‘l 2-holatga ko‘tariladi, bosh qo‘lni kuzatadi.

67-74-taktlar 59-60-taktlar to‘rt marta qaytariladi. Qo‘llar yuz ro‘parasidan pastga tushiriladi, 6-holatgacha bosh qo‘lni kuzatadi, qo‘l o‘zgarmaydi.

J. Usul №27, musiqa o‘lchami 6/8. 5 takt

75-79-taktlar O‘ng qo‘l tizzaga qo‘yiladi. Chap qo‘l 2-holatga ko‘tariladi. Har bir taktga qo‘l barmoqlari qirsillatiladi. Bosh chap qo‘lni kuzatadi.

Z. Usul №28, musiqa o‘lchami 6/8. 20 takt

Tikish davom etadi.

80-takt Qo‘llar yuz ro‘parasida “gul bargi” harakatidan 1-holatga ochiladi.

81-takt 2 marta “qiyg‘ir bo‘yin. Qo‘l holati o‘zgarmaydi, o‘ng qo‘l qirsillatiladi.

82-takt Tikish o‘ng tizzada davom ettiriladi. Gavda, bosh sal pastga egiladi.

83-takt O‘ng qo‘l 1-holatga ochilib, ipni tortadi. Bosh, gavda to‘g‘rilanadi.

84-89-taktlar 82-83-taktlar uch marta qaytariladi. Chap qo‘l barmog‘i o‘ng tizzada. O‘ng qo‘l o‘ng tizzadan 6-, 1-holatlar orasiga ochiladi (nina ip tortganday). Gavda va bosh sal oldinga egiladi. Qo‘lning harakatini kuzatadi.

91-takt Chap qo‘l biroz chap tomonga olib boriladi. Katta barmoq

yuqoriga qaratiladi (ipni to‘g‘rilaydi). Bosh chap qo‘lni kuzatadi.

92-95- 90-91-taktlar ikki marta qaytariladi.

taktlar

96-99- 82-83-taktlar ikki marta qaytariladi. (“Chevar” harakatini).

taktlar Faqat tez holatda.

I. Usul №29, musiqa o‘lchami 6/8. 2 takt

100-101- Raqqosa o‘ng qo‘l barmoqlarini chap qo‘l barmoqlari ustida

taktlar aylantirib, ipni tugadi (xayolida), tikishni yakunlaydi va ipni uzadi.

13-shakl

Usul №30, musiqa o‘lchami 6/8. 10 takt

1-2- Durrani olib tikka turadi, oyoq 6-holatda, chap oyoq – uchida,

taktlar “rasmiy ufori bilan orqaga yuradi. Chap oyoqdan boshlab sahna orqasiga boradi. Shu paytda durrani silkitadi, 6-holatda.

4-takt Joyida. O‘ng tomonga aylanish, chap oyoq rasmiy holatda. Qo‘l o‘ng tomonga 5-holatga o‘tkaziladi. Bosh qo‘lni kuzatadi.

5-6- 3-4-taktlar o‘ng oyoqdan qaytariladi. Qo‘l chapga 5-holatga
taktlar o‘tkaziladi.

7-10- O‘ngga shiddatli aylanadi, o‘ng oyoq bilan, qo‘llar chap
taktlar tomonda 5-holatda, oxirida doirachiga qarab qoladi (o‘ng pastki burchakka), gavda ozgina oldinda, qo‘llar cho‘zilib, doirachiga durrani uzatganday bo‘ladi, bosh qo‘lni kuzatadi.

14-shakl

Usul №31, musiqa o‘lchami 6/8

Taktlar soni sahna maydoniga bog‘liq.

Raqqosa “ufori yurish” bilan qiya yo‘l bo‘yicha pastki burchakka – doirachiyoniga boradi, shu vaqtda durrani aylantirib, barmoqlari bilan uchlarini ushlaydi. Doirachining beliga o‘rab, o‘ngdan chapga borib durrani tugadi.

15-shakl

Usul №32, musiqa o'lchami 6/8. 8 takt

Harakat doirachi oldida ijro etiladi.

1-takt O'ng oyoq bilan o'ng tarafga “ ufori yurish” orqali bitta aylanadi. Qo'l 3-holatda, o'ng qo'l tepada.

2-takt Chap qo'l kaftida doirani uradi, o'ng qo'l 1-holatda. Bosh qo'lni kuzatadi.

3-4- 1-2-taktlar chap tarafdin qaytariladi.

taktlar

5-8- 1-4-taktlar qaytariladi.

taktlar

15-shakl (davomi)

Usul №33, musiqa o'lchami 2/4. 2 takt

Harakat joyida bajariladi.

9-10- O'ngo yoq to'liq qo'yilgan holda 3 marta uriladi. Rasmiy
taktlar holatda. Qo'llar 2-holatda, barmoqlar yarim musht holatida.

16-shakl

Usul №34, musiqa o'lchami 2/4

Taktlar soni sahna maydoniga bog'liq.

1-takt Tomoshabin tarafga o'ng yelka bilan harakatlanadi. Chap tomondagi birinchi parda ortiga ketadi.


bir Oldinga kichik qadam, o'ng oyoq to'liq qo'yiladi. Tomoshabin tomonga o'ng yelka bilan yarim aylanish, chap oyoq yerdan ko'tariladi (doirachi tomonga).

ikki Chap yerdan sirg'anib, chapdan o'ngga katta yoy chizadi va raqqosa darhol ikki oyog'iga sakraydi. Oldinga qarab rasmiy holatda qoladi. Harakatlar davomida qo'llar 2-holatda, musht






qilingan holatda bo‘ladi.

2-takt Harakat chap oyoqda qaytariladi, oxirgi taktda chap qo‘l 1-holatga ochiladi. O‘ng qo‘l doirachi bilan xayrlashadi, raqqosa parda orqasiga ketadi.


“ПІЛЛЯ”



“ПІЛЛА”

	
7- ШАКЛ. “А”, “Б”.	8- ШАКЛ. “А”, “Б”.
	
9- ШАКЛ. 1-8 ТАКТЛАР.	10- ШАКЛ. АЙЛАНА БҮЙЛАБ.
	
11- ШАКЛ. “А”, “Б”, “В”.	12- ШАКЛ. 1-101 ТАКТЛАР.

“ПИЛЛА”

	
13- ШАКЛ. 1-10 ТАКТЛАР.	14- ШАКЛ. ҚИЯ ЙЎЛ БИЛАН ЮРИШ.
	
15- ШАКЛ. 1-10 ТАКТЛАР.	16- ШАКЛ. ЧИҚИБ КЕТИШ.

ПИЛЛА


Уста Олим Комилов
усулларидан намуналар

The musical score consists of ten staves of music. The first five staves are in 2/4 time and feature continuous eighth-note patterns. The sixth staff begins with a tremolo (tr) and a half note, followed by a quarter note. The seventh staff is in 4/8 time and features a pattern of eighth notes with rests. The eighth staff begins with a tremolo (tr) and a half note, followed by a quarter note. The ninth staff is in 4/8 time and features a pattern of eighth notes with rests. The tenth staff is in 2/4 time and features a pattern of eighth notes with rests.

The musical score consists of ten staves, organized into five systems of two staves each. The notation includes various rhythmic figures and time signature changes.

- Staff 1:** 2/4 time. A sequence of eighth notes: G4, A4, B4, C5, B4, A4, G4. This pattern is repeated three times, followed by a final measure with a quarter rest and a double bar line.
- Staff 2:** 2/4 time. A dotted quarter note G4 with a trill (marked 'tr' and a wavy line) over it, followed by an eighth note A4 with an accent (>), and a final measure with a quarter rest and a double bar line.
- Staff 3:** 4/4 time. A sequence of eighth notes: G4, A4, B4, C5, B4, A4, G4. This pattern is repeated three times, followed by a final measure with a quarter rest and a double bar line.
- Staff 4:** 4/4 time. A sequence of eighth notes: G4, A4, B4, C5, B4, A4, G4. This pattern is repeated three times, followed by a final measure with a quarter rest and a double bar line.
- Staff 5:** 4/4 time. A sequence of eighth notes: G4, A4, B4, C5, B4, A4, G4. This pattern is repeated three times, followed by a final measure with a quarter rest and a double bar line.
- Staff 6:** 4/4 time. A sequence of eighth notes: G4, A4, B4, C5, B4, A4, G4. This pattern is repeated three times, followed by a final measure with a quarter rest and a double bar line.
- Staff 7:** 6/8 time. A sequence of eighth notes: G4, A4, B4, C5, B4, A4, G4. This pattern is repeated three times, followed by a final measure with a quarter rest and a double bar line.
- Staff 8:** 6/8 time. A sequence of eighth notes: G4, A4, B4, C5, B4, A4, G4. This pattern is repeated three times, followed by a final measure with a quarter rest and a double bar line.
- Staff 9:** 6/8 time. A sequence of eighth notes: G4, A4, B4, C5, B4, A4, G4. This pattern is repeated three times, followed by a final measure with a quarter rest and a double bar line.
- Staff 10:** 6/8 time. A sequence of eighth notes: G4, A4, B4, C5, B4, A4, G4. This pattern is repeated three times, followed by a final measure with a quarter rest and a double bar line.

The image displays a page of musical notation, likely for a guitar, consisting of 12 staves. The notation is written in a single system, with each staff containing a line of music. The key signature is one flat (B-flat), and the time signature is 6/8. The notation includes various rhythmic values such as eighth notes, sixteenth notes, and rests. There are also dynamic markings like accents (>) and a trill (tr) indicated by a wavy line. The piece concludes with a double bar line (||) at the end of the 12th staff.



3-Mavzu. «PAXTA» raqsi

«Paxta» raqsi 1935 yilda sahnalashtirilgan boʻlib, oʻzbek xoreografiyasida yangilik edi. Bu raqs dastlab Fargʻona raqs maktabi asosida yaratilgan. “Paxta” raqsida urugʻ qadashdan toʻ hosil yigʻishgacha boʻlgan jarayon tasvirlangan.

Raqsdan qoʻl harakatlari shoxlarning shamolda tebranishini, barmoqlarning titratmasi esa irmoqlarning toʻlqinlanishini, yarim musht barmoqlarning asta-sekin ochilishi paxta ochilishini ifodalaydi.

“Paxta” oʻzbek milliy raqs sanʼatining oʻziga xos yorqin naʼmunasidir.

Ushbu syuita raqs xalq cholgʻu asboblari orkestri joʻrligida ijro etiladi.

Ijrochi qizlar- 30 nafar.

Liboslar:

Paxtalarni tasvirlovchi qizlar uchun.

Bosh kiyim oq shoyi matodan: 15x8 sm burchagi uchli roʻmol. Roʻmolda paxtaning ochilgan holati chizib koʻrsatilgan.

Koʻylak oq harir matodan, belburmali, oʻn toʻrt bel qilib tikilgan, keng, yoqasi oq kreptan mayda burma qilingan, tik turuvchi. Koʻylakning beldan yuqorisi oq shoyidan, beldan past ham astari bilan oq kreptan tikilgan. Koʻylak etaklari va yenglari oq kreptan uch qavat burmalar bilan tikilgan.

Nimcha beldan pastroqqacha tushgan oq shoyidan tikilgan. Oldi tarafdan ikki tomonida relyef pastasida 5 tadan ochilgan paxtalar uchtdan barglari bilan tasvirlangan.

Lozim oq kreptandishidan, jiyak tutilgan. Oyoq kiyimi oq rangdagi oʻrtacha poshnali tufli.

Taqinchogʻi – sirgʻa.

Terimchi qizlar uchun

Toʻrt burchak doʻppi, qora baxmaldan jiyak tikilgan.

Koʻylak uzun, belburmali, oltibel, keng va uzun yengli, yoqasi qaytarilgan xonatlasdan tikilgan. Nimchasi beldan past biroz kengaytirilgan, yengsiz, qizil pombarxitdan tikilgan. Nimcha jiyaklari zar ip bilan tikilgan.

Lozim xonatlasdan, jiyak tutilgan. Oyoq kiyimi qizil, oʻrtacha poshnali.

I – qism. “Paxta”

Farg‘ona qizlari ijro etadi.

Musiqqa № 1, musiqa o‘lchami 4/4. 66 takt

Paxtani tasvirlovchi qizlar – 24 ta, terimchilar – 6 ta.

“Paxta” – 24 ta ijrochining hammasi ikkala tizzaga o‘tirgan holda, 6 tadan 4 qator bo‘lib shaxmat tartibida.

Ijrochilarning qo‘llari peshon aoldida “qo‘li band” harakatida, egilib o‘tiradilar, qo‘llar yerga, peshona esa qo‘llarga tegib turadi.

Musiqaning kirish qismi boshlangan vaqtda parda ochiladi.

1-2- Musiqa chalinadi.

taktlar

3-4- Ijrochilar asta ko‘tarila boshlaydilar, o‘ng tomondan gavda tebrana
taktlar boshlaydi.

5-6- Gavda kengroq tebranadi.

taktlar

7-10- Qo‘llar peshona oldida, “gulbargi” harakati –barmoqlar tushirilgan holda
taktlar bajariladi. Shu vaqtning o‘zida gavda va bosh holati to‘g‘rilanadi. Barmoqlar ham mayinlik bilan to‘g‘rilanib, qo‘llar 2-holat orqali 1-holatga, kaftlar tepaga qaragan holda ochiladi. Oxirgi sanoqqa qo‘llar yana avvalgi, ya’ni peshona oldidagi holatga qaytadi.

11-12- 7-10-taktlardagi harakatlar tezlashtirilgan holatda qaytariladi.

taktlar

13-14- 11-12-taktlardagi harakat qaytariladi, oxirgi sanoqqa chap qo‘l
taktlar oldindan belni quchadi, o‘ng tirsaklar bukilgan holda chap qo‘l tirsagi ustiga tushirilgan holda tushadi, shu vaqtning o‘zida ikkala oyoqqa o‘tiriladi.

15-takt O‘ng qo‘l barmoqlari bukilib-ochilib, 2-holat orqali 1-holatga, kaftlar yuqoriga qaragan holda ochiladi va takt oxirida bel oldiga tushadi, shu

vaqtda chap qo‘l barmoqlari o‘ng qo‘l tirsagi ustida barmoqlari.

16-takt 15-taktdagi harakat chap qo‘ldan bajariladi. Oxirgi sanoqqa qo‘llar tushirilgan barmoqlar bilan 1-va 2-holatlar orqali “gulbargi” harakatiga peshona oldiga qaytadi, shu vaqtda gavda va bosh tezda yana engashadi.

17-18-taktlar Gavda va bosh asta-sekin to‘g‘rilanadi, shu vaqtda qo‘llar bilan barmoqlar har bir sanoqqa bukilib-ochilib, asta-sekin 2-holat orqali 1-holatga–kaftlar yuqoriga qaragan holda ochiladi. Oxirgi sanoqqa qo‘llar chap tomonga 5-holtaga ochiladi.

19-20-taktlar Qo‘llar tezlik bilan o‘ng tomonga 5-holatdan ozgina yuqoriroq, kaftlar pastga qaragan holatga o‘tkaziladi, shu vaqtda ijrochilar tezda tizzaga ko‘tariladilar. So‘ng qo‘llar barmoq titramasi bilan asta-sekin 6-holatga, kaftlar pastga qaragan holatga keladi. Ijrochilar yana oyoqlar iustiga o‘tiradilar.

21-22-taktlar 19-20-taktlar harakatlari chap tomonga bajariladi.

23-takt Bu harakat o‘tirgan holda bajariladi. Gavda va bosh ozgina oldinga egiladi. Bir vaqtning o‘zida qo‘llar 6-holatdan pastroqda, “suv mavji” harakati bajariladi.

24-takt Kaftlar bir-biriga yaqinlashib “kosagul” harakati orqali suv ichish ko‘rsatiladi, oxirgi sanoqqa qo‘llar ko‘krakka, o‘ng qo‘l chap qo‘l ustiga qo‘yiladi, gavda va bosh to‘g‘rilanadi.

25-26-taktlar Qo‘llar shu holatda, o‘ngga-chapga “tebranish” harakati bajariladi.

27-28-taktlar Qo‘llar o‘ng tomonga tezlik bilan 5-holatdan sal yuqoriroqqa o‘tkaziladi, kaftlar tirsagi pastga qaragan holatda, bir vaqtning o‘zida ijrochilar tizzalariga ko‘tariladilar, so‘ng barmoq titramasi bilan asta-sekin kaftlar pastga qaragan holatda 6-holatga o‘tkaziladi va ijrochilar asta-sekin oyoqlari ustiga o‘tiradilar.

29-30-taktlar 27-28-takt harakatlari chap tomondan bajariladi.

- 31-takt** Gavda va bosh ozgina engashadi, bir vaqtning o'zida qo'llar 6-holatdan pastroqda suvni siypalab (bilaklar bir-biriga qaragan holda yaqinlashib, yana bir-biridan uzoqlashadi, barmoqlar to'g'riga qaragan bo'ladi).
- 32-takt** Kaftlar "kosagul" harakatiga birlashib, so'ng suv olib, lablariga yaqinlashadi, takt oxirida kaftlar ko'krakka (o'ng qo'l chap qo'l ustida) qo'yilib, gavda va bosh to'g'rilanadi.
- 33-34-taktlar** Qo'l holatini o'zgartirmagan holda "tebranish" harakati (o'ngga, chapga) bajariladi.
- 35-36-taktlar** Ijrochilar tezda tizzalariga turadilar. Bir vaqtning o'zida chap belni oldidan quchadi, o'ng qo'l tezlik bilan yuqoriga, sal oldinroqqa ko'ttarilib, kaft o'ng tomonga qaragan holda, barmoqlar yuqoriga qarab "shamol" harakati bajariladi. Gavda va bosh ozgina chapga, yuz o'ng qo'l barmoqlariga qaraydi.
- 37-38-taktlar** Ijrochilar ikkala oyoqqa o'tiradilar, bir vaqtning o'zida gavda va bosh chaptomonga, ozgina oldinroqqa engashadi. O'ng qo'l yuzini berkitadi, barmoqlar tushiriladi, chap qo'l belda. So'ng gavda asta-sekin to'g'rilanadi, o'ng qo'l barmoqlari burilib-ochilib 6-holat orqali o'ng tomonga va o'zidan tashqariga barmoqlarni aylantirish bilan 1-holatga keladi; bosh o'ng qo'l harakatini kuzatib boradi.
- 39-40-taktlar** Ijrochilar tezda tizzalariga ko'tariladilar, bir vaqtda chap qo'l belni oldindan quchadi; o'ng qo'l tezlik bilan yuqoriga, oldinroqqa ko'tarilib "shamol" harakati bajariladi; gavda va bosh ozgina chapga egilgan.
- 41-42-taktlar** Ijrochilar ikkala oyoqlariga o'tiradilar. Bir vaqtda gavda va bosh chapga, oldinroqqa egiladi, o'ng qo'l yuzni berkitadi, barmoqlar tushirilgan, chap qo'l belda. So'ng gavda asta-sekin to'g'rilanadi, o'ng qo'l bukilib-ochilib, 6-holat orqali o'ng tomonga urg'u bilan o'zidan tashqariga barmoqlar bilan aylanib, 1-holatga ochiladi, bosh o'ng qo'l harakatini kuzatib boradi.
- 43-44-** 43-taktning "bir" sanog'iga qo'llar peshona oldida "gulbargi"

- taktlar** harakatiga kelib, barmoqlar tushiriladi. Gavda va bosh ozgina oldinga engashgan: soʻng gavda va bosh asta-sekin toʻgʻrilanadi, bir vaqtda qoʻllar mayin bukilib, urgʻu bilan har bir sanoqqa barmoqlarni toʻgʻrilab, sekin-asta 2-holat orqali kaftlar yuqoriga koʻtarilib 1-holatga ochiladi. Oxirgi sanoqqa gavda va bosh tezlik bilan oldinga egiladi.
- 45-46-taktlar** 43-44-takt harakatlari qaytariladi. Faqat oxirgi sanoqqa chap qoʻl bel quchish harakatiga, oʻng qoʻl tirsak bukilgan holda chap qoʻl tirsagi ustida barmoqlari tushirilgan holatga keladi.
- 47-takt** Oʻng qoʻl barmoqlari bukilib-toʻgʻrilanib, 2-holat orqali kaft yuqoriga qaragan holda 1-holatga ochiladi va takt oxirida oldinga “belquchish” harakatiga keladi, shu vaqtning oʻzida chap qoʻl barmoqlari tushirilgan holatda oʻng tirsagi ustiga keladi.
- 48-takt** 44-takt harakatlari chap qoʻldan takrorlanadi. Takt oxirida qoʻllar tushirilgan barmoqlar bilan 1- va 2-holatlar orqali peshona oldiga “gulbargi” harakatiga yopiladi, bir vaqtning oʻzida gavda va bosh tezda oldinga egiladi.
- 49-50-taktlar** Qoʻllarning barmoqlari har bir sanoqqa shiddatliroq harakat bilan toʻgʻrilanib, soʻng tushirilib, asta-sekin 2-holat orqali 1-holatga kaftlar yuqoriga qaragan holda ochiladi, bir vaqtning oʻzida gavda va bosh toʻgʻrilanadi. Oxirgi sanoqqa oʻng qoʻl tirsagi ozgina bukilgan holda 6-1-holat oraligʻiga, kaft yuqoriga qaragan holga keladi, barmoqlar yarim musht shakliga kelib paxta koʻsagi tasvirlanadi; chap qoʻl oʻng qoʻl tirsagi tagiga kaft bilan keladi.
- 51-takt** Oʻng qoʻl bilan “paxta ochilishi” harakati bajariladi; bilaklarning shiddatliroq harakati bilan barmoqlar asta-sekin ochiladi, gavda va bosh ozgina oʻngga qaraydi.
- 52-takt** 51-takt harakatlari chap qoʻldan qaytariladi, gavda va bosh ozgina chap tomonga qaraydi.
- 53-54-taktlar** 51-52-taktlar harakatlari takrorlanadi. Oxirgi sanoqqa qoʻllarning kaftlari yuqoriga qaragan holda 1- holatga ochiladi, barmoqlar yarim

mushtga yig'ilib paxta ko'saklari tasvirlanadi.

55-56-taktlar Gavda va bosh asta-sekin o'ng tomonga engasha boshlaydi, yuz qarama-qarshi tomonga qaraydi, so'ng gavda va bosh to'g'rilanadi. Bir vaqtning o'zida bilaklar "paxta ochilishi" harakatini bajaradi.

57-58-taktlar 55-56-taktlarning harakatlari chapga engashgan holda takrorlanadi. Oxirgi sanoqqa gavda va bosh tezda oldinga engashadi, bir vaqtning o'zida qo'llar tushirilgan, barmoqlar bilan peshona oldida "gulbargi" harakatiga yopiladi.

59-60-taktlar Gavda va bosh sekin-asta to'g'rilanadi, bir vaqtning o'zida qo'llar 2-holat orqali, har bir sanoqqa muddati bilan bilaklar buklanib, to'g'rilanib asta-sekin kaftlar yuqoriga qaratilib, 1-holatga ochiladi. Oxirgi sanoqda gavda va bosh tezda oldinga egiladi, qo'llar tushirilgan, barmoqlar peshona oldida "gulbargi" harakati bilan yopiladi.

61-62-taktlar 59-60-taktlarning harakatlari takrorlanadi. Oxirgi sanoqqa o'ng tirsakni bukkani holda, kaft yuqoriga qaratilib, 6- va 1-holatlar oralig'iga keladi, kaft yarim musht holatiga keladi; chap qo'l kafti o'ng qo'l tirsagiga keladi.

63-takt "Paxta ochilishi" harakati o'ng qo'ldan bajariladi; kaft shiddat bilan har bir sanoqqa barmoqlarni ochadi, gavda va bosh ozgina o'ng tomonga qaraydi.

64-takt 63-takt harakatlari chap qo'ldan qaytariladi. Gavda va bosh salgina o'ng tomonga qaraydi. Oxirgi sanoqqa gavda va bosh tezda oldinga engashib, bir vaqtning o'zida qo'llar tushirilgan barmoqlar bilan peshona oldida "gulbargi" harakati yopiladi.

65-66-taktlar Gavda va bosh to'g'rilanadi, bir vaqtning o'zida qo'llar 2-holat orqali kaftlar yuqoriga qaragan holda ochilib, barmoqlar yarim musht bilan yopiladi.

2-qism. "Zafar"

Musiqqa o'lchami 4/4. 79 takt

A. Paxtani tasvirlovchi ijrochilar uchun harakatlar.

79 taktga mo'ljallangan barcha harakatlar "paxta"ni tasvirlovchi 24 ijrochi va 6 terimchi qiz tomonidan bir vaqtning o'zida ijro etiladi. Terimchi qizlarning harakatlari alohida beriladi.

1-2-taktlar Ijrochilar (birinchi qismdagi kabi) har bir qatorda 6 tadan 4 qator bo'lib, shaxmat tartibida ikkala oyoq ustida o'tiradilar. 1-taktda gavda va bosh o'ngga mayin, 2-taktda chapga engashadi; yuz qarama-qarshi tomonga qaraydi. Bir vaqtning o'zida qo'llar "paxta ochilishi" harakatini bajaradi. Har bir sanoqqa bilaklar shiddat bilan barmoqlar ochilishiga yordam beradi. Oxirgi sanoqqa chap qo'l belni quchadi, o'ng qo'l chap qo'l tirsagi ustiga barmoqlari tushirilgan holatga keladi.

3-4-taktlar O'ng qo'lning bilagi shiddat bilan ochilib, mayin bukiladi, 2-holat orqali 1-holatga ochilib, bilak tashqariga aylantirilib harakat tugallanadi.

5-6-taktlar 3-4-taktlarning harakatlari chap tomonga chap qo'l bilan takrorlanadi.

7-takt "Qiyg'irbo'yin" harakati bajaraladi.

8-12-taktlar 3-4-taktlarning harakatlari takrorlanadi, oxirgi sanoqqa chap qo'l belni quchadi, o'ng qo'l 1-holatga ochiladi.

13-15-taktlar Ijrochilar tezda tizzalariga turadilar va shu zahoti chap tomonga, sal oldniroqqa engashadilar. Chap qo'l bel quchishda, o'ng qo'l barmoqqa tushirilgan holda 2-holat orqali yuzga tushirilib, 6-holat orqali 1-holatga ochiladi.

16-17-taktlar Qo'llar 1-holatda to'lqinli harakat bajariladi, gavda va bosh o'ngga, chapga engashadi, yuz qarama-qarshi tomonga qaraydi. Oxirgi sanoqqa ijrochilar ikkala oyoqqa o'tiradilar.

18-22-taktlar 13-17-taktlarning harakatlari qaytaraladi. Oxirgi sanoqqa gavda va bosh oldinga engashadi, bir vaqtning o'zida tushirilgan barmoqlar bilan peshona oldiga "gulbargi" bilan engashadi.

23-26- Gavda va bosh sekin-asta to'g'rilanadi, bir vaqtning o'zida qo'llar

- taktlar** barmoqlarni qarsillatib 2-holat orqali 1-holatga ochiladi va bilak aylanishi bilan harakat tugallanadi.
- 27-28-taktlar** 1-taktda gavda va bosh o'ngga, 2-taktga chapga engashadi, yuz qarama-qarshi tomonga qaraydi. Shu vaqtning o'zida qo'llar 1-holatda barmoqlar har bir taktda ikki martadan barmoq qarsillatish harakatini bajarishadi.
- 29-30-taktlar** Ijrochilar o'ng tizzadan ko'tarila boshlaydilar, chap oyoq o'ng tizza oldida, qo'llar 1-holatda, barmoq qarsillatish davom ettiriladi.
- 31-takt** O'ng qo'l oldindan chap qo'l orqadan "belquchar" harakatiga keladi, bir vaqtning o'zida ijrochilar turib oladilar, oyoqlar 2-holatda (o'ng oyoq chap oyoq oldida ko'ndalang) turadi.
- 32-35-taktlar** Harakat joyda bajariladi. O'ng oyoqdan "yonyo'rg'a" harakati bilan 4 marta aylaniladi, qo'llar "belquchar" holatida.
- 36-takt** Ijrochilar yana ikkala oyoqlariga o'tiradilar va qo'llar 1-holatga ochiladi.
- 37-40-taktlar** Ijrochilar o'ng va chap tomonga "tebranish" harakatini bajaradi, bosh qarama-qarshi tomonga qaraydi, qo'llar 1-holatda barmoqlar qarsillatib turiladi.
- 41-42-taktlar** 1 ta taktga ijrochilar tizzalariga ko'tariladilar, shu vaqtning o'zida qo'llar yuz oldida "qo'liband" harakati bilan yopiladi, bosh oldinga engashadi, 2-takt tinish.
- 43-44-taktlar** Ijrochilar sekin-asta ikkala oyoqqa o'tiradilar; qo'llar sekin-astalik bilan 6-holat darajasigacha tushiriladi, bosh sekin to'g'rilanib, "qiyg'irbo'yin" harakati bajariladi.
- 45-50-taktlar** "Yirik to'lqin" harakati bajariladi: "bir-ikki"ga 6-holat orqali barmoqlar tushirilib, mayin 5-holatga o'tkaziladi. Qo'ldastalar sal bukilib, harakat chap tomonga bajariladi.
- 51-52-taktlar** 1-taktga ijrochilarning tizzalari ko'tariladi, bir vaqtning o'zida qo'llar "qo'liband" harakatiga yuz oldiga yopiladi, bosh oldinga engashadi; 2-takt tinish.

- 53-54-taktlar** Ijrochilar sekin-asta ikkala oyoqlariga o'tiradilar: qo'llar shu holatda mayin 6-holat darajasiga tushiriladi, gavdaga yaqinlashtirmasdan bosh sekin-asta to'g'rilanadi, bir vaqtning o'zida "qiyg'ir bo'yin" harakati bajariladi.
- 55-60-taktlar** "Bir-ikki"ga qo'llar 6-holato rqali, qo'ldastalarni tushirib, mayinlik bilan o'ng tomonga 5-holatga o'tkaziladi, so'ng harakat chap tomonga takrorlanadi, "tez", "yirik to'lqin" harakati bajariladi.
- 61-63-taktlar** Hamma ijrochilar rasmiy holatda turib oladilar. Bir vaqtning o'zida qo'llar tushirilgan, qo'ldastalar bilan "gulbargi" harakatida barmoq qarsillatilishi bilan 2-holat orqali 1-holatga ochiladi. Oxirgi sanoqqa o'ng oldidan belni quchadi, chap qo'l 1-holatda qoladi.
- 64-takt** Joyida o'ng tomonga o'ng oyoq uchida o'ng qo'l tezlik bilan 2-holatga (3- qo'l holati) chiqib to'liq aylanish; takt oxirida o'ng qo'l kaf ttersi bilan bag'baqa tagiga (orasida azgina masofa qoladi) keladi.
- 65-68-taktlar** 1-2-3-taktlar o'rtasidan 2 tadan ijrochi o'ng yelka bilan sahna markazi tomon, 6 qirrali "yulduzcha" tasviriga kelishadi. Soat mili bo'yicha oyoq harakati "yonyo'rg'a", qo'l harakati "bag'baqa silash" (o'ng qo'l bag'baqa tagidan qo'ldasta tersi mayinlik bilan silanib turib, 1-holatga keladi). Qolgan "paxta" ijrochilari harakatlarni bajarib, katta umumiy doiraga, soat millari harakati bo'yicha keladilar.
- 69-takt** "Yulduzcha" tasviridagi 6 ta ijrochi o'ng oyoq uchida o'ng tomonga aylanadi, shu vaqtning o'zida o'ng qo'l 1-holat orqali 2-holatga keladi(3- qo'l holati) va yuz bilan aylana bo'yicha qolinadi. Oxirgi sanoqqa "yulduzcha" tasviridagi ijrochilar bir-birlarining yelkalariga kaftlarini 1-holatda qo'yadilar. Qolgan 4 ijrochi aylana bo'ylab o'ng tomonlari bilan burilib, qo'llarini ushlab oladilar.
- 70-73-taktlar** Aylana bo'ylab harakatlar: "yulduzcha" tasviridagi ijrochilar soat millariga qarshi tomonga kichik aylana bo'ylab katta aylanadilar, soat millari bo'yicha o'ng oyoq bilan, "yonyo'rg'a" bilan, qo'llar o'sha holatda; bosh 1 ta taktga oldinga egiladi.

74-76-taktlar 70-73-taktlarning harakatlari takrorlanadi. “Yulduzcha” tasviridagilar yana bitta aylana bo‘ylab, katta aylanadagilar ham yana bitta aylanish qilib keladilar.

77-takt Katta aylanadagi qizlar oddiy qadamlar bilan sahna markaziga aylanani kichraytirib keladilar: qo‘llar avvalgi holatida, gavda va bosh to‘g‘riga qaratilgan. “Yulduzcha” tasviridagilar joylarida qoladilar.

78-79-taktlar Hamma ijrochilar (katta aylanava “yulduzcha”dagilar) o‘ng oyoqlarini 4-holatga, oyoq uchiga qo‘yadilar; so‘ng hamma asta-sekinlik bilan orqaga engasha boshlaydi, bosh o‘ngga qaragan holda, qo‘llar avvalgi holatda.

B. Terimchilar harakatlarini tasvirlovchi ijrochilar uchun harakatlar. 79 taktga mo‘ljallangan harakatlar “paxta”ni tasvirlovchilar bilan ijro etiladi.

1-2-taktlar Chiqish. Sahnaning chap tomondagi pardasi orqasidan bitta ijrochi quvonchli, oddiy qadamlar bilan 3- va 4-qatorlar orasidan yurib keladi, keyin 3-qatordagi 5-qiz orqasidan tomoshabin gaqarab, 6-holatga qarsak chalib, qo‘llar rasmiy holatda qoladi. Qiz diqqat bilan “ochilgan paxta”larga qaray boshlaydi.

3-5-taktlar “Terimchi” qiya yo‘nalish bo‘yicha sahna markaziga “rasmiy ufori” oyoq harakati bilan o‘ng oyoqdan boshlab, qo‘llar “bag‘baqa silash” (chap qo‘l 1-holatda), o‘ng qo‘l qo‘ldasta tersi bilan bag‘baqa tagidan silanib o‘tib, 1-holatga ochiladi, so‘ng harakat chap qo‘ldan qaytariladi; shu vaqtning o‘zida “terimchi” atrofidagi “paxta”larga qaraydi. 5-takt oxirida qiz sahna markazida 2-3-taktlar orasida tomoshabinga qarab to‘xtaydi. Oxirgi sanoqqa chap qo‘l oldindan belni quchadi, o‘ng qo‘l 6-holatga, kafti o‘ziga qaratilib, barmoqlar chapga qaraydi.

6-takt Joyida. Oyoq uchida ozgina qadam qo‘yib o‘ng tomonga bir aylanish; o‘ng qo‘l oldindan tezlik bilan 1-holat orqali 2-holatga ko‘tariladi.

7-takt 6-takt harakati orqadan takrorlanadi; o‘ng 1-holat orqali oldindan belni quchadi, chap qo‘l 2-holatga ko‘tariladi.

- 8-11-taktlar** “Terimchi” 2 tataktga sahna old qismiga, 1-qatorning 4-5-“paxta” ijrochilari o‘rtasiga, tomoshabinga o‘ng oyoqdan “rasmiy ufori” harakati bilan qarab keladi, 11-taktda “terimchi” chap tizzasiga o‘tiradi va qo‘llar 1-holatga keladi.
- 12-takt** “Qiyg‘ir bo‘yin” harakati bajariladi, oxirgi sanoqqa o‘rindan turadi, qo‘llar 1-holatda.
- 13-takt** Ijrochi o‘ng tomonga chorak qism qayrilib, chap yelkasi bilan tomoshabin tomonga “paxta”larning 1-, 2-qatorlari orasidan sahnaning o‘ng tomonidagi 1-pardasi tomon “rasmiy ufori” bilan keladi, qo‘l harakati –“novda egilishi” (barmoq qarsillatish bilan o‘ng tomondan 3-holat, chap tomonga 3-holatga mayinlik bilan o‘rtada).
- 14-takt** O‘ng oyoq uchida joyida turib bitta aylanadi, 6-holatda to‘xtaydi, chap oyoq uchida, o‘ng qo‘l yuqorida 3-holatda turadi.
- 15-takt** Ijrochi qo‘ldastani labiga yaqinlashtiradi (dugonalarini chaqirish maqsadida) takt oxirida qo‘llar 6-holatdan salgina yuqorida turadi, chap qo‘lning tirsagi ozgina bukilgan, kaft yuqoriga qaragan holatda bo‘ladi.
- 16-17-taktlar** Qo‘ldastalar bukilib, qo‘llar chap tomonga 5-holatdan sal chaproqqa o‘tkaziladi (paxta terishga chaqiriladi).
- 18-takt** “Terimchi” o‘ngga yarim aylanish qilib, sahnaning chap tomonidagi oxirgi parda tomonga “rasmiy ufori” harakati bilan “paxta”larning 4-qatordagi 5-ijrochi oldida tomoshabinga o‘ng yelka bilan qoladi.
- 19-22-taktlar** 14-17-taktlar harakatlari chap tomonga chap oyoq uchida aylanish bilan takrorlanadi. Oxirgi takt so‘ngida qo‘llar o‘ng tomonga 5-holatning sal pastrog‘iga o‘tkazilib, bir vaqtning o‘zida ijrochi o‘ng tomonga yarim aylanish qilib, tomoshabinga chap yelka bilan qoladi.
- 23-24-taktlar** Qolgan 5ta “terimchi”ning chiqishi: ijrochilar sahna o‘ng tomoning har bir pardasi orqasidan 1 tadan va chap tomondagi 1- va 2-parda orqasidagi “paxta” qatorlari orqasidan bir-birlariga qarab, yaqinlashmasdan to‘xtaydilar, so‘ng tomoshabinga qarab 2 ta pastki burchakka sahna orqa tomoni yo‘nalishida 2 ta qiya yo‘l bilan

harakatlanadi; eng birinchi chiqqan “terimchi” chap tomondagi qiya yo‘lga o‘tib oladi. Oyoq harakati “rasmiy ufori”, qo‘l harakati “bag‘baqa silash”, o‘ng oyoq va o‘ng qo‘ldan bajariladi. Oxirgi sanoqqa hamma “terimchi”lar “paxta” harakatini 6-harakatda bajaradi.

25-takt Harakat joyida bajariladi, oyoq 6-holatda, o‘ng oyoq bilan urg‘u beriladi, shu vaqtning o‘zida qo‘llar “novda egilishi” harakatini bajaradi (o‘ngga, chapga).

26-takt Hamma “terimchi”o‘ng oyoq uchida o‘ng tomonga aylanadi; qo‘llar 3-holatga (o‘ng qo‘l yuqorida) o‘tadi.

27-29-taktlar Ijrochilarning o‘tish tartibi: 1-“terimchi” chapga qayrilib soat mili yo‘nalishi bo‘ylab 1-qator “paxta”larning 2- va 3-qizlarini aylanib o‘tadi. 2-“terimchi” o‘ngtomonga qayrilib soat miliga qarama-qarshi yo‘nalishda 1-qatorning 4-5-qizlarini aylani bo‘tadi. 3-“terimchi” o‘ng tomonga aylanib soat miliga qarama-qarshi yo‘nalib 3-qatorning 1- va 2-qizlarini aylanib o‘tadi. 4-“terimchi” chapga aylanib soat miliga qarama-qarshi yo‘nalib 3-qatorning 6- va 5-qizlarni aylanib o‘tadi. 5-“terimchi” o‘ngga qayrilib soat mili yo‘nalishi bo‘yicha 4-qatorning 3-ijrochisini aylanib o‘tadi. 6-“terimchi” chapga qayrilib soat miliga qarama-qarshi yo‘nalishda 4-qatorning 5-ijrochisini aylanib o‘tadi. Oxirgi taktning so‘ngida “terimchilar” kichkina aylana hosil qilib aylana markaziga qarab qoladilar, oyoqlar rasmiy holatda, aylana markazida “paxta”larning 2-qatordagi 4-ijrochisi qoladi.

30-takt Joyida. Oyoqlar 2-holatga keladi, o‘ng oyoq chap oyoq oldida ko‘ndalang, bir taktning o‘zida o‘ng qo‘l belni oldidan quchadi, chap qo‘l 1-holatda qoladi.

31-takt O‘ng oyoq uchida o‘ng tomonga aylanish,o‘ng qo‘l keskin harakat bilan 6- va 1-holatlar orqali 2-holatga ko‘tariladi. (3-holat). Oxirgi sanoqqa “terimchilar” qo‘llarini 1-holat darajasida ushlaydilar. Yuzlari aylana yo‘nalishi bo‘yicha qaraydi.

32-35- “Terimchilar” chap oyoqdan “rasmiy ufori” harakati bilan soat mili

taktlar yoʻnalishi boʻyicha aylana boʻylab yuradilar, qoʻl harakati oʻzgarmaydi.
36-38-taktlar “Terimchilar” yana avvalgi 2 ta qiya yoʻlga tarqalishib ketadilar (oʻng qiya yoʻl oʻng burchakdan sahna orqasigacha, chap qiya yoʻl chap burchakdan sahna orqasigacha). Hamma ijrochilar ketayotgan tomonlariga qarab ketadilar.

Harakatlar tartibi:

1-“terimchi” oʻngga qayrilib, “paxta”larning 1-qatordagi 3-, 2-ijrochilarini soat mili yoʻnalishi boʻyicha aylani boʻtadi;

2-“terimchi” chapga qayrilib, “paxta”larning 1-qatordagi 4-, 5-ijrochilarini soat milining yoʻnalishiga qarshi aylanib oʻtadi;

3-“terimchi” oʻngga qayrilib, “paxta”larning 2-qatordagi 3-, 2-ijrochilarini soat mili yoʻnalishi boʻyicha aylanib oʻtadi;

4-“terimchi” chapga qayrilib, “paxta”larning 2-qatordagi 5-, 6-ijrochilarini soat miliga qarshi aylanib oʻtadi;

5-“terimchi” chapga qayrilib, “paxta”larning 3-qatordagi 3-, 2-ijrochilarini soat mili boʻyicha aylanib oʻtadi;

6-“terimchi” oʻngga qayrilib “paxta”larning 3-qatordagi 4-, 5-ijrochilarini soat miliga qarshi aylanib oʻtadi.

Oyoq harakati oʻng oyoqdan boshlab, “rasmiy ufori”; qoʻl harakati “bagʻbaqa silash”, oʻng va chap qoʻldan. Oxirgi sanoqqa hamma “terimchilar” tomoshabinga qarab qayrilib, oyoqlar 2-holatga, oʻng oyoq chap oyoqqa koʻndalang keladi. Qoʻllar 1-holatda.

39-takt Oyoqlar holatini oʻzgartirmaydi; oʻng qoʻl oldidan belni quchadi, chapqoʻl 1-holatda qoladi.

40-takt Joyida aylanish: hamma “terimchilar” oʻng tomonga oʻng oyoq uchida – toʻliq aylanish bajaradilar, oʻng qoʻl 2-holatga keskin koʻtariladi (3-qoʻl holati).

41-42-taktlar Oyoqlar 2-holatda, oʻng oyoq chap oyoqqa koʻndalang. Qoʻllar tushirilgan qoʻldasta tersi bilan bagʻbaqaga yaqinlashadi, soʻng 6- 1-, 2-holatlar orqali yuz oldida “qoʻli band” harakatiga yopiladi va bosh

oldinga egiladi. Oxirgi sanoqqa tinish.

43-44-taktlar Hamma “terimchilar” “qiyg‘ir bo‘yin” harakatini bajarib turib, boshlarini ko‘taradi, qo‘llar o‘sha holatdan gavdadan uzoqroqda 6-holat darajasiga tushadi.

45-49-taktlar Hamma “terimchilar” “rasmiy ufori” harakati bilan “paxta”larning 2-qatori o‘rtasiga yo‘nalish bo‘ylab qarab keladi. Chap qo‘l bilan etakni ushlab, o‘ng qo‘l bilan “paxta terish” tasvirlanadi (paxta terib etakka solinadi). Gavda va bosh ozgina oldinga egiladi.

Harakat tartibi:

1-“terimchi” chapga qayrilib, “paxta”larning 3-, 2-ijrochilarini soat mili bo‘yicha aylanib o‘tadi;

2-“terimchi” o‘ngga qayrilib, “paxta”larning 1-qatordagi 4-, 5-ijrochilarini soat miliga qarshi yo‘nalishda aylanib o‘tadi;

3-“terimchi” o‘ngga qayrilib, “paxta”larning 3-qatordagi 1-, 2-ijrochilarini soat mili bo‘yicha aylanib o‘tadi;

4-“terimchi” chapga qayrilib, “paxta”larning 3-qatoridagi 6-, 5-ijrochilarini soat miliga qarshi aylanib o‘tadi;

5-“terimchi” o‘ngga qayrilib, “paxta”larning 4-qatordagi 3-ijrochini soat mili bo‘yicha aylanib o‘tadi;

6-“terimchi” chapga qayrilib, “paxta”larning 4-qatordagi 5-ijrochini soat miliga qarshi aylani bo‘tadi. Oxirgi taktning so‘ngida “terimchilar” kichkina aylana hosil qilib, aylanaga qarab, oyoqlar rasmiy holatda qoladi. “Terimchilar” aylanmasi markazida, “paxta”lar 2-qatorining 4-ijrochisida qoladi.

50-takt Etakni ikki qo‘l bilan ushlab, “terimchilar”, paxta to‘kish harakatini bajaradilar. Oxirgi sanoqqa “terimchilar” tezda tomoshabinga burilib oladilar.

51-53-taktlar Aylananing o‘ng tomonidagi 3 ta “terimchilar” o‘ng tomonga, o‘ng oyoq bilan oddiy qadam bilan aylanadi, shu vaqtda aylananing chap tomonidagi 3 ta “terimchi” chap tomonga chap oyoq bilan aylanadi,

keyin hamma “terimchilar” sahnaning pastki burchaklaridan sahnaning orqasigacha 2 ta qiya yo‘lga tarqalib ketadi. Qo‘llar 1- va 2-holatlar orqali yuz oldida “qo‘liband” harakatiga yopiladi, bosh sekingina oldinga egiladi.

O‘tish tartibi: toq sonli “terimchilar” o‘ng tomonga qayrilib, o‘ng qiya yo‘l bilan yurib, tomoshabinga qarab bitta aylanish bilan oyoqlar rasmiy holatda qoladilar. Juft sonli “terimchilar” chap tomonga qayrilib, chap qiya yo‘l bo‘yicha qarab borib, tomoshabinga qarab bitta aylanish bilan oyoqlar rasmiy holatda qoladilar.

54-takt Qo‘llar holatini o‘zgartirmasdan, 6-holat darajasiga tushirib, bosh asta-sekin to‘g‘rilanib, “qiyg‘ir bo‘yin” harakati bajariladi.

55-59-taktlar “Rasmiy ufori” oyoq harakati bilan hamma “terimchilar” “paxta”larning 2-qatorining o‘rtasiga keladilar. Chap qo‘l ko‘ylak etagini ushlaydi, o‘ng qo‘l paxta terimini tasvirlovchi harakat qiladi, gavda va bosh ozgina oldinga egiladi.

O‘tish tartibi:

1-“terimchi” chapga qayrilib, soat mili bo‘yicha “paxta” 1-qatorining 3-, 2-ijrochisini aylanib o‘tadi;

2-“terimchi” o‘ngga qayrilib, soat miliga qarshi “paxta” 1-qatorining 4-, 5-ijrochisini aylanib o‘tadi;

3-“terimchi” o‘ngga qayrilib, soat mili bo‘yicha “paxta” 3-qatorining 1-, 2-ijrochisini aylanib o‘tadi;

4-“terimchi” chapga qayrilib, soat miliga qarshi “paxta” 3-qatorining 6-, 5-ijrochisini aylanib o‘tadi;

5-“terimchi” o‘ngga qayrilib, soat mili bo‘yicha “paxta” 4-qatorining 3-ijrochisini aylanib o‘tadi;

6-“terimchi” chapga qayrilib, soat miliga qarshi “paxta” 4-qatorining 5-ijrochisini aylanib o‘tadi.

So‘nggi takt oxirida “terimchilar” kichkina aylana hosil qilib, aylanaga qarab qoladilar, oyoq rasmiy holatda bo‘ladi. “Terimchilar” aylanasing

markazida “paxta”lar 2-qatorining 4-ijrochisi qoladi.

60-takt “Terimchilar” ikkala qo‘l bilan etakni ushlab, paxtani to‘kishni tasvirlovchi harakatni bajarishadi. Oxirgi sanoqqa “terimchilar” tezda tomoshabin tomonga qaraydilar, oyoqlar rasmiy holatda, qo‘llar 3-holatda, o‘ng qo‘l yuqorida qoladi.

61-62-taktlar “Terimchilar” aylanasi bitta to‘g‘ri chiziqqa ochilib, sahna oldiga yo‘nalish bo‘yicha qarab, “paxtalar” orasidan yugurib o‘tadilar. Oyoq harakati “rasmiy ufori”, o‘ng oyoqdan boshlanadi, qo‘l harakati “uzum uzish” holatida.

63-64-taktlar “Rasmiy ufori” harakati bilan “terimchilar” sahna oldiga kelib, katta oraliq masofada turib, qo‘llar “novda egilish” harakatini bajaradilar. Oxirgi sanoqqa oyoqlar rasmiy: chap qo‘l belni oldidan quchadi, o‘ng qo‘l 6-holatda, kafti o‘ziga qaragan, barmoqlar chapga bo‘ladi.

65-takt O‘ng oyoq uchida o‘ng tomonga bir aylanish, shu vaqtda o‘ng qo‘l zarb bilan 1-holat orqali 2-holatga ko‘tariladi, chap qo‘l belda qoladi.

66-takt Chap oyoq uchida chapga bir aylanish, shu vaqtda o‘ng qo‘l belni oldidan quchadi, chap qo‘l 6-, 1-holatlar orqali zarb bilan 2-holatga ko‘tariladi.

67-68-taktlar 65-66-taktlar harakatlari takrorlanadi.

69-takt O‘ng oyoq uchida o‘ng tomonga joyida bir yarimta aylanib, tomoshabinga orqasi bilan qoladi, o‘ng qo‘l zarb bilan 6-, 1-holatlar orqali 2-holatga chiqadi.

70-73-taktlar “Xirmon”da paxta yig‘ish tasvirlanadi. “Terimchilar” yon yurish bilan yarim aylanaga soat miliga qarshi yurishadi. (“paxta” 2 ta aylanada, katta va kichik “paxta”lar “terimchilar” atrofidan o‘tadi). Oyoq harakati “rasmiy ufori”, o‘ng oyoqdan boshlab yuriladi. Qo‘llar har bir taktning “bir” sanog‘iga rasmiy holatdan urg‘u bilan yuqoriga ko‘tariladilar, paxtalarni tashlayotgandek “ikki” sanog‘iga rasmiy holatga qaytadilar; “uch-to‘rt”ga harakat qaytariladi. Chap pastki burchakdagi “terimchi”







yurishni boshlaydi, uning ortidan qolganlari ketadi.

74-76-taktlar “Terimchilar” yarim aylanadan o‘tganlaridan keyin, yana yon yurish bilan sahna oldiga keladilar, tomoshabinga orqalari bilan qoladilar. Oyoq harakati “rasmiy ufori”, qo‘llar 3-holatda, chap qo‘l yuqorida bo‘ladi. Oxirgi sanoqqa o‘ngga qayrilib, tomoshabinga qarab, oyoqlar rasmiy holatga keladi, qo‘llar 1-holatga ochiladi.


77-takt O‘ng oyoq uchida, o‘ng tomonga joyida bitta aylanib, “terimchilar” chap tizzaga o‘tiradilar, o‘ng oyoq chap tizza yoniga to‘liq keladi. Shu vaqtda qo‘llar 2-holat orqali kaftlar bilan o‘ng tizzaga tushadi, o‘ng kaft chap kaft ustiga tushadi, barmoqlar yon tomonga yo‘nalgan bo‘ladi.

78-takt “Terimchilar” turadilar, oyoqlar 2-holatga, o‘ng oyoq chap oyoqqa ko‘nadalang turadi, shu vaqtda qo‘llar “gulbargi” 6-holatda, barmoqlar qarsillatishi bilan, oldindan 2-holatga va 1-holatga ochiladi; takt yakunida o‘ng qo‘l oldindan belni quchadi, chap qo‘l 1-holatda qoladi.


79-takt “Yon yo‘rg‘a” harakati bilan joyida o‘ng tomonga o‘ng oyoq bilan 2 marta aylanish, qo‘llar o‘zgarmaydi.

	
1- ҚИСМ. 1-66 ТАКТЛАР	2- ҚИСМ. «А», «Б». 1-22 ТАКТЛАР
	
2- ҚИСМ. «А», «Б». 23-26 ТАКТЛАР	2- ҚИСМ. «А», «Б». 27-31 ТАКТЛАР
	
2- ҚИСМ. «А», «Б». 32-40 ТАКТЛАР	2- ҚИСМ. «А», «Б». 41-50 ТАКТЛАР


“ПАХТА”




2- ҚИСМ. «А», «Б». 51-54 ТАКТЛАР




2- ҚИСМ. «А», «Б». 61-64 ТАКТЛАР




2- ҚИСМ. «А», «Б». 65-68 ТАКТЛАР
(ТУТАШИ.)



2- ҚИСМ. «А», «Б». 55-60 ТАКТЛАР




2- ҚИСМ. «А», «Б» 65-68 ТАКТЛАР
(БОШЛАНИШИ)




2- ҚИСМ. «А», «Б» 69 ТАКТ


“ПАХТА”



2- ҚИСМ. «А», «Б». 70-73 ТАКТЛАР



2- ҚИСМ. «А», «Б». 74-76 ТАКТЛАР



2- ҚИСМ. «А», «Б». 77-79 ТАКТЛАР

ПАХТА

Ю.Ражабий мусиқаси




The image displays a page of musical notation, likely for a piano or violin, featuring ten staves in treble clef. The key signature is two sharps (F# and C#). The notation includes various note values, rests, and dynamic markings. The first staff begins with a treble clef and a key signature of two sharps. The second staff contains a series of eighth notes followed by a rest. The third staff shows a sequence of eighth notes. The fourth staff features a series of eighth notes followed by a rest. The fifth staff contains a series of eighth notes followed by a rest. The sixth staff shows a series of eighth notes followed by a rest. The seventh staff features a series of eighth notes followed by a rest. The eighth staff contains a series of eighth notes followed by a rest. The ninth staff shows a series of eighth notes followed by a rest. The tenth staff features a series of eighth notes followed by a rest. The notation is written in a standard musical notation style with a treble clef and a key signature of two sharps.



ЗАФАР

Д. Соатқулов мусиқаси





4-Mavzu. “JONON” raqsi

Musiqqa o‘lchovi 2/4.

Xalq cholg‘u asboblari orkestri jo‘rligida ijro etilgan.

Libos: Iroqi do‘ppi, qora baxmal jiyakli.

Oq ko‘ylak, uzun, krepdeshin, ko‘krak burma, uzun yengli, etagi kengaytirilgan, qora baxmal uzun yengil kamzul, parchadan gul yopishtirilgan. Etak tomoniga sariq parchadan xoshiya tikilgan, yenglarida ham sariq parchadan gullar tikilgan va lozimi xonatlasdan, jiyagi parchadan.

O‘rtacha poshnali qora tufli.

Bezaklar: marjon, zirak, bilakuzuk.

Raqs harakatlari Farg‘ona uslubida

1 shakl. Musiqqa № 1. 20 takt

A. Chiqish.

1-2-3- Musiqqa chalinadi.

taktlar

4-takt Raqqosa sahnaning uchinchi yon pardasidan tomoshabinga orqasi bilan chiqib, chapga “rasmiy ufori” bilan aylanib rasmiy holatda to‘xtatadi (bir “i”ga chap oyoq, ikki “i”ga o‘ng oyoqdan). Qo‘llar birinchi holatdan “qo‘lband” holatida. Bu holatda boshni oldinga egib, qo‘llar bilan yopiladi.

5-takt “Qaychi” harakat bilan raqqosa orqa sahna markaziga tomoshabinga orqa
bir bilan yoni bilan yuradi: chap oyoq uchi va o‘ng oyoq tovonini yerdan biroz ko‘tarilib, chapga olib tovonlar bir-biriga tegadigan qilib harakatlanadi.
i O‘ng oyoq uchi va chap oyoq tovonini yerdan ko‘tarilib, chapga olinib, oyoq uchlari bir-biriga tegishi shart.

“Biri” ga harakatlar takrorlanadi. Bosh va qo‘llar takt davomida holatini
ikki i o‘zgartirmaydi.

6-10- 5-takt harakatlari besh marta takrorlanadi, orqa sahna markazida

- taktlar** tomoshabinga orqasi bilan turiladi.
- 11-takt** “Qaychi” harakati bilan yonlama o‘ng tomonga ikki marta yuriladi. bir “i” ga qo‘llar ikkinchi holatdan keyin birinchi holatga ochiladi, ikki “i” ga esa ikkinchi holatga ko‘tariladi, bosh birinchi holatda turadi.
- 12-takt** Chapga yonlama harakat bilan 11-takt harakatlari qaytariladi. Qiya chiziq yo‘nalishi bo‘yicha o‘ng va chap quyi burchaklarga borib, qaytadi.
- 13-14-taktlar** 4 marta “rasmiy ufori” harakati chapga burilish bilan quyi o‘ng burchakka qiya chiziq yo‘nalishi: bo‘yicha boriladi. O‘ng qo‘l 6-holatda, kaft yuqoriga qaragan, barmoqlar erkin, chap qo‘l 1-holatda.
- 15-takt** Ikki marta “rasmiy ufori” harakati ta’zim bilan orqaga qaytiladi. O‘ng qo‘l ko‘ksiga qo‘yilib, chap qo‘l rasmiy holatga keltradi. Tomoshabinga qarab qoladi.
- 16-18-taktlar** 13- 15-taktlar harakatlaridagi quyi chap burchakka borib qaytish takrorlanadi.

V. Harakatlar joyida ijro etiladi.

- 19-takt** O‘ng oyoq uchida o‘ng tomonga bir yarimta to‘liq aylanish. Qo‘llar 3-holatga o‘tadi, o‘ng qo‘l yuqorida. Tomoshabinga orqasi bilan turadi. Takt oxirida qo‘ldastalar birlashtiriladi, kaftlar pastga qaraydi, barmoqlar yon-yonga, o‘ng qo‘ldasta chap qo‘ldasta ustida.
- 20-takt** O‘ng oyoq 2-holatda urg‘u bilan qo‘yiladi. Qo‘ldastalar 19-takt
bir holatida oldinga cho‘ziladi.
- i** Qo‘llar o‘sha holatning o‘zida “o‘ziga” tortiladi.
- ikki i** “Bir i” harakatlari takrorlanadi.

2-shakl. Musiqi № 2. 20 takt

A. Sahna oldi markaziga tomoshabinga orqa bilan yurish. Oyoq harakati “oqsatma”, qo‘l harakati “bag‘baqa silash”.

- 1-takt** O‘ng oyoq uchi bilan orqaga urg‘u bilan qadam qo‘yiladi. O‘ng qo‘ldasta
bir tersi bilan iyakka yaqinlashadi, chap qo‘l 1-holatga ochiladi.
- i** Chap oyoq to‘lig‘i bilan o‘ng oyoq oldiga sirpanib keladi. Shu vaqtning

o‘zida o‘ng qo‘ldasta o‘ng tomonga iyak tagidan o‘tadi. Gavda va bosh orqaga o‘ngroqqa salgina egiladi.

ikki i “Bir i” dagi oyoq harakati takrorlanadi. O‘ng qo‘l 1-holatga ochiladi, kafti yuqoriga qaraydi.

2-takt 1-takt harakatlari gavda va boshning orqaga chaproqqa egilishi bilan takrorlanadi. “Bag‘baqa silash” harakati chap qo‘ldan ijro etiladi.

3-8-taktlar 1-2-taktlar harakatlari uch marta takrorlanadi va tomoshabinga orqa bilan qoladi.

9-takt Joyida. O‘ng tomonga o‘ng oyoqdan qadam qo‘yib ikkala oyoq uchida bir yarimta to‘liq aylanish. Qo‘llar 3-holatda, o‘ng qo‘l yuqorida. Tomoshabinga qarab qoladi. Takt oxirida qo‘ldastalar birlashib, kaftlar pastga qaraydi, barmoqlar yon-yonga, o‘ng qo‘ldasta chap qo‘ldasta ustida.

10-takt bir Joyida. Oyoq 2-holatda. Qo‘ldastalar ajralmagan holda oldinga cho‘ziladi.

i Qo‘llar shu holatda o‘ziga tortiladi.

ikki i “Bir i” harakatlari takrorlanadi.

B. Sahna markaziga orqa bilan yuzi tomoshabinga qarab yurish. Oyoq harakati “nuqtali yurish”. Gavda va bosh ozgina oldinga intilgan.

11-takt bir i O‘ng oyoq uchidan orqaga qadam qo‘yiladi, tizzalar erkin holatda, qo‘llar 2-holat darajasida, qo‘ldastalar bir-biriga qarab birlashadi, barmoqlar yon-yonga qaragan, o‘ng qo‘ldasta chap qo‘ldasta ustida. Gavda oldinga orqaga o‘ng tomonga kichik burilishi bilan to‘lg‘onadi.

ikki i O‘ng oyoq to‘liqqa tushadi.

12-takt 11-takt harakatlari chap oyoqdan boshlab takrorlanadi, qo‘ldastalar mayingina joyini almashtiradi. Gavda “bir i” ga orqag aoldinga chapga kichik burilish bilan to‘lg‘onadi.

13-14-taktlar 11-12- taktlar harakatlari takrorlanadi.

- 15-takt** Oyoq uchlarida orqaga qadam tashlanadi, tizzalar erkin, gavda ozroq
bir i oldinga o‘ngga burilish bilan orqaga chayqalishga jo‘r bo‘ladi.
ikkii O‘ng oyoq to‘liqqa tushuriladi.

V. Chap yelka bilan qiya chiziq bo‘yicha quyi chap burchakka yuradi, oyoqlar “yon yo‘rga” harakatini ijro etadi.

- 16- takt** O‘ng oyoq to‘lig‘i bilan ozroq o‘tirish bilan chapga qadam tashlanadi.
bir Chap oyoq uchi o‘ng oyoq orqasiga qo‘yiladi, o‘ng qo‘l birinchi holatga
i ochiladi, chap qo‘l birinchi va oltinchi holatdan keyin qo‘ldasta tersi bilan iyakka keladi.
ikki i “Bir i”ga oyoqlar harakati qaytariladi, chap iyak bo‘ylab “bag’baqa silash” harakati ijro etiladi.
17-18- taktlar Ikki marta 16- takt harakatlari qaytariladi. Chap qo‘l ikki takt davomida ohista birinchi holatga qo‘ldastalar tepaga qilib ochiladi, o‘ng qo‘l shu holatda turaveradi. Oyoqlar oltinchi holatda qoladi, chap oyoq uchida.

G. Chap tomonga to‘liq “chalmashli tepib aylanish” ijro etiladi.

- 19-takt** Chap oyoq o‘ng oyoq oldiga oyoq uchida urg‘u bilan keladi, tizzala
bir rbukiladi, qo‘llar “gulbargi” harakatida kesishadi.
i O‘ng oyoq sirpantirib oyoq uchiga qo‘yiladi.
ikki i “Bir i”ga harakatlar takrorlanadi, shu bilan birga qo‘llar birinchi holatga keladi.
20-takt 19- takt harakatlari takrorlanadi, aylanish tugallanib, tomoshabinga qarab qoladi, oyoqlar rasmiy holatda: qo‘llar takt davomida 1- holatda qoladi.
 Ikkita takt davomida “chalmashli tepib aylanish” harakati to‘rt marta ijro etiladi.

3 – shakl. Musiqa № 3. 17 takt

“Kichik avj”. Sahna oldidan o‘ng pastki burchakka aylanish bilan borish.

- 1-takt** O'ng oyoq uchidan yarim aylanish bilan qadam qo'yiladi,
- bir i** tomoshabinga orqasi bilan qoladi. Chap oyoqning tizzasi bukilib, poldan oyoq uchi to'piqqacha ko'tariladi. O'ng qo'l chap tomondagi 5- holat orqali salgina silkinib 2- holatga ko'tariladi, chap qo'l 1- holatda qoladi (3- qo'l holati)
- ikki i** Oyoq uchida chap, o'ng va yana chap oyoqqa o'tib, o'ngga burilib tomoshabinga qaraydi, o'ng qo'l 1- holatga ochiladi.
- 2-3-taktlar** 1-takt harakatlari 2 marta takrorlanadi.
- 4- takt** Joyida. Oyoqlar 6- holatga, chap oyoq uchida, tizzalar bukiladi. O'ng qo'l 1-2-holat orqali yuz oldidan ko'ksigacha tushadi, kafti pastga, barmoqlari chapga qaragan (chap tomondagi 5- holat).Takt oxirida kichik tinish.
- 5- takt** Joyida. Oyoqlar holati o'zgarmaydi. O'ng qo'ldasta titratma harakat
- bir i** bilan oldinga cho'ziladi.
- ikki i** O'ng qo'ldasta titratmasiz mayingina joyga qaytadi. Gavda o'ng qo'l harakatini oldinga – orqaga to'lqinlanib kuzatadi (“yurak toshqini” harakati).
- 6- takt** 5- takt harakatlari qaytariladi.
- 7-12- taktlar** Pastki o'ng burchakka yurish harakatlari davom etadi – 1-6- taktlar harakatlari takrorlanadi.
- 13-15- taktlar** O'ng oyoqdan o'ng tomondagi past burchakka tomoshabinga qarab “yon yo'rg'a” harakati davom etadi. 13- taktga o'ng qo'ldasta tersi bilan iyak tagidan o'tadi va 14-15- taktga 1-holatga ochiladi, chap qo'l 1-holatda qoladi.
- 16- takt** Joyida. Oyoqlar 6- holatda, chap oyoq uchida, bir vaqtning o'zida 6- holatda qarsak, gavda salgina chapga buriladi.
- bir i**
- ikki** Qo'llar qarsakdan 3- holatga ochiladi, chap qo'l yuqorida, oyoqlar 2- holatga o'tadi, gavda tomoshabinga qarab buriladi.
- i** Qo'ldastalar o'z oldida pastga qaragan holatda birlashadi, barmoqlaryon-yongaqaraydi, o'ngqo'ldastachapqo'ldastaustida.

- 17-takt** O'ng oyoq tizzasi bukilib, oyoq uchi to'piqqacha ko'tariladi,
bir qo'ldastalar holatni o'zgartirmasdan o'ziga tortiladi.
i Rasmiy holatda o'ng oyoq to'lig'i bilan urg'u beradi, tizza keskin rostlanadi, qo'llar o'zidan to'g'riga cho'ziladi .
ikki i "Bir i" harakatlari takrorlanadi.

4-shakl. Musiqa № 4. 20 takt

A. Qiya chiziq bo'ylab sahna markaziga yonlama yurish.

- 1-takt** O'ng oyoqdan chapga chalmashli qadam, chap oyoq to'voni biroz
bir ko'tariladi, o'ng qo'l 1-holatga ochiladi, chap qo'ldasta tersi bilan yuzning chap tomonini berkitadi. Bosh pastga chaproqqa buriladi, gavda ozgina chapga engashadi.
i Tinish.
ikki i Chap-o'ng, chap oyoq uchlarida chapga qadam qo'yib yurish. Chap qo'l 6-holat orqali 1-holatga ochiladi, o'ng qo'ldasta tersi bilan yuzning chap tomonini berkitadi, gavda va bosh salgina chapga engashadi, yuz o'ng tomonga burilgan.

2- 8-taktlar 1-takt harakatlari 7 marta takrorlanadi.

B. Joyida chapga bir chorak aylanish bilan "chalmashli tepib aylanish" harakati.

- 9-takt** O'ng oyoq orqasiga chap oyoq uchi urg'u bilan keladi, tizzalar
bir bukilib, qo'llar "gulbargi" harakatiga keladi, kaftlari o'ziga qaragan.
i O'ng oyoq to'voni o'ng tomonga sirpanib chiqadi.
ikki i "Bir i" harakati takrorlanadi, qo'llar 1-holatga ochiladi.
10-takt 9-takt oyoq harakati takrorlanadi. Chapga aylanib, oxirgi sanoqqa tizzalar rostlanadi. Takt davomida qo'llar 1-holatda bo'ladi, tomoshabinga qarab qoladi, oyoqlar rasmiy holatda.

V. Sahna markazida aylanishlar bilan yonlama harakatlar.

- 11-takt** O'ng oyoqdan o'ng tomonga qadam qo'yib to'liq aylanish. Qo'llar 1-holatda. O'ng tomondagi pastki burchakka qarab qoladi, oyoqlar 6-holatda, chap oyoq uchida.
- 12-takt** Harakat joyida bajariladi.
- bir** 6-holatda sirpanma qarsak, o'ng qo'l chap qo'l ustidan sirpanadi.
- i** Chap qo'l o'ng qo'l ustidan yana sirpanma qarsak. Qarsakdan qo'llar 3-holatga keskin ochiladi. O'ng qo'l yuqorida, qo'ldastalar yarim musht holiga o'tadi.
- ikki** 6-holatda yarim o'tirish, chap oyoqu chida.
- i** Tinish.
- 13-takt** Harakat yarim o'tirish holida ijro etiladi.
- bir i** Gavda mayin oldinga to'lqinlanadi, qo'llar 3-holatda, o'ng qo'l yuqorida.
- ikki i** Gavda mayin orqaga to'lqinlanadi.
- 14-takt** 13-takt harakatlari tizzalar rostlangan holatda takrorlanadi.
- 15-takt** Chap oyoqdan chap tomonga qadamli to'liq aylanish bilan harakat (sahna markazidan chaproqqa), qo'llar 1-holatga o'tadi. Chap tomondagi pastki burchakka qarab qoladi, oyoqlar 6-holatda, o'ng oyoq uchiga qo'yiladi.
- 16-takt** Harakat joyida ijro etiladi.
- bir** 6-holatda sirpanma qarsak, chap qo'l o'ng qo'l ustidan sirpanadi.
- i** Qarsak o'ng qo'ldan takrorlanadi, qo'llar qarsakdan 3-holatga keskin ochiladi, chap qo'l yuqorida, qo'ldastalar yarim musht holatiga o'tadi.
- ikki** 6- oyoq holatida yarim o'tirish, o'ng oyoq uchiga qo'yiladi.
- i** Tinish.
- 17-takt** Harakat yarim o'tirish holatida ijro etiladi.
- bir i** Gavda mayin oldinga to'lqinlanadi, qo'llar 3-holatda qoladi, chap qo'l yuqorida.
- ikki i** Gavda mayin orqaga to'lqinlanadi.

- 18-takt** 17-takt harakati tizzalar rostlangan holatda takrorlanadi.
- 19-20-taktlar** Sahna markaziga yonlanma harakat – o‘ng oyoqdan o‘nga to‘rtta “yon yo‘rg‘a” harakat ijro etiladi. Bir vaqtning o‘zida chap qo‘l 1-holatga ochiladi, o‘ng qo‘l “bag‘baqa silash” harakatini ijro etadi va sekin-asta 1-holatga ochiladi, tomoshabinga qarab qoladi, oyoqlar 2-holatda.

5-shakl. Musiqa № 5. 27 takt. “Katta avj”

- 1-4-taktlar** Sahna oldi markaziga o‘ng tomonga aylanish bilan keladi – o‘ng oyoqdan sakkizta qadamli aylanish, qo‘llar 1-holatda, sahna oldi markazida tomoshabinga qarab qoladi, oyoqlar rasmiy holatda.
- 5-takt** Oyoqlar 6-holatda chap oyoq uchida tizzalar bukiladi, gavda va bosh oldinga mayin engashadi, qo‘llar tizzaga tushadi, qo‘ldasta kaftlari “o‘ziga” qaratiladi, barmoqlar erkin holatda.
- 6-takt** Oyoqlar rasmiy holatga keladi, tizzalar, gavda va bosh rostlanadi. Katta va o‘rta barmoqlar birlashib, kaftlari to‘g‘riga qaragan holda 2-holatga ko‘tariladi.
- 7-10-taktlar** Oyoqlar rasmiy holatda, qo‘llar yelkadan tirsakkacha “titratma” harakatini 2-holatda ijro etadi.
- 11-12-taktlar** Oyoqlar 2-holatga o‘tadi, o‘ng qo‘l 7-holatga, chap qo‘l ko‘ksi ro‘parasiga keladi.
- 13-16-taktlar** Joyida. Chapga to‘rtta to‘liq aylanish yarim qaychi oyoq harakati bilan, tomoshabinga qarab qoladi. Aylanish vaqtida chap qo‘l sekin-asta 1-holatga ochiladi, oxirgi sanoqqa oyoqlar 6-holatga o‘tadi, chap oyoq uchiga qo‘yiladi, tizzalar bukiladi, qo‘llar chap tomonga 5-holatga kaftlar pastga qaragan holatga keladi.
- 17-takt** Oyoq harakati o‘zgarmaydi, qo‘l harakati “yurak toshqini”.
- bir i** O‘ng qo‘ldasta mayda titratma bilan oldinga cho‘ziladi, chap qo‘l 1-holatda qoladi.

- ikki i** O'ng qo'l joyiga mayin quyiladi, chap qo'l 1-holatda qoladi, gavda takt davomida oldinga - orqaga to'ldirilganib turadi.
- 18-takt** Qo'llar 17-takt harakatini takrorlaydi, bir vaqtning o'zida ijrochi chap tizzaga o'tiradi.
- 19-takt** Harakat chap oyoqda o'tirib ijro etiladi. Chap qo'l 1-holatda, o'ng qo'lning katta va o'rta barmoq uchlari birlashib labga yaqinlashadi, qo'ldastalar uch – to'rt marta mayda titratma bilan “o'ziga, o'zidan tashqariga” harakatini ijro etadi, bir vaqtning o'zida gavda va bosh oldinga engashadi.
- 20- takt** O'ng qo'ldasta o'zidan tashqariga aylantirilib, kaft to'g'riga qaraydi va tersi bilan peshonaga qo'yiladi, gavda va bosh ozgina orqaga egiladi.
- 21-takt** O'ng qo'l 1- va 6-holatlar orqali o'tib, belni oldidan quchadi, chap qo'l 1-holatda qoladi, gavda va bosh o'ngga egiladi, takt oxirida kichik tinish.
- 22-25-taktlar** Ijrochi sekin-asta o'rnidan turadi, oyoqlar 6-holatga keladi, chap oyoq uchiga qo'yiladi, qo'llar holati o'zgarmaydi, bir vaqtning o'zida “yelka qoqish” harakati ijro etiladi: har taktning “bir”iga chap yelka orqaga, o'ng yelka oldinga: “ikki”ga o'ng yelka orqaga, chap yelka oldinga harakat ijro etiladi.
- 26-takt** Chap tomonga joyida “chalmashli urg'uli aylanish” oyoq harakati bilan to'liq aylanadi.
- bir** Chap oyoq uchi bilan o'ng oyoq orqasiga “urg'uli harakat” bilan qo'yiladi, tizzalar bukiladi, qo'llar “gulbargi” harakatini ijro etadi.
- i** O'ng oyoq o'ng tomonga tovoniga qo'yiladi.
- ikki i** Oyoqlar bukilgan tizzalar bilan “bir i” harakatlarini takrorlaydi, qo'llar 1-holatga ochiladi.
- 27-takt** 26-takt oyoq harakatlari takrorlanadi va chapgga aylanib tizzalar rostlanadi, qo'llar 1-holatda qoladi, takt oxirida tomoshabingga qaraydi, oyoqlar rasmiy holatda qoladi.

6-shakl. Musiqa № 6. 20 takt

A. Sahna markaziga orqasi bilan “sohta ufori” oyoq harakati bilan yurish.

- 1-takt** O‘ng oyoqdan orqaga o‘ngroqqa to‘vondan to‘liqqa qadam qo‘yiladi,
bir tizza bukiladi.
i O‘ng oyoq bukilgan tizzasi bilan o‘ng oyoq to‘voni orqasiga uchi bilan qo‘yiladi, chap qo‘l belorqasidan quchadi, o‘ng qo‘l ko‘ksi ro‘parasiga tushadi, qo‘ldastani pastga tushiradi, gavda ozgina o‘ngga bukiladi.
ikki O‘ng oyoqdan orqaga o‘ngroqqa to‘lig‘i bilan qadam qo‘yiladi, tizza rostlanadi, o‘ng qo‘ldasta o‘zidan tashqariga burilib, kafti yuqoriga qaraydi va 2-holat orqali kafti o‘ng tomonga qaratilib 1-holatga ochiladi.
i Tinish.
2-takt 1-taktdagi “sohta ufori” harakati orqaga yurish bilan takrorlanadi, harakatlanuvchi qo‘l – chap qo‘l.
3-8-taktlar 1-2-takt harakatlari uch marta takrorlanadi.
9-10-taktlar Joyida. O‘ng oyoqdan o‘ng tomonga “rasmiy ufori” harakati bilan aylanadi. Ijrochi sekin-asta qo‘li bilan sochini olib o‘zoldida ushlab turadi.

B. “Nuqtali yurish” harakati bilan sahna oldiga tomoshabinga qarab yuriladi.

- 11-takt** O‘ng oyoq uchidan oldinga qadam qo‘yiladi, gavda salgina o‘ngga
bir i buriladi, bosh ozgina chapga engashadi.
ikki i O‘ng oyoq to‘liqqa qo‘yiladi, chap oyoq uchiga qo‘yiladi, gavda og‘irligi o‘ng oyoqda.
12-takt 11-takt harakatlari chap oyoqdan takrorlanadi.
13-14-taktlar 11-12-taktlarning harakatlari takrorlanadi, oyoqlar 3-holatda qoladi, chap oyoq uchiga qo‘yiladi.
15-takt Joyida. Sochlar uchlarini ushlagan holda qo‘llar 1-holatga ochiladi, keyin o‘ng qo‘l yuz oldidan chap tomonga o‘tib, bosh tepasida

sochni ushlaydi va rasmiy holatga tushadi. Yuзи o‘ng tomondagi pastki burchakka qaraydi. Takt oxirida kichik tinish.

16-takt O‘ng qo‘l 1-holatga ochilib sochni orqaga tashlaydi, bosh o‘ng qo‘l harakatini kuzatadi. Takt oxirida kichik tinish.

17-18-taktlar 15-16-taktlarning harakatlari chap qo‘ldan takrorlanadi.


19-takt Joyida harakat davom etadi, oyoqlar 3-holatda: chap oyoq tovoniga tushadi, o‘ng oyoq urg‘u bilan uchiga qo‘yiladi, gavda va bosh ozgina oldinga engashadi.

i O‘ng tomonga chorak burilish, chap yelka tomoshabinga qaratilgan, oyoqlar 6-holatga keladi, chap oyoq uchi urg‘u bilan qo‘yiladi, qo‘llar keskin 3-holatga ochiladi, o‘ng qo‘l yuqorida, yuzi chap qo‘lga qaragan.


ikki Chap oyoq uchi urg‘u bilan o‘ng oyoq orqasiga chalmash keladi.

i O‘ng oyoq tovoniga o‘ng tomonga buriladi, bir vaqtning o‘zida chapga yarim aylanish ijro etiladi (tomoshabinga o‘ng yelka bilan), qo‘llar 3- holatda, chap qo‘l yuqoriga o‘tadi, gavda va bosh salgina o‘ngga engashadi.


20- takt Chapga “chalmashli urg‘uli aylanish” 2 marta 3 chorak aylanish bilan ijro etadi va gavda bilan bosh rostlanib tomoshabinga qarab qoladi.. Qo‘llar gulbargi harakati orqali 1-holatga ochiladi, oyoqlar rasmiy holatda qoladi. Oxirgi sanoqqa “salom” ijro etiladi: o‘ng qo‘l 6- holat orqali kafti bilan ko‘ksiga qo‘yiladi, chap qo‘l rasmiy holatga tushadi, gavda va bosh ozgina oldinga engashadi.




1-шакл, 1-12-тактлар




1-шакл, 13-18-тактлар




1-шакл, 19-20-тактлар



2-шакл, 1-10-тактлар




2-шакл, 11-20-тактлар




3-шакл, 1-17-тактлар


12




4-шакл, 1-10-тактлар




4-шакл, 11-20-тактлар



5-шакл, 1-27-тактлар



6-шакл, 1-10-тактлар



6-шакл, 11-20-тактлар

ЖАНОН

М.М. $\text{♩} = 96 - 100$ Музыка М. Мирзоева

1

2

3

4

5

6

7

8

9

10



5-Mavzu. "GULSARA" raqsi

Doira zarblari ostida ijro etiladi.

Libos: Iroqi do‘ppi, qora baxmaldan jiyaklangan, gul bosilgan.

Uzun oq ko‘ylak, bel burma, yengi kengaytirilgan uzun yengli, shifon yoki krep-jajetdan tikiladi.

Nimchasi belgacha, yengsiz. Parcha matodan tikiladi.

Xonatlasdan uzun lozim, jiyakli.

O‘rtacha poshnali oq tufli.

Bezaklar: Zirak va bilakuzuk.

Raqs harakatlari

1-shakl. Usul № 1. Musiqa o‘lchami 4/4, trez. 6 takt.

1-2-taktlar Chiqish. Raqqosa chap tomon, oxirgi yon parda orqasidan oddiy qadamlar bilan tomoshabinga qarab, sahna orqasi markazigacha chap yelka yon tomonga qaratilib chiqib keladi. Qo‘llar 1-holatda, gavda va bosh 1-holatda. Oxirgi sanoqqa ijrochi chapga burilib tomoshabinga qarab, chap oyoq 3-holatni egallaydi, qo‘llar 4-holatga o‘tadi.

3-takt Chapga joyida aylanish (“ufo shox”).

bir – ikki Bitta chap oyoqdan ufo yurish chapga yarim burilib (tomoshabinga orqasi bilan). Chap qo‘l kaftini yuqoriga qaratib, keyin urg‘u bilan 6-holat va 1-holat orqali 2-holatga, o‘ng qo‘l 1-holatga ochiladi (qo‘l 3-holatda).

uch - to‘rt O‘ng oyoqdan chapga yarim burilish bitta ufo harakati bilan (tomoshabinga qarab), yarim buriladi (o‘ng oyoq uchida 6-holatda urg‘u bilan), shu vaqtning o‘zida qo‘llar “gulbargi” xarakatiga keladi va 1-holati orqali 6-holatda qarsak. Qarsakdan birdan qo‘llar 5-holatga chap tomonga, gavda salgina chapga buriladi.

4-takt “Charx” harakati bilan sahna oldi markaziga keladi.

<i>bir</i>	O'ng oyoqdan to'liqqa oldinga kichkina qadam qo'yiladi, tizzalar erkin holatda, qo'llar 1-holatga o'tadi.
<i>ikki</i>	Chap oyoq uchi o'ng oyoq yoniga qo'yiladi, o'ng oyoq biroz ko'tarilib, o'ng tomonga to'liq aylanish ijro etadi.
<i>uch – to'rt</i>	“bir-ikki” (ikkinchi “charx”) harakati takrorlanadi.
<i>5-takt</i>	4-takt harakati takrorlanadi. Sahna oldi markazida tomoshabinga qarab, “charx” harakati ijro etiladi, oyoqlar 3-holatda, chap oyoq uchiga qo'yiladi, qo'llar o'ng tomonda 4-holatda.
<i>6-takt</i>	Joyida. “Ufori shox” – chapga aylanish.
<i>bir – ikki</i>	Chapga yarim aylanish bilan bitta “ufori qadam” (tomoshabinga orqasi bilan), bir vaqtning o'zida chap qo'l kafti yuqoriga qaratilib, keskin harakat bilan 6- va 1-holatlar orqali 2-holatga va o'ng qo'l 1-holatga tushib, qo'llar 3-holatda qoladi.
<i>uch – to'rt</i>	O'ng oyoqdan bitta “ufori qadam” bilan chap yarim buriladi (tomoshabinga qarab), oyoqlar 6-holatda, chap oyoq uchida: shu vaqtning o'zida qo'llar “gulbargi” harakatiga kelib, 3-holatga ochiladi, o'ng qo'l yuqorida.

2-shakl. Usul № 2. Musiqqa o'lchami 4/4

A. O'ng tomonga bitta to'liq aylanish, 1 takt.

<i>1-takt</i>	6-holatda chap oyoq uchi urg'u bilan qo'yiladi, o'ng oyoq to'voni
<i>bir</i>	chapga burilib, bir paytda o'ngga chorak aylanadi. Qo'llar o'ng tomonga 4-holatga o'tadi, barmoqlar qirsillatiladi va qirsillatishi bilan qo'ldasta keskin ijrochiga kafti bilan qarab “uzum uzish” harakatini ijro etadi.
<i>ikki–uch–to'rt</i>	Bu harakat uch marta chapga, o'ngga, chapga 6-holat orqali 4- dan 4-ga o'tib takrorlanadi va o'ngga bitta to'liq aylanish bilan oyoqlar rasmiy holatda qoladi.

B. Yarim doira bilan soat mili yoʻnalishi boʻyicha sahna orqasining markaziga qarab, davra yoʻnalishiga boʻyicha harakatlanadi. Taktlarning soni sahna hajmiga qarab belgilanadi.

1-takt Oʻng oyoqdan bitta rasmiy “ufoʻri”, qoʻllar “uzum uzish” harakati
bir – ikki bilan oʻng tomonga 4-holatga oʻtadi.
uch – toʻrt Harakat chap oyoqdan takrorlanadi, qoʻllar “uzum uzish” harakati bilan chap tomonga 4-holatga oʻtadi va hokazo, 1-takt harakatini takrorlagan holda ijrochi sahna orqasining markazigacha kelib, tomoshabinga qarab qoladi.

V. Sahna oldi markazigacha yurish. Taktlar soni sahnaning hajmiga qarab belgilanadi.

Yuqoridagi harakatni davom ettirgan holda ijrochi toʻgʻri sahna oldi markazigacha yurib keladi, oyoqlar rasmiy holatda, qoʻllar 4-holatda chap tomonda qoladi.

G. Sahna orqasining markaziga ijrochi orqasi bilan yuradi, oyoq harakati - “oqsatma”, qoʻl harakati - “yeng qoqish”: musiqa oʻlchovi 4/4. 4 ta takt.

1-takt Orqaga chap oyoq uchida kichik qadam qoʻyiladi va tizza ozgina
bir bukiladi, qoʻllar oʻng tomonga 4-holatga oʻtadi (oʻng qoʻl kafti pastga qaratilib, ozgina oldinda, chap qoʻl kafti oʻziga qaratilib, ozgina koʻtarilgan), chap qoʻl bilan oʻzidan tashqariga kichik harakat bilan oʻng qoʻl yengini qoʻldasta bilan qoqayotganday.

ikki Oʻng oyoq “yalatma” harakat bilan rasmiy holatga toʻliqqa tushadi, chap tizza rostlanadi, bir vaqtning oʻzida qoʻllar salgina ochiladi.

uch– toʻrt Oyoq harakati oʻzgarmaydi, qoʻllar 4-holat chap tomonda, harakatni takrorlaydi.

2 –4-taktlar 1-takt harakatlari uch marta takrorlanadi. Sahna orqasi markazida tomoshabinga qarab, oyoqlar rasmiy holatda qoladi.

3-shakl. Usul № 3. Musiqa o'lchami 4/4. 4 takt

- 1-takt** Joyida, sahna orqasining markazida. Oyoqlar rasmiy holatda, tizzalar bukilgan, bir vaqtning o'zida qo'llar 2- va 1- holatlar orqali 6-holatga kelib, barmoqlar to'g'riga qaragan holda qarsak, bosh va gavda salgina oldinga engashadi.
- 2-takt** Qo'l harakati – “mayin sabo”.
- bir – ikki** Tizzalar rostlanadi, qo'llar 1-holat orqali 2-holatgacha kaftlar tashqariga, barmoqlar uchlari yuqoriga qaragan holatga ko'tariladi.
- uch – to'rt** O'ng qo'l qo'ldastasi urg'u bilan kafti yuqoriga qaratilib, chap qo'l bukilib, yon tomonga ochilib, qo'ldasta tushiriladi. Yuz o'ng qo'ldastaga qaratiladi.
- 3- takt** Qo'llar “mayin sabo” harakati bilan o'ng tomonga o'tadi; chap
- bir-ikki** qo'ldasta urg'u bilan kafti yuqoriga qaratiladi, o'ng qo'l bukilib, yon tomonga ochilib, qo'ldasta tushuriladi. Yuz chapqo'ldastaga qaratilgan.
- uch – to'rt** Qo'llar 3-holatga o'tadi, o'ng qo'l yuqoriga, yuz tomoshabinga qaratilgan.
- 4- takt** O'ng tomonga joyida o'ng oyoq uchida aylaniladi, chap oyoq
- bir – ikki** poldan biroz ko'tariladi. O'ng qo'l o'z oldida ochilib va yana 1-holat orqali joyiga qaytadi. Tomoshabinga chap yelka bilan qoladi.
- uch – to'rt** Chap oyoq o'ng oyoq oldiga rasmiy holatga keladi, qo'llar 6-holatga, barmoqlar yon-yonga, o'ng qo'ldasta chap qo'ldasta yuqorisida qoladi.

4- shakl. Usul № 4. Musiqa o'lchami 2/4. 10 takt

A.Sahna oldiga markaziga, tomoshabinga qarab, chap yelka bilan yonlama yurish.

- 1- takt** O'ng oyoq uchi bilan chap tomonga chap oyoqqa chalmash;
- bir** qo'llar kaftlari to'g'riga, barmoqlar yon-yonga, o'ng qo'ldasta chap qo'ldastaning yuqorisida 6- holatda qoladi.
- ikki** Chap oyoq tizzasi bukilib, orqaga “yalatma” harakat bilan, oyoq

uchi pastga qaratilib, poldan biroz ko'tariladi; o'ng qo'l bukilgan qo'ldastasi bilan oldinga cho'ziladi, bir vaqtning o'zida chap qo'l o'ziga qaratilib, qo'ldasta kafti bilan chapga qarab buriladi.

2- takt Chap oyoqdan yonga yurish bilan 3 marta to'liq oyoqda urg'u bilan urilib yuradi, bir vaqtning o'zida qo'llar 3 marta joy almashadi: chap qo'l oldinga cho'ziladi, qo'ldasta kafti tashqariga burilib, o'ng qo'l yuqorisidan o'tib, o'ng qo'l gavadaga yaqinlashadi va qo'ldasta kafti o'ngga buriladi.

3-4- taktlar 1-2- taktlar harakatlari takrorlanadi.

5- takt Oyoqlar 2-holatga qo'yiladi (o'ng oyoq chap oyoqqa ko'ndalang), gavda og'irligi chap oyoqda, bir vaqtning o'zida ijrochi chap tomonga qaytib tomoshabinga yuzlanadi va sahna oldida markazda qoladi, qo'llar 3- holatga o'tadi, o'ng qo'l yuqorida qoladi.

6-9- taktlar Joyida. O'ng tomonga "yarim qaychi" harakati bilan to'liq aylaniladi. Har taktning "bir"iga o'ng oyoq uchi sirpanish bilan o'ngga suriladi, "ikki"ga o'ng oyoq tovonini va chap oyoq uchi bir vaqtda sirpanish bilan o'ngga surilib boradi. Qo'llar 3- holatda qoladi, o'ng qo'l yuqorida.

10- takt Joyida. O'ng oyoq uchida bitta tez aylanish, chap oyoq poldan biroz ko'tariladi. Takt oxirida 6-holatda qarsak chalinadi, barmoqlar uchlari to'g'riga qaratilgan. Sahna oldi markazida tomoshabinga o'ng yelka bilan qoladi, oyoqlar 1- holatda.

5- shakl. Usul № 5. Musiqi o'lchami 3/4. 20 takt.

A. Soat mili yo'nalishiga qarshi davra bo'yla byurish. "Ufori" oyoq harakati kichik sakrash bilan qo'l harakati "soch yozish". 16 tatakt.

1- takt O'ng tomonga o'ng oyoq ozgina burilish bilan to'liq oyoqqa tushadi, chap oyoq tovonini poldan biroz ko'tariladi, qo'llar o'ng tomonga yuzdan salgina pastroqqa, kaftlari o'ziga qaragan holatga o'tadi, bosh o'ngga egiladi, yuz chapga qaraydi.

- i** Chap oyoq uchi o‘ng oyoq o‘rtasiga keladi, qo‘ldastalar o‘zidan tashqariga aylantiriladi, kaftlar to‘g‘riga qarab, salgina yon-yonga ochiladi.
- ikki** O‘ng oyoq to‘liqqa ozgina-ozgina sakrash bilan oldinga qadam qo‘yadi, chap oyoq uchida qoladi, qo‘ldastalar kaftlarini yuqoriga qaratib aylantirib bir-biriga yaqinlashadi.
- i** Qo‘llar qo‘ldastalari o‘zidan tashqariga aylantirib, yonga 6- va 1-holat oralig‘iga ochiladi.
- uch** Chap oyoq uchi o‘ng oyoq o‘rtasida polga salgina uriladi, bir vaqtning o‘zida bir nafas bilan o‘ng quloq oldida qarsak chalinadi.
- i** Tinish.
- 2- takt** 1-takt harakatlari chap oyoqdan chap tomonga burilib takrorlanadi. Qo‘llar ham chap tomondan 1-takt harakatini takrorlaydi. Bosh “bir” sanog‘iga chapga engashadi, yuz o‘ngga qaraydi.
- 3- takt** O‘ng oyoqdan oddiy 3 ta qadam bilan bitta to‘liq aylaniladi. O‘ng qo‘l 2-holatga keskin harakat bilan o‘tadi. Chap qo‘l oldindan bel quchadi. Takt oxirida oyoqlar va qo‘llar 1-holatga keladi.
- 4- takt** Davra bo‘ylab 6 ta tez “charx” ijro etiladi (aylanish o‘ng oyoqdan qadam tashlab). Takt oxirida 6-holatda barmoqlar uchlari to‘g‘riga qaratilgan holda qarsak chalinadi. Davra yo‘nalishiga qarab qoladi.
- 5-6- taktlar** 1-4-taktlar harakatlari majmuasi 3 marta takrorlanadi, harakat sahna oldi markazida tomoshabinga qarab, oyoqlar 1-holatda qoladi.
B. Sahna orqasi markazigacha ijrochi orqasi bilan yuradi. Oyoq harakati “sakrashli ufori”, qo‘l harakati “soch yozish”, 4 ta takt.
- 1- takt** O‘ng oyoq orqaga o‘ngroqqa salgina o‘ngga burilishi bilan to‘liqqa tushadi, chap oyoq to‘voni poldan biroz ko‘tariladi. Qo‘llar o‘ng tomonga yuzdan pastroqda, kaftlari o‘ziga qaratilgan, barmoqlar erkin holatda. Bosh o‘ngga engashadi, yuz chapga qaraydi.
- bir**
- i** Chap oyoq uchi o‘ng oyoq yoniga qo‘yiladi, qo‘llar qo‘ldastalari o‘zidan tashqariga aylantirilib, kaftlari to‘g‘riga qarab salgina yonga

ochiladi.

- ikki** O'ng oyoq orqaga kichik sakrash bilan qadam qo'yadi, chap oyoq uchida qoladi, kaftlar yuqoriga qaratilib, bir-biriga yaqinlashadi.
- i** Qo'ldastalar o'zidan tashqariga burilib, qo'llar 6- va 1-holatlar oralig'ida qoladi.
- uch** O'ng oyoq o'rtasi olidiga chap oyoq uchi urg'u bilan keladi. Qo'llar o'ng quloq oldida bir nafas bilan qarsak chaladi, barmoqlar uchlari yuqoriga qaragan holda.
- i** Tinish.
- 2- takt** 1-takt harakatlari chap oyoqdan chapga burlish bilan takrorlanadi, qo'llar ham chap tomondan harakatni takrorlaydi, bosh chapga engashadi, yuz o'ng tomonga qaraydi.
- 3-4- taktlar** 1-2-taktlar harakatlari takrorlanadi, sahna orqasi markazida tomoshabinga qarab, oyoqlar 1-holatda qoladi. Oxirgi sanoqqa qo'llar 2-holatga ko'tariladi, barmoqlar yuqoriga qaraydi.

6-shakl. Usul №6. Musiq a'lohami 4/4. 2 takt.

- 1- takt** Harakatlar joyida.
- bir-ikki** O'ng oyoq uchi 1-holatda urg'u bilan qo'yiladi, ayni vaqtda "mayin sabo" qo'l harakati; "bir"ga o'ng qo'l tirsagi bukilib, qo'ldasta keskin ochiladi va kaftlar yuqoriga qaraydi, chap qo'l salgina chapga ochiladi, qo'ldastani ozgina tushurib, o'ng qo'ldastaga qaraydi. "Ikki"ga qo'llar harakatlarni o'ng tomondan ijro etadi, yuz chap qo'ldastaga qaraydi.
- uch-to'rt** "Bir-ikki" sanog'i harakatlari takrorlanadi.
- 2- takt** Chap tomonga "ufo shox" harakati ijro etiladi.
- bir-ikki** Chap oyoqdan chapga yarim burilish bilan 1 ta "rasmiy ufo" (tomoshabinga orqa bilan), oyoqlar 6-holatda, o'ng oyoq uchida, qo'llar 4-holat orqali chap tomonga 3-holatga o'tadi.
- uch-to'rt** Chap tomonga burilish davom etadi. O'ng oyoqdan boshlab

“rasmiy ufori” bilan chap tomonga yarim burilish (tomoshabinga yuzi bilan), o‘ng oyoq to‘liq oyoq bilan urg‘u berib, rasmiy holatda qoladi. Qo‘llar “gulbargi” harakatiga kelib, 1-holat orqali 6-holatda, barmoq uchlari yuqoriga qaratilib qarsak chalinadi; qarsakdan so‘ng chap tomonga 5-holatga o‘tadi, gavda chapga biroz buriladi, ijrochi tomoshabinga qarab qoladi.

6-shakl (davomi). Usul № 7. Musiqqa o‘lchami 4/4.

Taktlar soni sahna hajmiga qarab belgilanadi.

1-takt Sahna markaziga, ijrochi o‘ng tomoniga qadamli “charx” harakatini ijro etadi, qo‘llar 1-holatda. Oxirgi taktda sahna markazida joyida tez aylanish. (“tez shoh” harakati); chapga chap oyoq uchida to‘liq aylanish, o‘ng oyoq poldan biroz ko‘tariladi. Qo‘llar o‘ngdan 4-holat orqali chap tomonga 3-holatga o‘tadi, chap qo‘l yuqorida. Harakat oxirida chap tizzaga tezlik bilan tushadi, tomoshabinga qarab qolib, qo‘llar “gulbargi” orqali, 1-holat orqali rasmiy holatga tushadi.

7-shakl. “Avj”. A. Usul №8. Musiqqa o‘lchami 6/8. 12 takt.

Harakat chap oyoqda, chap tizzada ijro etiladi.

1- takt 6-holatda barmoqlar uchlari to‘g‘riga qaragan holda qarsak chalinadi. Gavda va bosh ozgina oldinga o‘ngroqqa engashadi.

2- takt Ijrochi tizzaga ko‘tariladi, gavda rostlanadi va chapga buriladi, qo‘llar 1-holat orqali 2-holatga o‘tadi, bosh qo‘l harakatlarini kuzatadi.

3-4- taktlar Qo‘llar harakati bilan 1-holatga ochiladi, gavda tomoshabinga buriladi. Bir vaqtning o‘zida ijrochi chap oyoqqa o‘tiradi.

5-8- taktlar 1-4-taktlar harakatlari tomoshabinga qaragan holda takrorlanadi.

9-12- taktlar 1-4-taktlar harakatlari gavda va bosh oldinga, o‘ngroqqa engashish va burilish bilan takrorlanadi. Oxirgi takt oxirida, tirsaklar bukilib,

qo'llar 6-holatga keladi, kaftlar o'ziga qaratilgan, barmoqlar yon-yonga qaragan, o'ng qo'ldasta chap qo'ldasta yuqorisida. Gavda va bosh tomoshabinga burilib, to'g'riga qarab qoladi.

B. Usul № 9. Musiqa o'lchami 6/8. 4 takt.

Harakat chap tizzada o'tirgan holda davom etadi. Qo'l harakati "labig'uncha".

- 1- takt** Bitta qo'ldasta ikkinchi qo'l atrofida 3 marta aylanib, joy almashinadi.
- 2- takt** O'ng qo'ldasta chap tomoniga kafti bilan buriladi va kichik barmoq oldiga keladi, qolgan barmoqlar erkin holatda, chap qo'l tersi bilan o'ng qo'l tirsakka qo'yiladi.
- 3-4- taklar** 8 marta "qiyg'ir bo'yin" harakati ijro etiladi. Oxirgi sanoqda qo'llar 6-holatda.

V. Usul № 10. Musiqa o'lchami 6/8. 2 takt

Chap tizzada harakat davom etadi. Qo'l harakati "qo'ldasta titrashi".

- 1- takt** Qo'ldastalar mayda titratma harakat bilan o'ng tomonga 4-
bir-ikki-uch holatga ochiladi, o'ng kaft to'g'riga qaragan, barmoqlar uchlari yuqoriga qaratilgan, chap kaft o'ziga qaragan, barmoqlar uchlari o'ngga.
- to'rt-besh-olti** Qo'ldastalar yarim musht holatida tirsaklar bukiladi, qo'llar salgina keskin tortiladi, bosh ozgina orqaga egiladi, takt oxirida tinish.
- 2- takt** 1-takt harakatlari takrorlanadi, qo'llar 6-holat orqali chap tomonga 4-holatga o'tadi.

G. Usul № 11. Musiqa o'lchami 6/8. 4 takt

Joyidan turadi va harakat ijro etadi.

- 1- takt** Qo'llar o'ng tomonga 4-holatga titratmasiz o'tadi, bir vaqtning o'zida ijrochi o'rnidan tura boshlaydi.

- 2-takt** Qo'llar 4-holatga chap tomonga o'tadi, turib bo'lgandan so'ng oyoqlar 3-holatda chap oyoq uchida.
- 3-takt** Joyida. Chapga "ufo'ri shox" chapga yarim aylanish chap oyoqdan (tomoshabinga orqasi bilan). Oyoqlar 6-holatda, o'ng oyoq uchida, qo'llar o'ng tomondan chap tomonga 4-holat orqali 3-holatga keladi, chap qo'l yuqorida.
- bir–ikki– uch**
- to'rt–besh– olti** "Shox" harakatining davomi, - chapga o'ng oyoqdan yarim burilib (tomoshabinga yuzi bilan), o'ng oyoq bilan urg'u beriladi va rasmiy holatda tugatiladi. Qo'llar "gulbargi" harakati orqali, 1-holatga ochilib 6-holatga kelib qarsak chalinadi va qarsakdan chap tomonga 5-holatga keladi, gavda salgina chapga buriladi, ijrochi tomoshabinga qarab qoladi.
- 4-takt** Tinish.

8-shakl. A. Usul № 12. Musiqqa o'lchami 4/4. 2 takt

Sahnaning pastki chap burchagiga qiya chiziq bo'yicha yurish.

- 1-takt** O'ng tomonga o'ng oyoqdan uch marta charx (qadamli aylanish) qiya chiziq bo'yicha qo'llar 1-holatda. Qiya chiziq yo'nalishi bo'yicha qoladi.
- 2-takt** O'ng oyoq to'pig'i bilan to'g'riga qadam qo'yadi, chap oyoq o'ng oyoq oldiga kelib, rasmiy holatda qoladi, qo'llar 2-holatga ko'tarilib, qarsak chalinadi (barmoqlar kaftlarning ters tomonini quchadi), gavda va bosh orqaga egiladi.
- bir – ikki**
- uch – to'rt** Tinish.

B. Usul № 13. Musiqqa o'lchami 6/8. 8 takt

Qiya chiziq bo'yicha orqasi bilan sahna markazigacha yurish.

- 1-2-taktlar** Chap oyoqdan boshlab ikkita "rasmiy ufo'ri" orqaga, qo'llar 6-holat orqali sekin-asta rasmiy holatga tushadi va ozgina orqaga cho'ziladi, bosh va gavda qo'l holatlarini kuzatadi.

- 3-4-taktlar** 1-2-taktlarning oyoq harakatlari takrorlanadi, qoʻldastalari pastga qaragan holda sekin-asta 6-holat orqali 2-holatga koʻtariladi va qoʻldastalar yuqoriga keskin ochiladi, barmoqlar pastga qaraydi, gavda va bosh qoʻl holatlarini kuzatadi.
- 5-8-taktlar** 1-4-taktlarning harakatlari takrorlanadi, oxirgi takt tugallanishiga sahna markazida tomoshabinga qarab qolib, oyoqlar rasmiy holatga keladi.

9-shakl. Usul № 14. Musiqqa oʻlchami 6/8. 8 takt

Harakatlar joyida ijro etiladi.

- 1-takt** Oʻngga oʻng oyoq ufori yurish bilan (“rasmiy ufori”) yarim burilib, tomoshabinga orqasi bilan qoladi, qoʻllar sekin-asta 1-holatga ochiladi.
- 2-takt** Chap oyoq 3-holatga urgʻu bilan qoʻyiladi, gavda oʻng yelka bilan tomoshabinga buriladi, qoʻllar “labigʻuncha” harakatini ijro etadi: oʻng qoʻl 6-holat orqali oʻtib, qoʻldasta “oʻzidan tashqariga” aylantirilib, kichkina barmoq lab tagiga keladi, chap qoʻldasta oʻng qoʻl tirsagi tagiga tersi bilan qoʻyiladi. Takt oxirida “iyak harakati” ijro etiladi – bosh “oʻzidan tashqariga” iyak bilan keskin harakat ijro etiladi.
- 3-takt** Tomoshabinga orqasi bilan qolib, chap oyoqdan joyida bitta “rasmiy ufori” harakati ijro etiladi.
- 4-takt** Oʻng oyoq uchi 3-holatga urgʻu bilan qoʻyiladi, gavda chap yelka bilan tomoshabinga buriladi, bir vaqtning oʻzida “labigʻuncha” harakati chap qoʻldan takrorlanadi, takt oxirida “iyak harakati” ijro etiladi.
- 5-takt** Oʻng oyoqdan “uforiy urish” bilan oʻngga yarim burilish va tomoshabinga qarab qoladi, qoʻllar 6-holatda.
- 6-takt** Chap oyoq 6-holatga urgʻu bilan qoʻyiladi, bir vaqtning oʻzida “yeng tortish” harakatini ijro etadi: chap qoʻldasta oʻng tirsakning

tepasiga kelib, kichik harakat bilan o'ng qo'l yengini tortadi, gavda o'ng yelka bilan oldinga engashadi, bosh chap qo'l harakatini kuzatadi. Takt "sildirma harakati" bilan tugallanadi.

7-takt Joyida chap oyoqdan bitta "ufoy urish", qo'llar 6-holatda bo'ladi.

8-takt O'ng oyoq uchi 6-holatga urg'u bilan keladi, qo'l harakati "yengtortish" (o'ng qo'l chap qo'l yengini tortadi), gavda chap yelka bilan oldinga siljiydi. Bosh o'ng qo'l harakatini kuzatadi. Takt "sildirma harakati" bilan tugaydi.

10-shakl. A. Usul № 15. Musiq ao'lchami 6/8. 2 takt

Qiya chiziq bo'yicha pastki o'ng burchakka, ijrochi yo'nalish bo'yicha yuradi.

1-takt O'ng oyoqdan bitta "rasmiy ufoy": qo'ldastalar mayda "titratma
bir-ikki- uch harakati" bilan o'ng tomonga 4-holatga o'tadi, o'ng qo'ldasta
kafti to'g'riga, barmoq uchlari yuqoriga, chap qo'ldasta kafti
to'rt-besh- o'ziga, barmoqlar o'ngga qaragan (qo'ldasta "titrash harakati").
olti Chap oyoq uchi urg'u bilan 6-holatga qo'yiladi, qo'ldastalar
yarim musht holatida, "o'ziga" kichik urg'u beradi. Takt oxirida
tinish.

2-takt 1-takt harakatlari chap oyoqdan takrorlanadi, qo'llar chap
tomonda 4-holatda takrorlanadi.

V. Usul № 16. Musiq o'lchami 6/8. 4 takt

Harakat joyida ijro etiladi.

1-takt Qo'llar o'ng tomonga 4-holatga "qo'ldasta titratmasi"siz keladi.

2-takt 1-takt harakati chap tomonda 4-holatda takrorlanadi.

3-takt 1-takt harakati o'ng tomonda 4-holatda takrorlanadi.

4-takt Joyida chapga aylanish ("ufoy shox").

bir-ikki- uch Chap oyoqdan bitta "ufoy" yarim chapga, oyoqlar 6-holatda,
o'ng oyoq uchida: qo'llar 3-holatga keladi.

to‘rt–besh–olti O‘ng oyoqdan bitta “ufo” yarim chapga. Harakat rasmiy holatda o‘ng oyoq to‘liqqa urg‘u bilan tugallanadi: bir vaqtning o‘zida qo‘llar “gulbargi” harakati orqali va 1-holat orqali 6-holatga kelib, barmoqlari to‘g‘riga qarab qarsak chalinadi, so‘ng qarsakdan chap tomonga 5-holatga keladi. Gavda ozgina chapga burilib, ijrochi tomoshabinga qarab qoladi.

V. Usul № 17. Musiqa o‘lchami 4/4. 2 takt

Pastki o‘ng burchakka yurish davom etadi.

1-takt O‘ng tomonga uchta charx qiya chiziq bo‘yicha aqo‘llar 1-holatga ochiladi.

2-takt Qiya chiziq bo‘yicha o‘ng oyoqdan to‘liqqa qadam qo‘yiladi, **bir–ikki** chap oyoq uchiga qo‘yiladi. Qo‘llar 2-holatga ko‘tarilib, bosh tepasida qarsak chalinadi gavda va bosh ozgina orqaga egiladi.

uch–to‘rt Tinish.

G. Usul № 18. Musiqa o‘lchami 6/8. 8 takt

Sahna markazi tomon qiya chiziq bo‘yicha orqasi bilan yurish.

1-2-taktlar Chap oyoqdan orqaga ikkita “rasmiy ufo”, qo‘llar 6-holat orqali sekin-asta rasmiy holatga tushib, orqaga cho‘ziladi, gavda va bosh qo‘l harakatini kuzatadi.

3-4-taktlar 1-2-taktlarning harakatlari takrorlanadi: qo‘ldastalar pastga qaratilgan holda 6-holat orqali 2-holatga ko‘tariladi, kaftlar yuqoriga qaratiladi, barmoqlar orqaga qaraydi. Gavda va bosh qo‘l harakatlarini kuzatadi.

5-8-taktlar 1-4-taktlarning harakatlari takrorlanadi: oxirgi takt so‘ngida sahna markazida tomoshabinga qarab buriladi, oyoqlar rasmiy holatga keladi.

11-shakl. A. Usul № 19. Musiq ao‘lchami 6/8. 4 takt

Sahna orqasi markazigacha orqasi bilan harakat.

- 1-takt** O'ng oyoqdan orqag abitta "rasmiy ufori", bir vaqtning o'zida 6-holatda chap kaft o'ng kaftga sirpanma qarsak chaladi: qarsakdan o'ng qo'l 2-holatga, barmoqlari yuqoriga qaratiladi, chap qo'l rasmiy holatga tushadi.
- bir–ikki– uch**
- to'rt** Chap oyoq o'ng yoniga rasmiy holatga urg'u bilan keladi, bir vaqtning o'zida o'ng qo'ldasta "o'zidan tashqariga" aylantirilib, urg'u bilan kaftlar yuqoriga qaratiladi va 2-holatda qoladi.
- besht – olti** Tinish.
- 2-takt** 1-takt harakatlari chap oyoqdan va chap qo'ldan takrorlanadi, o'ng qo'l rasmiy holatga tushadi.
- 3-4-taktlar** 1-2-taktlarning harakatlari takrorlanadi, oyoqlar rasmiy holatga keladi.

B. Usul № 20. Musiqa o'lchami 6/8. 4 takt

Sahna markaziga "ilon izi" yurish, tomoshabinga qarab, qo'l harakati "bag'baqa silash".

- 1-takt** Chap oyoqdan oldinga chaproqqa bitta "rasmiy ufori". Chap
- bir–ikki– uch** qo'ldasta tersi bilan 6-holat orqali iyakka yaqinlashadi, o'ng qo'l 1-holatga ochiladi, gavda va bosh orqaga chaproqqa egiladi, ijrochi tomoshabinga qarab qoladi.
- to'rt** O'ng oyoq uchi 6-holatga urg'u berib keladi.
- besht–olti** Chap qo'ldasta iyak tagidan mayin o'tib, 1-holatga kafti yuqoriga qaratilib ochiladi, o'ng qo'l 1-holatda qoladi, gavda va bosh 1-holatga qaytadi. Takt oxirida kichik tinish.
- 2-takt** O'ng oyoqdan oldinga o'ngroqqa "rasmiy ufori" harakati, o'ng
- bir–ikki– uch** qo'ldasta tersi bilan iyakka yaqinlashadi, chap qo'ldasta kafti yonga qaratilib, 1-holatda qoladi, gavda va bosh salgina orqaga o'ngroqqa engashadi, ijrochi tomoshabinga qarab qoladi.
- to'rt** Chap oyoq uchi 6-holatga urg'u bilan keladi.

- besht – olti** O'ng qo'l 1-holatga mayingina ochiladi, kafti yuqoriga qaraydi, chap qo'l 1-holatda qoladi. Takt so'ngida kichik tinish.
- 3-4-taktlar** 1-2-taktlarning harakatlari takrorlanadi. Oyoqlar rasmiy holatga keladi.

V. Usul № 21. Musiqa o'lchami 6/8. 4 takt

Harakat sahna markazida tomoshabinga qarab ijro etiladi. Qo'l harakati "labi shakar".

- 1-takt** O'ng oyoqdan joyida bitta "rasmiy ufori", bir vaqtning o'zida
- bir–ikki– uch** o'ng qo'lining o'rta va katta barmoq uchlari bir-biriga yaqinlashib, kaftlar "o'ziga" qaratilib, lablarga yaqinlashadi (qolgan barmoqlar erkin holatda) va bir nechta "o'ziga – o'zidan tashqariga" mayda harakatlar ijro etadi: chap qo'ldasta tersi bilan o'ng qo'l tirsagi tagiga keladi.
- to'rt** Chap oyoq uchi 6-holatga urg'u bilan keladi: o'ng qo'l kafti to'g'riga qarab, 6-holatga ochiladi, barmoqlar uchlari yuqoriga qaraydi: chap qo'l holati o'zgarmaydi.
- besht – olti** "Sildirma harakati" ijro etiladi (gavdaning beldan keskin harakati).
- 2-takt** 1-takt harakati chap oyoqdan va chap qo'ldan takrorlanadi.
- 3-4-taktlar** 1-2-taktlarning harakatlari takrorlanadi, oyoqlar rasmiy holatga kelib to'xtaydi.

12-shakl. A. Usul № 22. Musiqa o'lchami 6/8. 2 takt

Sahna oldi markaziga tomoshabinga qarab yurish, qo'l harakati - "qo'ldasta titrashi".

- 1-takt** O'ng oyoqdan oldinga bitta "rasmiy ufori" harakati qo'ldastalar
- bir–ikki– uch** mayda "titrama" bilan o'ng tomonga 4-holatga keladi, o'ng qo'ldasta kafti to'g'riga qaragan, barmoqlar yuqoriga qaragan, chap qo'ldasta kafti o'ziga qaragan, barmoqlari o'ngga qaraydi.
- to'rt–besht–** Chap oyoq uchi 6-holatga urg'u bilan keladi: qo'ldastalar yarim

olti mushtga kelib, oʻziga qarab kichik keskin harakat qiladi. Takt soʻngida kichik tinish.

2-takt 1-takt harakatlari chap oyoqdan takrorlanadi, qoʻllar 4-holatdagi harakatni chap tomonda takrorlaydi.

B. Usul № 23. Musiqa oʻlchami 6/8. 4 takt.

Harakat joyida ijro etiladi.

1-takt Qoʻllar oʻng tomonga 4-holatga “titratma” siz oʻtadi.

2-takt 1-takt harakati chap tomonda 4-holatda takrorlanadi.

3-takt Joyida chap tomonga aylanish (“ufori shox”).

bir–ikki– uch Chapga chap oyoqdan “rasmiy ufori” harakati bilan yarim aylanish (tomoshabinga orqasi bilan), oyoqlar 6-holatda qoladi, oʻng oyoq uchiga qoʻyiladi: qoʻllar oʻng tomondan 4-holat orqali chapga 3-holatga oʻtadi, chap qoʻl yuqorida.

toʻrt–besh–oltʻ Oʻng oyoqdan chapga “rasmiy ufori” harakati bilan yarima aylanish (tomoshabinga qarab). Toʻliq aylanish, oʻng oyoq bitta urgʻu bilan toʻliqqa tushadi va rasmiy holatda qoladi, bir vaqtning oʻzida qoʻllar oʻz oldida “gulbargi” harakati va 1-holat orqali 6-holatga kelib qarsak chaladi, barmoqlari toʻgʻriga qaraydi, qarsakdan qoʻllar chap tomonga 5-holatga keladi: gavda salgina chapga buriladi, ijrochi tomoshabinga qarab qoladi.

4-takt Tinish.

V. Usul № 24, tez. Taktlar soni sahna hajmiga bogʻliq

Sahna oldi markaziga qarab yurish davom etadi.


Qadamli charx harakati oʻngga oʻng oyoqdan qoʻllar 1-holatda. Markazga kelganda tomoshabinga qarab qoladi. Oyoqlar 1-holatda, qoʻllar rasmiy holtada.

G. Usul № 25. Musiqa oʻlchami 4/4. 2 takt


Joyida “sekin shox” ijro etiladi.

1-takt Oyoqlar 3-holatga keladi, chap oyoq uchida, gavda ogʻirligi oʻng


- bir*** oyoqda, qo'llar o'ng tomonda 4-holatda, gavda salgina o'ngga buriladi.
- ikki*** Oyoqlar 6-holatda o'ng oyoq uchida, gavda og'irligi chap oyoqda: chap qo'l 6- va 1-holatlar orqali urg'u bilan 2-holatga ko'tariladi, o'ng qo'l 1-holatga ochiladi (qo'l holati – 3-holat).
- uch*** O'ng oyoq chap oyoq oldidan chalmash o'tib uchiga qo'yiladi, chap oyoq uchiga o'tib, shu vaqtning o'zida ijrochi chapga yarim buriladi (tomoshabinga orqasi bilan). Qo'llar o'z oldida "gulbargi" harakatida.
- to'rt*** Ijrochi chapga ikkala oyoq uchida yarim aylanadi, tomoshabinga qarab qoladi, oyoqlar rasmiy holatda qoladi, qo'llar 1-holatga ochiladi.
- 2-takt*** "Salom" ijro etiladi. 1- va 6-holatlar orqali o'ziga yaqinlashadi va kaftlari bilan ko'ksining o'rtasiga qo'yiladi (o'ng qo'ldasta chap qo'ldasta tersiga qo'yiladi), shu vaqtning o'zida gavda va bosh salgina oldinga engashadi.




1-шакл, 1-6-тактлар




2-шакл, «А», «Б», «В», «Г»




3-шакл, 1-4-тактлар




4-шакл, 1-10-тактлар




5-шакл «А», 1-16-тактлар




5-шакл «Б», 1-4-тактлар




6-шакл, 7-шакл «А», «Б», «В», «Г»




8-шакл «А», «Б»




9-шакл, 1-8-тактлар




10-шакл «А», «Б»




10-шакл «В», «Г»



11-шакл «А»




11-шакл «Б», «В»



12-шакл «А», «Б», «В», «Г»

ГУЛСАРА

Ғытмы усто Аллама Камилова



13. $\frac{6}{8}$ 4 раъа

14. $\frac{6}{8}$ 4 раъа

15. $\frac{6}{8}$ 4 раъа

16. $\frac{6}{8}$ 4 раъа

17. $\frac{4}{4}$ 2 раъа

18. $\frac{6}{8}$ 2 раъа

19. $\frac{6}{8}$ 2 раъа

20. $\frac{6}{8}$ 2 раъа

21. $\frac{6}{8}$ 2 раъа

22. $\frac{6}{8}$ 2 раъа

23. $\frac{6}{8}$ 2 раъа

24. $\frac{6}{8}$ 2 раъа

25. $\frac{4}{4}$ 2 раъа

6-Mavzu. "FARG'ONA RUBOIYSI" raqsi

“Farg‘ona ruboiysi” – xalq yallasidir. Ushbu raqsdagi harakatlar jamlanmasi xalqning fe‘l-atvorini, kayfiyatini lirik qahramon orqali aks ettiradi. “Fargona ruboiysi” - quvnoq, sho‘x raqslardan.

Ruboiy so‘zi bu o‘rinda ikki hil ma’noda kelgan. Birinchisi - she’riy to‘rtlik bo‘lsa, ikkinchisi rubobda chalinadigan musiqadir. Raqs va uning kuyi ijro etilayotgan vaqtda tomoshabinga xuddi ariqda suv shildirayotganday va aynan bir joyda toshlarga, ariq chetiga urilayotganday yoki yo‘lkadan oldinga qarab ketayotgan qizcha doim bir joyga kelib qolayotganday tuyuladi. Chunki raqs kuyi sho‘x ohanglarda takrorlanib turadi.

Raqs xalq cholg‘u orkestri va qo‘shiq jo‘rligida ijro etiladi.

Libos. Ro‘mol, uning ustidan “tillaqosh” taqiladi.

Ko‘ylak oq krepdeshindan, uzun, yenglari ham uzun, yoqali, bel burma, qo‘sh etakli.

Beqasam xalat, uzun, olti bel qilib tikilgan, oldidan tugmalanadi, etagi keng, yenglari uzun, yoqali.

Lozim xonatlasdan, jiyak tikilgan. Oyoqda o‘rtacha poshnali tufli.

Taqinchoqlar: marvarid, sirg‘a va tumor.

	BIRINCHI QISM I-shakl <i>Musiq</i> № 1. 6 takt <i>Musiq</i> № 2. 8 takt <i>Musiq</i> o‘lchami 4/4 Chiqish. Ijrochi sahnaning chap tomonidagi oxirgi yon pardadan chap tovon bilan, sahna orqasining markazi tomon yurib kelib, soat mili yo‘nalishiga qarshi kichik davra qilib, tomoshabin tomon
--	--

	yuzlanadi va yurishni davom ettiradi. Oyoq harakati tovon bilan “ufo”i”. Chap qo‘l 7-holatda, o‘ng qo‘l 1-holatda. Gavda va bosh o‘ng qo‘l harakatini kuzatadi. 1-6-taktlarda musiqa chalinadi.
7-takt	O‘ng oyoq oldinga qadam qo‘yadi, chap oyoq tizzasi bukilib, tovon ko‘tariladi. Chap oyoq tizzasi bukilgan holda o‘ng oyoq yoniga uchi bilan qo‘yiladi.
bir i	
ikki i	O‘ng oyoq tizzasi biroz bukilib, oldinga qadam qo‘yiladi. Chap oyoq tovonni o‘ng oyoq yonida sirpanib polga urilib, oldinga, sal yuqoriga ko‘tariladi, tizzalar rostlanadi. O‘ng qo‘l “bir i”, “ikki i”ga 6-holat orqali chap ko‘krak tomonga yaqinlashib, kaftlar pastga qaraydi va shu holda yuz oldiga kelgach, kaftlar tashqariga burilib qo‘l keskin yuz ro‘parasigacha ko‘tariladi.
uch i	Oyoq harakati endi chap oyoqdan boshlanib, takrorlanadi.
to‘rt i	O‘ng qo‘l qarama-qarshi tomonlarga harakatlanadi, 1-holatga keskin qaytish bilan bajariladi. Gavda va bosh takt davomida o‘ngga, chapga harakatlanib turadi.
8-14-taktlar	7-takt harakatlarini yetti marta takrorlagan holda ijrochi sahna orqasining markazigacha kelib, soat mili yo‘nalishiga qarshi harakatda kichik davra hosil qilib yuradi. Sahna orqasining markazida ijrochi o‘ng tomonga qayrilib, tomoshabinga orqa bilan qoladi. Oyoqda rasmiy holatda qoladi, qo‘llar 4-holatdan sal yuqoriroqqa chap tomonga o‘tkazilgan, kaftlar bir-biriga ro‘para, barmoqlar yuqoriga qaragan holatda.
	II-shakl Musiqa № 3. 15 takt Musiqao‘lchami 4/4
1-takt	Soat mili yo‘nalishi bo‘yicha (birinchisiga nisbatan) kichik davra

	qilib yuradi. Oyoq harakati “to‘liq tepma”.
<i>bir</i>	Chap oyoq kichik qadam bilan to‘lig‘icha bosiladi. Gavda orqaga, o‘ngroqqa egiladi. Qo‘llar holatini o‘zgartirmagan holda qo‘ldastalar o‘ziga qaratilib keskin, qirrasi bilan bukiladi.
<i>i</i>	O‘ng oyoq chap oyoq yoniga to‘liq qo‘yiladi, dastalar o‘zidan tashqariga yon qirrasi bilan bukiladi, gavda holati o‘zgarmaydi.
<i>2 i 3 i 4 i</i>	“Bir i” harakatlari 3 marta takrorlanadi, gavda holati o‘zgarmaydi.
<i>2-takt</i>	1-takt harakatlari davra bo‘ylab yurib takrorlanadi. Sahna orqasining markaziga keladi.
<i>3-takt</i>	Sahna chap tomonining uchinchi yon pardasi sari 1-takt harakatlarini takrorlab kelib, o‘ng tomonga xalqqa qarab bir aylanadi, oyoqlar rasmiy holatda qoladi.
<i>4-takt</i>	Joyida.
<i>bir i</i>	6-holatda ko‘ndalang qarsak (o‘ng kaft chap kaft ustiga), qarsakdan so‘ng qo‘llar keskin rasmiy holatga tushadi, oyoqlar 3-holatga keladi, o‘ng oyoq uchi bilan qo‘yiladi.
<i>ikki i</i>	Qo‘llar 1- va 2-holatlar orqali 7-holatga tushadi, kaftlar belga, barmoqlar pastga qaratiladi.
<i>uch i</i>	“Yelka qoqish” harakati ijro etiladi: “bir i”ga chap yelka orqaga, o‘ng yelka oldinga, “ikki i”ga o‘ng yelka orqaga, chap yelka oldinga, “uch-to‘rt i”ga harakat takrorlanadi.
<i>to‘rt i</i>	
<i>5-takt</i>	Sahnaning yuqori o‘ng burchagi tomon chap yelka bilan, oyoq tovonini bilan “ufo” harakati ijro etiladi.
<i>6-takt</i>	O‘ng oyoq to‘liq qo‘yilib, o‘ng tomonga chorak aylanadi, chap tizza bukiladi, tovon ko‘tariladi, qo‘llar belning oldini quchadi.
<i>bir i</i>	Chap oyoq uchi o‘ng oyoq yoniga qo‘yiladi.
<i>ikki i</i>	O‘ng oyoq tizzasi bukilgan holda to‘liq qadam qo‘yadi. Chap oyoq «sirpanma urg‘u» harakati bilan o‘ng oyoq yonida biroz yuqoriga ko‘tariladi, tizzalar rostlanadi. Chap qo‘l “ikki i”ga 6-holat orqali 1-holatga kaftlar yuqoriga qaragan holda qo‘ldastalar asta ochiladi.

<i>uch i</i>	Chap oyoqdan boshlab harakatlar to‘la takrorlanadi, kaftlari
<i>to‘rt i</i>	yuqoriga qaratilgan, chap qo‘l bel oldiga keladi. Gavda va bosh takt davomida qo‘l harakatini kuzatib boradi.
<i>7-8-taktlar</i>	6-takt harakatlari ikki marta takrorlanadi, harakat chap tomonga bir aylanish bilan tomoshabinga qaragan holatda, sahnaning o‘ng tomon yuqori burchagida tugaydi, oyoqlar 3-holatda, o‘ng oyoq - uchida.
<i>9-takt</i>	Joyida.
<i>bir i</i>	6-holatda ko‘ndlang qarsak, qarsakdan so‘ng qo‘llar tezda rasmiy
<i>ikki i</i>	holatga tushadi.
<i>uch i</i>	Qo‘llar 1- va 2-holatlar orqali, 7-holatga, barmoqlar pastga qaragan holatga tushadi, kaftlar belga qaragan.
<i>to‘rt i</i>	“Yelka qoqish” harakati (yelkalar harakatining 1-varianti).
<i>10-takt</i>	Sahna orqasining markazi tomon urg‘u bilan bitta “ufo” harakati va chap oyoqdan chap tomonga chorak aylanish bilan kelinadi (tomoshabinga o‘ng yelka bilan). Qo‘llar 1-holat orqali belni oldindan quchadi.
<i>bir i</i>	Sahnaning orqa markazi tomon harakat davom etadi - o‘ng tomonga
<i>ikki i</i>	“ufo” urg‘u harakati bilan aylanadi, “bir i”, “ikki i”ga o‘ng
<i>uch i</i>	oyoqdan, “uch i”, “to‘rt i”ga chap oyoqdan (hammasi bo‘lib bitta
<i>to‘rt i</i>	to‘liq aylanish).
<i>11-takt</i>	Qo‘llar “gul ochilishi” harakatini ijro etadi: “bir i”, “ikki i”ga o‘ng qo‘l barmoqlari tushirilgan holda 2-holatga, keyin 1-holatga tushib, belni oldidan quchadi; “uch i”, “to‘rt i”ga harakat chap qo‘ldan takrorlanadi. Gavda va bosh qo‘l harakatini kuzatadi.
<i>12-13-taktlar</i>	11-takt harakatlari 2 marta takrorlanadi. Sahna orqasining markazida tomoshabin tomon o‘ng yelka bilan.
<i>14-15-taktlar</i>	Joyida. O‘ng tomonga o‘ng oyoq bilan, bir marta chorak aylanish bilan, “ufo” urg‘u bilan, tomoshabinga qaragan holda. Qo‘l harakatlari o‘zgarmaydi. Oxirgi sanoqda oyoqlar 6-holatga keladi,

	chap oyoq - uchida, tizzalar bukiladi. Qo'llar bir-biriga chalmashgan holda ko'krak oldida, kaftlar o'ziga qaragan, tirsaklar bukilgan, gavda va bosh ozgina oldinga engashadi. III - shakl <i>Musiqqa № 4</i> <i>Musiqao'lchami 4/4. 20 takt</i>
1-takt	Sahnaning yuqori chap burchagiga yon bilan harakat.
bir i	Bitta "yon yo'rg'a" harakati o'ng oyoqdan chapga to'liq qadam qo'yish bilan ijro etiladi, chap oyoq 6-holatda bo'ladi. Bir vaqtning o'zida qo'llar yarim musht bilan 1-holatga, qo'llar dastasining kaftlari yuqoriga qarab, ochilishiga gavda rostlanadi.
ikki i	"Yonyo'rg'a" (o'ng oyoq bilan chapga) harakati takrorlanadi, qo'llar qarama-qarshi tomonga harakatni ijro etadi, gavda salgina oldinga engashgan.
uch i	"Bir i", "ikki i" harakatlarining takrorlanishi.
to'rt i	Takt davomida bosh o'ngga-chapga egilib turadi.
2-3-taktlar	1-takt harakatlari 2 marta takrorlanadi, sahnaning yuqori chap burchagiga tomoshabinga qarab, oyoqlar 6-holatda, chap oyoq uchda qoladi.
4-takt	Qiya yo'l bilan sahna markaziga keladi.
bir i	Bitta "ufo" harakati, "sirpanma urg'u" bilan chap oyoqdan boshlanadi; o'ng qo'l 1-holat orqali 2-holatga, barmoqlar qirsillashi bilan qo'ldastalarni o'ziga qaratib, chap bel orqasiga kaftlar tersi bilan qo'yiladi. Gavda va bosh o'ng qo'l harakatini kuzatadi.
ikki i	
uch i	Harakatning takrorlanishi o'ng oyoqdan bir vaqtda chap qo'l 1-holat orqali 2-holatga barmoqlar qirsillatilishi bilan ko'tariladi; qo'ldastalar kaftlar bilan o'ziga qarab aylantiriladi, o'ng qo'l bel orqasiga kaft tersi bilan qo'yiladi. Gavda va bosh chap qo'l
to'rt i	

	harakatini kuzatadi.
5-6-taktlar	4-takt harakatlari 2 marta takrorlanadi. Sahna o'rtasida tomoshabinga qarab qoladi, oyoqlar 4-holatda, chap oyoq oldinda.
7-takt	O'ng qo'l 1-holatda, chap qo'l 7-holatda.
bir i	Joyida chapga bitta to'liq aylanish.
ikki i	Chap oyoq yerdan ozgina ko'tarilib, chap tomonga uchi bilan qo'yiladi. O'ng oyoq "sirpanma" urg'u bilan chap tomonga uchi bilan qo'yiladi (bitta "nuqtali aylanish"). Qo'llar holatini o'zgartirmaydi.
uch i	
to'rt i	"Bir i" harakatlari 3 marta takrorlanadi.
8-takt	7-takt harakatlarini takrorlab, chap tomonga aylanish bilan tugallanadi, qo'llar holati o'zgarmaydi. Oxirgi sanoqqa oyoqlar 5-holatda bo'ladi, chap oyoq oldinda, tizzalar bukilgan.
9-takt	Oyoqlar holati o'zgarmaydi, o'ng qo'ldasta qirrasi bilan chap ko'ksiga asta yaqinlashadi, kaft pastga qaragan, gavda va bosh qo'l harakatini kuzatadi.
bir i	
ikki i	Oyoqlar holati o'zgarmaydi, o'ng qo'l 1-holatga ochiladi, gavda va bosh o'ng qo'l harakatini kuzatadi.
uch i	
to'rt i	
10-takt	Oyoqlar holati o'zgarmaydi, o'ng qo'ldasta qirrasi bilan chap ko'ksiga asta yaqinlashadi, kaft pastga qaragan, gavda va bosh o'ng qo'l harakatini kuzatadi.
bir i	
ikki i	Qo'lning 6-holatida ko'ndalang qarsak, qarsakdan qo'llar 1-holatga keskin ochiladi, kaftlar yuqoriga qaragan, bir vaqtda chap oyoq yerdan ko'tarilib rasmiy holatga tushadi, tizzalar rostlanadi.
uch i	
to'rt i	Tinish.
11-takt	Soat mili yo'nalishiga qarshi, yarim aylana bo'yicha sahna orqasining o'rtasi tomon, yo'nalish bo'yicha harakat.
bir i	Chap oyoqdan urg'u bilan to'liq qadam, o'ng oyoq "sirpanma" urg'u bilan chap oyoq yoniga rasmiy holatga keladi (bitta "to'liq tepma" harakati). Qo'llar 1-holatda salgina orqada, kaftlar oldinga
ikki i	

	qaratilgan.
<i>uch i</i>	Harakat 3 marta takrorlanadi.
<i>to‘rt i</i>	Takt davomida bosh galma-galdan o‘nga-chapga buriladi.
<i>12-13-taktlar</i>	11-takt harakatlari 2 marta takrorlanadi. Sahna orqasining o‘rtasida tomoshabinga qarab, oyoqlar 2-holatda.
<i>14-takt</i>	Joyida.
<i>bir i</i>	Tizzalar bukiladi, qo‘llar 1-holatda, kaftlar pastga qaratiladi.
<i>ikki i</i>	Tizzalar rostlanadi, kaftlar yuqoriga qaratiladi, gavda va bosh salgina o‘ngga burilib, orqaga ozgina egiladi.
<i>uch i</i>	“Bir i”, “ikki i” harakatlari takrorlanadi, gavda va bosh salgina
<i>to‘rt i</i>	chapga va orqaga burilib, egiladi.
<i>15-takt</i>	14-takt harakatlari takrorlanadi. Tomoshabinga qarab, oyoqlar 2-holatda, oxirgi sanoqda qo‘llar belni oldidan quchadi.
<i>16-takt</i>	Sahna markaziga aylanib boriladi, oyoq harakati “sirpanma urg‘u” bilan “ufo”.
<i>bir i</i>	O‘ng oyoq bilan oldinga to‘liq qadam qo‘yiladi, chap oyoq tizzasi bukilib, tovoni yerdan ozgina ko‘tariladi. O‘ng qo‘ldasta tushirilib, yuz o‘sha 2-holatga ko‘tariladi. Gavda va bosh o‘ng qo‘l harakatini kuzatadi.
<i>ikki i</i>	Chap oyoq tizzasi bukilgan holda, o‘ng oyoq yoniga uchi bilan qo‘yiladi, o‘ng qo‘l kafti yuqoriga qaragan holda 1-holatga ochiladi. Gavda va bosh o‘ng qo‘l harakatini kuzatadi.
<i>uch i</i>	O‘ng oyoqdan oldinga va sal o‘ngroqqa to‘liq qadam qo‘yiladi, tizza bukiladi; chap oyoq tovoni “sirpanm aurg‘u” bilan oldinga, salgina yuqoriga ko‘tariladi, tizzalar rostlanadi, o‘ng qo‘l oldindan belni quchadi. Gavda va bosh o‘ng qo‘l harakatini kuzatadi.
<i>to‘rt i</i>	Chap oyoq va chap qo‘ldan harakatlar takrorlanadi, bir vaqtda o‘ng tomonga bitta to‘liq aylanish ijro etiladi.
<i>17-18-taktlar</i>	16-takt harakatlari 2 marta takrorlanadi (ikkita to‘liq aylanish): oyoqlar 2-holatda. Qo‘llar 1-holatda, kaftlar yuqoriga qaragan.

19-takt	Sahna markazida tomoshabinga qarab qolinadi.
bir i	Joyida.
ikki i	Tizzalar bukiladi, qo‘llar 1-holatda, kaftlar pastga qaratiladi.
uch i	Tizzalar rostlanadi, kaftlar yuqoriga qaratiladi, gavda va bosh salgina o‘ngga va orqaga egiladi.
to‘rt i	“Bir i” va “ikki i” harakatlari takrorlanadi, gavda va bosh salgina chapga va orqaga egiladi.
20-takt	19-takt harakatlarining takrorlanishi. Oxirgi sanoqqa oyoqlar 6-holatga keladi, o‘ng oyoq uchi bilan qo‘yilgan. O‘ng qo‘l kafti bilan bosh orqasiga qo‘yiladi, chap qo‘l 6-holatdan sal yuqoriroqda, kaftlar to‘g‘riga, barmoqlar yuqoriga qaratilgan.
IV - shakl	
Musiqqa № 5	
Musiqqa o‘lchami 4/4. 19 takt	
“Avji”	
1-takt	Sahna oldi markazi tomon tomoshabinga qarab yuriladi.
bir i	O‘ng oyoq to‘g‘riga, chaproqqa to‘liq qadam qo‘yadi, chap oyoq tovonni yerdan ko‘tarilib, tizzalar bukiladi.
ikki i	Chap oyoq uchida – 3-holatga o‘tadi, tizzalar rostlanadi, gavda salgina o‘ngga buriladi.
uch i	Tizzalar 2 marta bukiladi va shu zahoti rostlanadi (“chalmashli yurish” yarim o‘tirish bilan bitta harakat).
to‘rt i	“Bir i” va “ikki i” harakatlari chap oyoqdan, gavdaning salgina chapga qayrilishi bilan takrorlanadi. Takt davomida o‘ng qo‘ldasta kafti bilan bosh orqasiga qo‘yiladi, chap qo‘l 6-holatdan yuqorida, kafti to‘g‘riga, barmoq uchlari yuqoriga qaragan.
2-takt	1-takt harakatlari takrorlanadi.
3-takt	1-taktning “bir i” va “ikki i” harakatlari takrorlanadi.

<i>bir i</i>	Chap oyoq o'ng oyoq yoniga, rasmiy holatga qo'yiladi.
<i>ikki i uch i</i>	Qo'llar "gulbargi"dan 1-holatga kaftlar yuqoriga qaratib ochiladi,
<i>to'rt i</i>	bosh salgina yuqoriga qaraydi.
<i>4-takt</i>	Sahna orqasining markaziga orqasi bilan yuradi.
<i>bir i</i>	O'ng oyoq orqaga to'liq, chap oyoq o'ng oyoq yoniga rasmiy
<i>ikki i</i>	holatga qo'yiladi, qo'llar holati o'zgartirilmaydi. "Bir i"ga gavda salgina o'ngga, "ikki i"ga salgina chapga buriladi.
<i>uch i</i>	Tizzalar bukiladi va rostlanadi, bir vaqtda qo'llar belni
<i>to'rt i</i>	oldidan quchadi, gavda salgina o'ngga, keyin chapga buriladi.
	"Chalmashli yurish" harakati bilan orqaga yuriladi.
<i>5-takt</i>	O'ng oyoq o'ng tomonga uchiga qo'yiladi, bir vaqtda o'ng
<i>biri</i>	qo'l 1-holatga ochiladi.
<i>ikkii</i>	O'ng oyoq 5-holatga, ya'ni o'ng oyoq chap oyoq orqasiga
	to'liq qo'yiladi, tizzalar bukiladi, o'ng qo'l bel oldida. Gavda va bosh o'ng qo'l harakatini kuzatadi.
<i>to'rt i</i>	Chap qo'l va chap oyoq harakatlarining takrorlanishi. Gavda
	va bosh chap qo'l harakatlarini kuzatadi.
<i>6-8-taktlar</i>	5-takt harakatlari 3 marta takrorlanadi.
<i>9-takt</i>	Ijrochi o'ng oyoqdan orqaga to'rtta oddiy mayda qadam
	bilan, sahna orqasining markaziga kelib to'xtaydi, oyoqlar rasmiy holatda qoladi. Qo'llar sekin-asta 1-holatga, kaftlar yuqoriga qaragan holatga ochiladi. Gavda va bosh galma-galdan o'ngga-chapga egiladi.
<i>10-takt</i>	Soat mili yo'nalishiga qarshi kichik davra qilib yuradi.
<i>bir i</i>	Chap oyoq kichik qadam va urg'u bilan to'liqqa qo'yiladi va
	davra yo'nalishi bo'ylab aylanish bilan bir vaqtda oldida qarsak uriladi, barmoqlar yuqoriga qaragan holda gavda va bosh orqaga, o'ngroqqa egiladi.
<i>ikki i</i>	O'ng oyoq chap oyoq yoniga rasmiy holatga qo'yiladi, qo'llar
<i>uch i</i>	qarsakdan mayinlik bilan ikki tomonga ochiladi, gavda va bosh

	orqaga, o'ngroqqa egiladi, ("to'liq tepma" oyoq harakati 1 marta ijro etiladi).
<i>to'rt i</i> 11-12-taktlar	Harakatlar 3 marta takrorlanadi. 10-takt harakatlari 2 marta takrorlanib, sahna orqasining markazida tomoshabinga chap yelkasi bilan qoladi, oyoqlar rasmiy holatda, qo'llar kaftlari pastga qaragan holda 6-holatda.
13-takt <i>bir i</i> <i>ikki i</i> <i>uch i</i> <i>to'rt i</i> 14-15-taktlar	Sahnaning yuqori o'ng burchagiga tomoshabinga qarab chap yelkasi bilan yuradi. Bitta "rasmiyufori" o'ng oyoqdan. Qo'llar 6-holat orqali to'lqinli harakat bilan 5-holatga, o'ng tomonga o'tadi. Bitta "rasmiy ufori" chap oyoqdan, qo'llar 5-holatga chap tomonga o'tadi (qo'l harakati "yirik to'lqin"). 13-takt harakatlari 2 marta takrorlanadi va tomoshabinga qarab chap tomonga o'ng yelka yarim aylanadi; oyoqlar rasmiy holatga keladi, qo'llar belni oldidan quchadi.
16-takt <i>bir i</i> <i>ikki i</i> <i>uch i</i> <i>to'rt i</i> 17-18-taktlar	Tomoshabinga o'ng yelka bilan sahna orqasining markaziga yuradi. "Sirpanma urg'u" bilan bitta "ufori" harakati chap oyoqdan boshlanadi. O'ng qo'l kafti pastga qarab, 1-holatga ochiladi, barmoqlar yarim musht holatida. O'ng oyoqdan harakatlar takrorlanadi, chap qo'l 1-holatga, kafti pastga qaragan, barmoqlar yarim musht, bir vaqtda o'ng qo'l belga qaytadi. 16-takt harakatlari 2 marta takrorlanadi, sahna orqasining markazida harakat o'ng tomonga tomoshabinga qarab aylanish bilan tugaydi; oyoqlar 3-holatda, o'ng oyoq - uchida, qo'llar 1-holatga o'tadi.
19-takt	6-holatda barmoqlar yuqoriga qaragan holda qarsak, qarsakdan qo'llar 1- va 2-holatlar orqali (yuz osha) rasmiy holatga keladi.

	IKKINCHI QISM V-shakl <i>Musiqi № 6</i> <i>Musiqi o'ldhami 6/8. 22 takt</i>
1-2-taktlar	Sahna orqasining markazida. Oyoqlar 6-holatga o'tadi, chap oyoq - uchida, tizzalar bukilgan, bir vaqtda gavda salgina o'ngga buriladi, bosh chapga qaraydi va yuzning o'ng tomonida tezlik bilan oltita qarsak chalinadi.
3-8-taktlar	Sahna markaziga soat yo'nalishiga qarshi yarim aylana qilib, yo'nalish bo'yicha yuzi bilan yuradi. Chapga yarim aylanib, soat mili yo'nalishi bo'yicha qayta yarim aylana bilan sahna orqasining markaziga, yo'nalish bo'yicha yuzi bilan yuradi. Oyoq harakati "to'liq tepma" chap oyoq bilan. Qo'llar 1-holatga o'tadi va oltita takt davomida harakat o'zgarmaydi. Harakatni o'ng tomonga bitta aylanish bilan tomoshabinga qarab tugatadi.
9-10-taktlar	Sahna oldining markazi tomon chap oyoqdan boshlab, oddiy qadamlar bilan yuradi. Qo'llar gavda oldida oddiy, keskin harakatlarni bajaradi. Oxirgi sanoqqa qo'llar tirsagi bukilib, yuz osha 2- va 1-holatlar orqali keskin ko'tarilib, 6-holatda barmoqlari yuqoriga qaragan holda qarsak chaladi, qarsakdan qo'llar 1-holatga yarim musht qilingan barmoqlar bilan ochiladi. Sahna oldi markazida tomoshabinga qarab qoladi, oyoqlar 6-holatda, chap oyoq - uchida.
11-takt	"Yon yo'rg'a" harakati bilan sahna oldidan o'ng tomondagi past burchakka tomoshabinga qaragan holda yuradi.
bir	
ikki	O'ng oyoqdan o'ng tomonga to'liq kichik qadam, chap oyoq
uch	6-holatga oyoq uchiga qo'yiladi, tizzalar bukiladi va rostlanadi.

to‘rt besh olti	Qo‘llar mayinlik bilan “gul bargi” harakatiga kelib, urg‘u bilan 1-holatga, kaftlar pastga qaragan holda, yarim musht bilan ochiladi.
12-takt	Yuqoridagi harakatlarning takrorlanishi. 11-takt harakatlari takrorlanadi. Oxirgi sanoqqa chap qo‘ldasta kafti bilan ko‘ksiga qo‘yiladi, o‘ng qo‘l 1-holatda kafti pastga qaragan holda qoladi. Sahnaning pastki o‘ng burchagida oyoqlar 6-holatda, chap oyoq - uchida.
13-takt	Ijrochi chapga chorak burilish qilib, yarim aylana bilan soat mili yo‘nalishi bo‘yicha yuzi bilan sahna oldining markazigacha boradi. Oyoq harakati - oddiy qadamlar bilan, chap oyoqdan yuriladi. Chap qo‘l kafti bilan ko‘ksiga yengil urishlar qiladi.
14-takt	13-takt harakatlari takrorlanadi. Sahna oldining markazida tomoshabinga qarab, oyoqlar 6-holatda, chap oyoq - uchida qoladi. Qo‘llar 1-holatda, kaftlar pastga qarab, barmoqlar yarim mushtga yig‘ilgan holda harakat bilan tugallanadi.
15-16-taktlar	“Yon yo‘rg‘a” harakati bilan sahna chap tomonining past burchagiga yuriladi (11-takt harakatlari 2 marta takrorlanadi). Qo‘llar har bir taktga “gul bargi” orqali 1-holatga, barmoqlar yarim musht va kaftlar pastga qaragan holda ochiladi. Oyoqlar harakatini 6-holatda, chap oyoq - uchida tugallaydi.
17-takt	Ijrochi o‘ngga chorak aylanib, qiya yo‘l bilan sahna markaziga tez qadamlar bilan, yo‘nalish bo‘yicha yuzi bilan o‘ng oyoqdan boshlab yuradi. Markazga kelib chap tomonga burilib, tomoshabinga qarab qoladi. Oyoqlar 6-holatga keladi, chap oyoq - uchida. Qo‘llar takt davomida 1-holatda, barmoqlar yarim mushtga yig‘ilgan.
18-takt	Joyida. Tizzalar bukiladi, bir vaqtda yuzining o‘ng tomonida to‘rtta qarsak chaladi. Takt oxirida qo‘llar 1-holatga, kaftlar yuqoriga qaragan holatga ochiladi.

19-takt bir, ikk i uch, to‘rt besht	Joyida aylanish - bitta to‘liq aylanish o‘ng tomonga o‘ng oyoq bilan, uchta yon yo‘rg‘a” harakati oyoq to‘liq, yerga tushishi bilan. Qo‘llarning tirsaklari bukilib, tushirilgan qo‘ldastalari bilan yelkalariga yaqinlashib, 1-holatga kaftlar yuqoriga qaragan holatda ochiladi.
olti	Harakatlarning takrorlanishi.
20-21-taktlar	19-takt harakatlari 2 marta takrorlanadi. Sahna markazida tomoshabinga qarab qoladi, oyoqlar 6-holatda, chap oyoq - uchida, qo‘llar 1-holatda - kaftlari yuqoriga qaragan.
22-takt bir, ikki uch, to‘rt besht	Sahna orqasining markaziga orqasi bilan yurish. Chap oyoq uchidan orqaga urg‘u bilan kichik qadam, o‘ng oyoq “sirpanma” harakat bilan chap oyoq yoniga 6-holatga qo‘yiladi (“oqsatma” harakati). Qo‘llar 4-holatning o‘ng tomonidan yuqoriga olib o‘tiladi.
olti	Oyoq harakatlari 2 marta takrorlanadi, qo‘llar holati o‘zgarmaydi.
VI - shakl Musiqqa № 7 Musiqqa o‘lchami 6/8. 16 takt	
1-2-taktlar	Ijrochi yonlamasiga sahnaning chap pastki burchagi tomon qiya yo‘nalishda, chap yelkasi bilan sakkizta “oqsatma” harakatini chap oyoqdan boshlab ijro etadi, bir vaqtda o‘ng tomondan 4-holatning sal yuqorirog‘ida barmoqlarini qirsillatadi.
3-takt	Ijrochi yo‘nalishi bo‘yicha chap tomonga yuzi bilan burilib, chap oyoqdan oddiy qadamlar bilan yurishini davom ettiradi, qo‘llar 1-holatga, kaftlar yuqoriga qaratilib ochiladi.
4-takt bir	“Shox” joyida. Oyoqlar 3-holatda qoladi, chap oyoq - uchida, qo‘l o‘ng

	tomonda 4-holatda, gavda salgina oʻngga buriladi.
ikki uch toʻrt besh olti	Chap oyoqdan chapga bitta toʻliq aylanish. Qoʻllar “ikki” sanogʻiga 3-holatga (chap qoʻl yuqorida), “gulbargi”, “besh”ga 6-holatga tez qarsak chalib (barmoqlar yuqoriga qaragan), 1-holatga - kaftlar pastga, barmoqlar yarim musht holatda ochiladi. “Shox”dan keyin tomoshabinga qarab, oyoqlar 6-holatda, chap oyoq uchida qoladi.
5-8-taktlar	Ijrochi sahna oldidan yonlamasiga sahnaning oʻng pastki burchagi tomon yuzi bilan tomoshabinga qarab “yon yoʻrgʻa” harakatini bajaradi. Qoʻllar har bir taktning “bir - ikki - uch” sanogʻiga “gul bargi” harakati va urgʻu bilan 1-holatga kaftlar pastga qaragan, barmoqlar yarim musht holatda ochiladi; “toʻrt - besh - olti” sanogʻiga qoʻllar harakati takrorlanadi. Sahnaning oʻng pastki burchagida tomoshabinga qaragan holda, oyoqlar rasmiy holatda, qoʻllar chap tomonda 5-holatdan sal yuqorida qoladi.
9-takt	Ijrochi oʻng tomonga burilib, yarim aylana yoʻnalishi boʻyicha yuzi bilan sahna markaziga boradi.
bir ikki	Oʻng oyoq uchi bilan oldinga qadam qoʻyiladi, tizzalar bukiladi, bir vaqtda chap oyoq “yalatma” harakati bilan yerdan koʻtariladi, oyoq uchi pastga qaraydi (“yalatma” yurish harakati). Qoʻllar chap tomonda 5-holatdan yuqorida barmoq qirsillatishi bilan, oʻng qoʻldastasi oʻziga urgʻu berib aylanadi.
uch toʻrt	Chap oyoq uchi bilan oldinga qadam qoʻyiladi, tizzalar bukilgan holda qoladi, bir vaqtda oʻng oyoq “yalatma” harakat qilib, oyoq uchi yerdan pastga qaragan holda koʻtariladi; qoʻllar “bir - ikki” sanogʻidagi harakatni takrorlaydi.
besh olti	Oʻng oyoqdan bitta “rasmiy ufori”, tizzalar erkin, qoʻl qirsillatishi 2 marta.
10-11-taktlar	9-takt harakatlari 2 marta takrorlanadi. Sahna markazida tomoshabinga qarab, oyoqlar 6-holatda, chap oyoq uchida qoladi.







12-takt	Sahna markazida harakat joyida: tizzalar bukiladi, bir vaqtda yuzning o'ng tomonida to'rtta qarsak uriladi; qarsakdan qo'llar 1-holatga, kaftlar yuqoriga qarab ochiladi.
13-takt	Joyida aylanish.
bir	O'ng tomonga ikkita "yon yo'rg'a" harakati bilan, o'ng oyoqdan, tizzalar bukilgan holatda, oyoqlar to'liq yerga qo'yilib, to'liq aylanish ijro etiladi. Bir vaqtda tirsaklar bukilib, qo'ldastalar tushirilgan holda, qo'llar yelkalarga yaqinlashib, 1-holatga, kaftlar yuqoriga qaratilib ochiladi.
ikki	
uch	
to'rt	
besh	
olti	Harakatlarning takrorlanishi.
14-15-taktlar	13-takt harakatlari 2 marta takrorlanadi. Sahna markazida tomoshabinga qarab qoladi, oyoqlar 6-holatda, chap oyoq - uchida, qo'llar 1-holatda, kaftlar yuqoriga qaragan.
16-takt	Sahna orqasining markaziga orqasi bilan yuradi. Taktning har bir sanog'iga chap oyoq bilan kichik urg'uli qadam, o'ng oyoq "sirpanma" harakat bilan chap oyoq yoniga to'liq qo'yiladi ("oqsatma" harakati). Qo'llar "bir" sanog'iga o'ng tomon – 4-holatning yuqorirog'iga o'tkaziladi va takt davomida o'zgarmaydi. Sahna orqasining markazida tomoshabinga qarab to'xtaladi, gavda o'ng tomonga sal burilib, oyoqlar 6-holatda, chap oyoq uchida qoladi.
VII-shakl	
Musiqqa № 8	
Musiqqa o'lchami 6/8. 20 takt	
1-takt	"Nuqtali yurish" bilan sahna oldining markazga yonlamasiga

<i>bir</i>	yuradi. Chap oyoq uchi bilan chapga qadam qo'yiladi, chap yelka tomoshabinga buriladi.
<i>ikki uch to'rt</i>	Chap oyoq ozgina chapga suriladi, tovon tushiriladi; o'ng qo'l 2-holatga, chap qo'l 1-holatdan pastga o'tkaziladi.
<i>to'rt</i>	Chapga o'ng oyoq uchida chap oyoqqa chalmash qilib qo'yiladi.
<i>besht olti</i>	O'ng oyoq biroz chapga qo'yiladi, tovon tushiriladi; qo'llar harakati o'zgarmaydi. Taktning har bir sanog'iga chap yelka ko'tariladi va tushiriladi ("yelka qoqish" harakati).
<i>2-4-taktlar</i>	1-takt harakatlari 3 marta takrorlanadi, sahna oldining markazida chap tomonga bitta aylanib tomoshabinga qarab qoladi. Oxirgi sanoqqa oyoqlar 3-holatda, o'ng oyoq uchida qoladi; qo'ldastalar tashqi tomonga urg'uli aylanish bilan 2-holatga, kaftlari yuqoriga qarab qoladi.
<i>5-takt</i>	Joyida. Oyoqlar holatni o'zgartirmaydi. Qo'ldastalar o'ziga qarab aylantirilib, "osmon" harakatiga ko'tariladi.
<i>6-takt</i>	Joyida o'ng tomonga bitta to'liq, aylanish.
<i>bir, ikki uch, to'rt besh</i>	O'ng oyoq o'ng tomonga uchi bilan qo'yiladi, so'ng chap oyoq "sirpanma" harakat bilan o'ngga, (bitta "tepib aylanish" harakati); bir vaqtda qo'llar o'zidan tashqariga aylanib, gavda va bosh salgina o'ngga egiladi.
<i>olti</i>	Aylanishni davom ettirib, harakatlar takrorlanadi.
<i>7-8-taktlar</i>	6-takt harakatlari 3 marta takrorlanadi, aylanish davometadi. Oyoqlar 5-holatda, o'ng oyoq oldinda, tomoshabinga qarab qoladi. Oxirgi taktning so'ngida qo'llar belni oldidan quchadi.
<i>9-takt</i>	Sahna orqasining markaziga orqasi bilan yuradi.
<i>bir</i>	O'ng oyoq uchi bilan o'ng tomonga qo'yiladi, o'ng qo'l 1-holatga, yarim musht holatiga ochiladi.
<i>ikki uch to'rt</i>	O'ng oyoq chap oyoq orqasiga chalmash qilib, to'liq qo'yiladi, tizzalar bukiladi ("chalmashli yurish"), o'ng qo'l belga


	qaytadi.
besht	Chap oyoq va chap qo'ldan harakatlar takrorlanadi. Gavda va
olti	bosh takt davomida harakatlanuvchi qo'lni kuzatadi.
10-takt	9-takt harakatlari takrorlanadi.
11-takt	O'ng oyoqdan oddiy qadam bilan orqaga yuriladi. Qo'llar 1-holatga ochiladi. Kaftlar yuqoriga qaraydi.
12-takt	Bu harakat sahna orqasining markazida bajariladi: "shox" ijro etiladi - chap oyoqdan boshlab chap tomonga to'liq aylanish. Takt oxirida oyoq 1-holatga qo'yiladi, qo'l harakati 6-holatda qarsak bilan tugaydi va 4-holatga ochiladi. O'ng tomonda, sahna orqasining markazida qolinadi, gavda biroz o'ngga burilib, yuz tomoshabinga qaraydi.
13-takt	Sahna markaziga yon bilan yurish.
bir	Chap oyoq to'voni bilan, kichik urg'uli qadam bilan yonga
ikki	qo'yiladi, tizza bukiladi va rostlanadi. O'ng oyoq chap oyoqning
uch	yoniga sirpantirib to'liq qo'yiladi. Bir vaqtning o'zida chorak
to'rt	aylanish o'ng tomonga bajariladi (tomoshabinga chap yelka bilan).
besht	Qo'llar o'ng tomonga 4-holatga keladi, o'ng qo'l qirsillatiladi.
olti	Oyoq harakati 2 marta takrorlanadi, qo'llar holati o'zgarmaydi.
14-takt	13-takt takrorlanadi. Raqqosa sahna markaziga borib chapga buriladi (tomoshabinga yuz bilan). Oxirgi sanoqqa oyoqlar rasmiy holatga qo'yiladi, tizzalar bukiladi, qo'llar belning oldi tomoniga qo'yiladi.
15-takt	Sahna oldining markaziga qarab "chalmashli yurish" harakati bilan yuriladi.
bir	O'ng oyoq o'ng tomonga - oldinga, uchi bilan olib kelinadi,
ikki	tizzalar rostlanadi, so'ng o'ng oyoq to'liq chap oyoqning ustidan
uch	chalishtirilib, tizzalar bukiladi.
to'rt	O'ng qo'l 1-holatga ochiladi, kaftlar musht holatda belga

	qaytib tushadi.
besht	Harakatlar chap oyoq va chap qo'ldan takrorlanadi.
olti	Gavda va bosh takt davomida harakat qilayotgan qo'lni kuzatadi.
16-takt	Sahna oldining markazida tomoshabinga qarab qolinadi. Oyoqlar 3-holatda, o'ng oyoq uchi bilan qo'yilgan.
bir, ikki	Joyida. "Sekin shox" - chapga chap oyoq bilan ijro etiladi.
uch	Qo'llar 6-holatga ochiladi, kaftlar bir-biriga qaraydi, barmoqlar yaqinlashgan. Gavda biroz chapga buriladi, bosh qo'lga egiladi.
to'rt	
besht	Oyoq 3-holatga keladi, chap oyoq uchida, gavda biroz o'ngga, bosh chapga qaraydi. Qo'llar 4-holatga, o'ngga olib o'tiladi.
olti	Tinish.
17-18-taktlar	"Shox" qaytariladi. Chapga chap oyoq bilan to'liq aylanish. Qo'llar ikki takt davomida 3-holatga olib kelinadi (chap qo'l yuqorida), "gul bargi" o'zining oldida, so'ng 3-holatga olib kelinadi (o'ng qo'l yuqorida). Tomoshabinga qarab qolinadi.
19-20-taktlar	"Salom" ijro etiladi: chap qo'l rasmiy holatga tushiriladi, o'ng qo'l 1- va 6-holatlardan ko'ksiga qo'yiladi, bosh va gavda oldinga mayin egiladi.


«ФАРФОНА РУБОЙЙСИ»

	
1- ШАКЛ. 1-14 ТАКТЛАР	2- ШАКЛ. 1-5 ТАКТЛАР
	
2- ШАКЛ. 6-9 ТАКТЛАР	2- ШАКЛ. 10-15 ТАКТЛАР
	
3- ШАКЛ. 1-10 ТАКТЛАР	3- ШАКЛ. 11-15 ТАКТЛАР


«ФАРҒОНА РУБОИЙСИ»



«ФАРФОНА РУБОЙСИ»



«ФАРҒОНА РУБОЙЙСИ»



33

ФАРҒОНА РУБОИЙСИ

Ўзбек халқ қўшиғи







Raqs san'ati fanidan test savollari

1. Qaysi bandda “Raqs poema” deb nom olgan yakka raqs to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A) “Roxat”
B) ”Dil kuylasin”
*S) “Tanovar”
D) “Pilla”

2. “Doira dars” raqs xarakatlari to‘plamining asoschilari qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
*A) Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, M.Turg‘unboyeva
B) T.Inog‘omov, Qodir Mo‘minov
S) I.Oqilov, M.Qori-Yoqubov
D) Q.Dustmuxamedova, M.Turg‘unboyeva

3. M.Turg‘unboyeva nomidagi “Baxor” Davlat raqs ansambli nechanchi yil tashkil etilgan?
*A) 1957 y
B) 1950 y
S) 1960 y
D) 1948 y

4. O‘zbek milliy raqs san’ati asoschisi moxir raqqos va sozanda kim?
A) Isoxor Oqilov
B) Nazriddin Shermatov
*S) Usta Olim Komilov
D) Qodir Mo‘minov

5. I.Oqilov ijodiy faoliyatini nechanchi yillardan boshlagan?
*A) 1930 y
B) 1920 y

S) 1940 y

D) 1938 y

6. M.Turg'unboyeva nechanchi yilda tavallud topgan?

A) 1907 y

*B) 1913 y

S) 1909 y

D) 1927 y

7. O'zbek raqs san'ati nechanchi yillardan shakllana boshlagan?

A) 1920 y

B) 1930 y

*S) 1929 y

D) 1927 y

8. Bernara Qoriyeva san'atning qaysi soxasida ijod qilgan?

A) Sirk

*B) Raqs san'ati, balet

S) Teatr

D) Kino

9. R.Karimovanning o'zbek raqs san'atidagi aloxida o'rin tutgan buyuk ishi qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Saxnalashtirgan raqslari

B) Balet san'atida ijro etgan partiyalari

*S) O'zbek raqs san'ati buyuk namoyondalari ijodi xaqidagi kitoblarning yaratilishi

D) Balet san'atida ijro etgan duetlari

10. 1936 yilda T.Jalilov tashkil etgan Katta ashula va raqs ansambli nechanchi yildan "Shodlik" ansambli deb yuritila boshlagan?

- A) 1970 y
- *B) 1968 y
- S) 1974 y
- D) 1950 y

11. “Sadr” raqsini kim sahnalashtirgan?

- A) M. Turgʻunboyeva
- *B) Usta Olim Komilov, Tamaraxonim
- S) Q. Mirkarimova
- D) R. Karimova

12. “Katta oʻyin” raqsini kim sahnalashtirgan?

- A) Gulnora Mavayeva
- B) Begimxon aya Komilova
- *S) Usta Olim Komilov, Tamaraxonim
- D) I. Oqilov

13. “Paxta” raqsi nechanchi yillar sahnalashtirilgan?

- A) 1935-36 yil
- B) 1937-39 yil
- *S) 1935-37 yil
- D) 1938-40 yil

14. Birinchioʻzbek balerinasini kim?

- A) Feruza Alimova
- *B) Galiya Izmailova
- S) Bernara Qoriyeva
- D) Guli Xamrayeva

15. Birinchioʻzbek baleti qaysi banda toʻgʻri koʻrsatilgan?

- A) “Shopeniano”
- B) “Bog‘chasaroy fontani”
- *S) “Oq bilak”
- D) “Qirq qiz”

16. M.Turg‘unboyeva saxnalashtirilgan raqslar qaysi banda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- *A) “Tanovar”, “Munojot”, “Pilla”, “Roxat”
- B) “Lagan raqsi”, Dil kuylasin”
- S) “Katta o‘yin”, Shodiyona”
- D) “Navqironim qani”, “Temuriylar malikalari”

17. O‘zbek raqs san’ati asoschilari qaysi banda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- *A) Usta Olim Komilov, M.Turg‘unboyeva, Tamaraxonim
- B) Q.Mirkarimova, I.Oqilov
- S) Tamaraxonim, Q.Mirkarimova
- D) G. Raximova, R.Karimova

18. “O‘zbekraqs” Mil.birl. tuzish xaqidagi Prezedent farmoni qachon chiqan?

- *A) 1997 y 8-yanvar
- B) 1999 y 17-aprel
- S) 2000 y 10-dekabr
- D) 2003 y 20-dekabr

19. M.Turg‘unboyeva nechanchi yillardan truppada ishlay boshlagan?

- A) 1925 y
- *B) 1929 y
- S) 1924 y
- D) 1932 y

20. “Surxon raqs maktabi” o‘quv-qo‘llamasi muallifi kim?

- A) F.Solixova
- B) R.Bo‘riyeva
- S) X.Ixtiyorova
- *D) SH. Qurbonova

21. Tamaraxonim nechanchi yillardan ijodiy faoliyatini boshlagan?

- A) 1917 yil
- B) 1916 yil
- *S) 1920 yil
- D) 1945 yil

22. Charxlarda raqqosa muovzanatini saqlash uchun nima qilishi kerak?

- A) O‘zini bo‘sh tutishi kerak
- *B) O‘zini yuqoriga tortishi kerak
- S) O‘zini orqaga tutishi kerak
- D) O‘zini oldinga tortishi kerak

23. “Qaldirg‘och” raqsi kim tomonidan va qachon saxnalashtirilgan?

- A) M.Turg‘unboyeva 1950 yil
- B) Tamaraxonim 1963 yil
- S) Q. Mirkarimova 1962 yil
- *D) R.Karimova 1964 yil

24. Xorazm raqs maktabi nechta turga bo‘linadi?

- *A) 3
- B) 4
- S) 5
- D) 2

25. O‘zbek raqs uchun o‘quv qo‘llanmani kim yozgan?

- *A) R.Karimova
- B) Tamaraxonim
- S) I.Oqilov
- D) Q.Muminov

26. Farg‘onacha raqsda tebranish qanday xarakatlar turiga kiradi?

- A) Muqomlarga
- B) Qo‘l xarakatlariga
- *S) Gavda xarakatlariga
- D) Oyoq xarakatlariga

27. Ikkinchi qarsak qayerda chalinadi?

- A) Oldimizda
- *B) Quloq ostida
- S) Orqamizda
- D) Tizzamizda

28. Aylanishlar necha turga bo‘linadi?

- *A) 4
- B) 3
- S) 9
- D) 5

29. “Dil kuylasin” raqsini ilk bor ijro etgan raqqosa kim?

- *A) D.Jabborova
- B) M.Axmedova
- S) F.Solihova
- D) M.Ergashova

30. “Lagan o‘yini “ raqsini kim saxnalashtirgan?

- A) Usta Olim Qomilov
- B) Nazriddin Shermatov
- S) Qodir Mo‘minov
- *D) Isoxor Oqilov

31. “Munajat” raqsini ilk marta kim ijro etgan?

- *A) M. Turg‘unboyeva
- B) Tamaraxonim
- S) Q.Mirkarimova
- D) G.Matyaqubova

32. Q.Do‘stmuxamedova ijro etgan “Munajat” raqsini kim saxnalashtirgan?

- *A) I.Oqilov
- B) Tamaraxonim
- S) Q.Mirkarimova
- D) G.Matyaqubova

33. Q.Do‘stmuxamedova ijro etgan “Tong malikasi” raqsini kim saxnalashtirgan?

- *A) I.Oqilov
- B) Tamaraxonim
- S) Q. Mirqarimova
- D) G.Matyaqubova

34. “Bahor valsi” raqsini kim saxnalashtirgan?

- A) Q.Dustmuxamedova
- *B)M.Turg‘unboyeva
- S) Q.Mirkarimova
- D) G.Matyaqubova

35. O‘zbek raqs maktablari o‘zaro nimasi bilan farq qiladi?

- *A) Musiqasi, xarakatlari, kiyimlari, taqinchoqlari
- B) Musiqasi, xarakatlari
- S) Kiyimlari, taqinchoqlari
- D) Xarakteri, xarakatlar

36. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rasatayotgan professional raqs ansamblari?

- A) Bulbulcha, Baxor
- B) Professional raqs ansamblari yo‘q
- S) Viloyatlardagi barcha ansamblar
- *D) O‘zbekiston, Toshkent zebolari, Sabo

37. O‘zbekistonda tashkil etilgan birinchi professional raqs ansambli?

- A) Tanovar
- B) Ofarin
- S) Sumalak
- *D) Baxor

38. O‘zbekiston folklor raqs janri necha yo‘nalishga bo‘linadi?

- A) 2
- B) 5
- *S) 4
- D) 3

39. Raqs sahnalashtirish fani necha qismdan iborat?

- *A) ikki
- B) olti
- S) uch
- D) besh

40. Nazariy qismda nima o‘rganiladi?

- A) raqs sahnalashtirishni

- B) raqs terminlarini
- S) ijrochilar bilan ishlashni
- *D) raqs sahnalashtirish usullari va shakllari

41. Amaliy qismda nima o'rganiladi?

- A) mavzuning nomini
- B) raqs sahnalashtirish metodikasi
- S) raqs tasvirini nomlarini
- *D) nazariy qismda o'rganilgan bilimlarni amalda bajarish

42. Baletmeyster xoreografiya bilimidan tashqari nimalarni bilishi kerak?

- A) tarix
- B) matematika
- S) ximiya
- *D) rejissura, dramaturgiya

43. Baletmeyster dramaturg va rejissyordan nimasi bilan farqlanadi?

- *A) xoreografik obrazlar yaratadi
- B) dramatik obrazlaryaratadi
- S) musiqiy drama yaratadi
- D) badiiy asar yaratadi

44. Xoreografiya bu nima?

- A) rasm
- *B) raqs sa'natiga kiruvchi barcha narsalar
- S) musiqa
- D) xor san'ati

45. Xoreografiya necha qismdan iborat?

- A) ikki
- B) olti

*S) uch

D) besh

46. Raqsda inson xis-tuygʻulari nima orqali ifodalaniladi?

A) nutq bilan

B) boʻyoqlar orqali

S) musiqiy tovushlar orqali

*D) imo-ishora, xarakatlar va musiqa orqali

47. Drammaturgiya qonunlari necha qismdan iborat?

A) ikki

B) olti

S) uch

*D) besh

48. Ekspozitsiya – nima degani?

A) asarni xotimasi

B) asarning rivojlanishi

S) asarning tuguni

*D) asarning kirish qismi

49. Tugun nima?

A) asarning xotimasi

B) asarning rivojlanishi

*S) asar qaxramonlarining bir-biri bilan toʻqnashuvi

D) asarning tuguni

50. Asar voqeasining rivojlanishi nima?

*A) xoreografik asardagi voqealarning notekisligi

B) asarning yechimi

S) asarning xotimasi

D) asarning avji

51. Asarning avj qismi nima?

A) xoreografik asardagi voqealarning notekisligi

B) asarning yechimi

S) asarning xotimasi

*D) asardagi eng qisqa va yuqori choʻqqisi

52. Asarning yechim qismi nima?

A) Asarning avji

*B) Asarning tugashi

S) Asarning kirish qismi

D) Asar voqeasining rivojlanishi

53. Ijrochilar bilan ishlashning nechta turi bor?

A) Uchta

B) Toʻrtta

S) Beshta

*D) Ikkita

54. Duet nima?

A) Yakka ijro

B) Toʻrt kishilik

S) Ommaviy raqs

*D) Ikki kishilik ijro

55. Trio nima?

A) Yakka ijro

B) Toʻrt kishilik

S) Ommaviy raqs

*D) Uch qishilik ijro

56. Syujetsiz raqs xam dramaturgiya qoidalariga bo'ysinadimi?

*A) Bo'ysinadi

B) Yo'q

S) Bo'lishi mumkin

D) Mumkin emas

57. Musiqa dramaturgiya qoidalariga bo'ysinadimi?

A) Goxida

B) Bo'lishi mumqin

S) Bo'lishi mumkin emas

*D) Xa

58. Raqs tili nima?

A) Maqsad

*B) Vosita

S) Xoxish

D) Mazmun

59. Raqs nutqi nima?

*A) Maqsad

B) Vosita

S) Xoxish

D) Mazmun

60. Raqs tasviri nima?

A) Maqsad

B) Vosita

*S) Ijrochilarning saxnadagi joylashuvi

D) Mazmun

61. Geometrik shaklsiz raqs tuzilishi mumkinmi?

*A) Yo‘q

B) Ba‘zan

S) Mumkin

D) Baletmeysterga bog‘lik

62. Oddiy raqs tasviri nima?

A) Ikki va undan ko‘p raqs tasviri

*B) Bitta raqs tasviri

S) Ikki raqs tasviri

D) Besh va undan ko‘p raqs tasviri

63. Murakkab raqs tasviri nima?

*A) Ikki va undan ko‘p raqs tasviri

B) Bitta raqs tasviri

S) Ikki raqs tasviri

D) Besh va undan ko‘p raqs tasviri

64. Rakurs nima?

A) Harakat

B) Tasvir

S) Musiqa

*D) Ijrochining tomoshabinga nisbatan turishi

65. Rakursning raqsdagi ahamiyati?

A) Raqsni boyitadi

B) Raqsni ommalashtiradi

*S) Raqsni qiziqarli chiqishi uchun

D) Tomoshabinni jalb qiladi

66. “Navda egilishi” harakati qaysi holatda bajariladi

*A) 3-holatda

- B) 2-holatda
- S) 1-holatda
- D) 4-holatda

67. “Mayin sabo” harakati qaysi holatda bajariladi

- A) 6-holatda
- B) 7-holatda
- S) 3-holatda
- *D) 2-holatda

68. O‘zbek raqs maktabi nechta

- A) 4ta
- B) 5ta
- S) 6ta
- *D) 3ta

69. 4-holatda qaysi harakat bajariladi

- A) “Shoxcha”
- B) “Uyalish”
- *S) “Uzum uzish”
- D) “Yeng qoqish”

70. “Doira dars” nechta bo‘limdan iborat

- *A) 4ta
- B) 3ta
- S) 5ta
- D) 6ta

GLOSSARIY

Авж – (арабча чўққи, баланд) – 1) Ўн икки мақом мажмуасидаги маълум шўъба номи; 2) мусиқа асарининг юқори пардалардаги чўққиси, кульминация доираси, яъни мусиқа асарининг энг баланд регистрдаги давомли куй тузилмаси. Мақомларнинг чолғу ва айниқса айтим бўлимлари, ашула, катта ашула, сувора ва йирик шаклли чолғу куйлардан кенг ўрин олган.

Арбоб – фан, маданият, санъат соҳасида ёки давлат ишида фаолияти билан танилган, шу соҳада ўзини кўрсатган шахс.

Баёт – 1) Ўн икки мақом тизимидаги муайян шўъбалар номи (масалан Наврўзи Баёт, Баёти Ажам); 2) Шашмақомда Наво, Хоразм мақомларида Наво ва Дугоҳ мақомларитаркибидаги шўъбалар; 3) Тошкент-Фарғона мақом йўлларида беш қисмли йирик ашула туркуми.

Балет – (лотинча ballo - рақсга тушаман) – асар мазмуни мусикий хореографик образлар воситаси билан ифодаланадиган сахна санъати тури. Ўзида санъатнинг драматургия, мусиқа, хореография, тасвирий санъат каби турларини уйғунлаштиради, бу санъат турларининг ҳаммаси алоҳида-алоҳида мавжуд бўлмай, балетнинг синтез маркази бўлган хореографияга бўй сунади.

Балеимейстер – (немисча ballettmeister – балет устаси) – балет спектакллари, хореографик чиқишлар, опера, оперетта, драматик спектакллардаги рақс сахналарининг муаллифи ва сахналаштирувчиси.

Метод - юнонча сўз бўлиб, йўл, усул, ҳаракат усули маъносини билдиради.

Назария (илмий) - воқеликнинг у ёки бу соҳасидаги қонуниятлар ҳақида яхлит тасаввур берувчи илмий билимни ташкил этиш шакли.

Намоёнда – бирор ижтимоий гуруҳга ёки соҳага мансуб бўлган шахс, вакил.

Раққоса – рақсга тушувчи санъаткор аёл, ўйинчи.

Рақс – санъатнинг ифодали тан ҳаракатлари воситасида бадиий образлар яратувчи тури.

Санъат – ижтимоий онг инсон фаолиятининг ўзига хос шакли. Санъат одамларнинг эстетик талабларини қондириш билан бирга, ўз тараққиётининг

турли даврларида жамият аъзоларини маълум руҳда тарбиялаш, уларни ақлий ва ҳиссий жиҳатдан ривожлантириш воситаси сифатида хизмат қилиб келган, уларнинг турли мақсад, ҳис-туйғу, манфаат, идеалларини ифода этган. Санъат ижтимоий онгнинг бошқа шаклларида ўзининг предмети, мазмуни, воқеликни ифода этиш усули ва услуби, ижтимоий ҳаётда тутган ўрни ҳамда вазифалари жиҳатдан фарқ қилади. Санъат инсоннинг моддий ва маънавий фаолиятидаги билими, тажрибаси, маҳорати ва қобилиятларини намоён этувчи бадиий ижодиёт маҳсулидир.

Саҳна – томошахона, клуб ва шу кабиларнинг спектакль қўйиладиган, концерт бериладиган жойи (*театр саҳнаси, клуб саҳнаси*)

Саҳналаштириш – бадиий асар ёки рақсни саҳнага қўйиш учун мослаб қайта ишлаш.

Такт – (лотинча *tactus* – тегиш, таъсир этиш) – бир кучли ҳиссадан шу каби иккинчи кучли ҳиссага қадар бўлган оралик, метрнинг ҳар доим қайтарилиб туриши. Такт чизиғи – беш ёндош чизиқни бирлаштирувчи тўғри чизиқ. Бу чизиқ бир тактни иккинчисидан ажратади. Тактлар оддий ва мураккаб бўлади. Оддий такт бир кучли ҳисса бўлиб, мураккаб тактда икки ва ундан кўп кучли ҳиссалар бўлади. Такт ўлчовлари 2, 3, 4, 5, 6, 7 ва ундан ҳам кўп бўлиб, булар бир бутуннинг 4 ёки 8 га бўлинганидан олинади.

Тарбия – аниқ мақсад асосида шахсда ижобий хислатларни шакллантиришга қаратилган фаолият.

Таълим – инсоннинг маълум бир тизим асосида олган билим, кўникма, малакаси ва эгалланган маънавий фазилатлари йиғиндисидир.

Устоз - чуқур билимга эга, юксак тарбия кўрган, комил инсонни вояга етказишга интиладиган ҳамда ўз билими ва барча ахлоқий фазилатларини шогирдининг маънавий камолоти учун сарфлаб, жон куйдирадиган ва иймонли инсон.

Фан - билиш фаолиятининг янги, объектив билимлар ишлаб чиқишга йўналтирилган алоҳида тури, воқелик ҳақидаги билимларнинг уюшган тизими.

Фарғона рақси – ўзбек халқ рақс услуби. Фарғона водийсида шаклланиб, ривожланиб келган. Қадди-қоматни эркин тутиш, енгил ва ифодали юришлар, кўп қиррали, пухта ишланган ва аниқ маъноларга эга бўлган кўл, билак, бармоқ ҳаракатлари, нигоҳлар, нафис бош ҳаракатлари фарғона рақсининг асосини ташкил этади. Шунингдек Фарғона рақсида уфолар (усул-ҳаракатлар)нинг аҳамияти катта. Муайян рақс шакли ва ҳаракатларини ҳосил қилувчи рез, титратма, шох, гул ўйин, йўрға, сарбози, чарх, ҳаққони, ором, жилвони, сахта, дучоба, рог, катта само, яллама, қайтарма, дупоя (оқсатма), олма-анор каби бизгача етиб келган усуллар шу жумладандир.

Хореография – рақс ва балет асарлари ҳамда уларни сахнада ижро этиш.

Шахс ривожланиши - инсоннинг бутун умри давомида ақлий ва жисмоний ўзгариши жараёнидир.

Шогирд - мустақил фикрлайдиган ва ўз-ўзини англаган, ўз куч ва имкониятларига таянадиган, атрофида содир бўладиган воқеаларга муносабат билдира оладиган, ўз хатоларидан хулоса чиқара оладиган, касб-хунарга интилган, устоз васийлигидаги шахс.

XULOSA

Raqs san'ati eng nozik san'at turi bo'lib, xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. O'zining betakror jozibasi, sehri bilan ruhiyatimizga ta'sir etgan, maftun qilgan go'zal bir olamdir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish" to'g'risidagi farmoni milliy raqs san'atining rivoji va kelajagini ta'minlash imkonini berdi.

Son – sanoqsiz raqslarning murakkab shakllarini o'rganib olish uchun artist ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirishi, tinmay mehnat qilishi, matonatli, sabrli va g'ayratli bo'lishi kerak. Inson raqsning qaysi turi bilan shug'ullanmasin, merosiy raqlarni o'zlashtirishi lozim. Professional raqs texnikasini egallash uchun ko'p yillar davomida tinmay ishlash lozim. Raqslarning mazmunini yaxshi tushunish uchun raqqos va raqqosalarda rassomlarga xos sezgirlik bo'lishi kerak.

Raqqos va raqqosalar butun ijodiy faoliyati davomida merosiy raqlarga qayta-qayta murojaat qilishi bejiz emas. Merosiy raqs borliqni harakat orqali tasvirlash erkinligini va o'z tanasini musiqaning ma'lum bir o'lchovlarida nazokatli harakatlantira olish imkonini beradi. Fanning asosiy maqsadi raqs ijrochisining tanasini rivojlantirib, xarakatlarni erkin bajarishga o'rgatish hisolanadi. Qaddi-qomatni to'g'ri shakllatiradi, koordinatsiya olish, egiluvchanlikdan tashqari ijodiy fikrlashni, raqs ijrosi madaniyatini shakllantiradi.

Oliy ta'limning davlat standartlariga asosan "Raqs" fani bakalavriatning 5111000-Kasb ta'limi (yo'nalishlar bo'yicha), 5150300-Aktyorlik san'ati (turlari bo'yicha), 5150400-Rejissyorlik (turlari bo'yicha), 5151600-Xalq ijodiyoti (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishida "Umumkasbiy fanlar" blokida o'qitiladi.

Ushbu fanni o'qitish jarayonida talabalarga xoreografiya san'ati asoslari, fanni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari (amaliy mashg'ulot), merosiy raqs tushunchasi, uning raqs san'ati ta'limidagi o'рни, funksiyalari, bilish va bajarish, ijod jarayonida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

Qo'lingizdagi o'quv qo'llanma aktyor va rejissyorlar, jamoa rahbarlari va tashkilotchilariga raqs san'atining asoslarini o'qitishda qo'l keladigan o'quv adabiyoti hisoblanadi.

Unda fanni o'qitish uchun berilgan mashqlar shu fan bo'yicha barcha bilimlar batamom va behato yoritilgan degan fikrdan yiroqmiz.

Ta'lim jarayoni keng tarmoqli bo'lib, yetuk mutaxassislarni tayyorlashni har tomonlama qamrab oladigan ishdir. Xilma-xil ta'lim-tarbiya sohalari, shu jumladan, estetik, ahloqiy, madaniy va ma'naviy tarbiya sohaslarini uzviy bog'liq holda olib borilgandagina davr talabiga mos kadrlarni yetishtirish mumkin. Buning uchun yangi innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, doimo izlanish va ijod qilish, davr bilan barobar qadam tashlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent – 2008
2. R.Karimova. “O‘zbek raqslari”. Toshkent. “Cho‘lpon” nashriyoti. 2003 y.
3. X.Xamidova, D.Sayfullayeva, S.Zokirova. “Merosiy raqs durdonalari” Toshkent. “Cho‘lpon” nashriyoti. 2003 y.
4. D.Sayfullayeva, Z.Kazakbayeva. “O‘zbek raqs san’ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari”.T. “Voris-Nashriyoti” M.CH.J. 2006 y.
5. R.Karimova, D.Sayfullayeva. “O‘zbek yakka ayollar raqsi”. Toshkent. “Cho‘lpon” nashriyoti. 2007 y.
6. L. Avdeyeva. “O‘zbek milliy raqsi tarixidan”, T., 2001 yil.
7. N.Abraykulova. “Raqs jamoalari bilan ishlash uslubiyoti” Toshkent. “Xalq merosi” nashriyoti. 2004 y.
8. Madaniyat va san’at atamalarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2015y.

1. ¹ Jin Seon-hui (*Jinseonhui penopmep*). *Mavzu sayohat-Lichun’ o’yini* (Korean), Hallailbo/Daum yangiliklari (2 fevral 2008). «Chedju Lichun’ degan yaxshi o’yin bor. Aytishlaricha bu o’yin milliy festivalni yo’q qilish uchun siyosatchilar tomonidan o’ylab topilgan. 1999 yilda Chedjuda yangi qazilma ishlar boshlanadi, ular hozir ham davom etmoqda.
2. Clark, Donald N. (2000) Koreyaning madaniyati va urf-odatları, Greenwood Publishing Group, 49-bet
3. Ferrante-Wallace, Joan (2005), *Ie Soc Global Perspect*(Umumiy perspektiva) Thomson Wadsworth, 96-bet
4. Ular bilan raqs. Yaponiya sudi qarshi chiqqan vaqt (Koreya), *Gyeonghyang Ilbo* (31 may 2007y).

MUNDARIJA

Annotatsiya	4
Kirish	6
I BOB. Nazariy qism	
1-Mavzu. Raqs san’ati	
1.1. O‘zbek raqs san’ati tarixidan	8
1.2. Sahna sxemasi va shartli belgilar	13
2-Mavzu. O‘zbek raqsini o‘rgatish metodikasi	
2.1. Farg‘ona raqs maktabi	14
2.2. Buxoro raqs maktabi	21
2.3. Xorazm raqs maktabi	27
II BOB. Amaliy qism. Merosiy raqslarning bayoni	
1-Mavzu. “Bayot” raqsi	33
2-Mavzu. “Pilla” raqsi	55
3-Mavzu. “Paxta” raqsi	78
4-Mavzu. “Janon” raqsi	102
5-Mavzu. “Gulsara” raqsi	118
6-Mavzu. “Farg‘ona ruboiysi” raqsi	140
Test savollari	166
Glossariy	180
Xulosa	183
Foydalanilgan adabiyotlar	185